O‘QISH KITOBI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
4-sinfi uchun darslik

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 6-nashri

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

TOSHKENT
«YANGIYO‘L POLIGRAF SERVIS»
2017

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K: 82=371.671.17=512.133(075.2)
KBK: 81.2O‘z-922
O‘ 97
O‘qish kitobi 4-sinf: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik / S. Matchonov [va boshq.]. - Qayta ishlangan va to‘ldirilgan oltinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. - 216 b.

UO‘K: 82=371.671.17=512.133(075.2)
ISBN 978-9943-382-84-8 KBK 81.2O‘z-922

Mualliflar:
S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov

Taqrizchilar – **Islom Yoqubov,** O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi;
Nazira Ahmedova, RTM boshlang‘ich ta’lim bo‘limi boshlig‘i;
Dildora Pulatova, TVXTXQTMOI ning katta o‘qituvchisi;
Sojida Abdullayeva, Toshkent shahar Bektemir tumanidagi 290-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Shartli belgilar:



– She’r



– Hikoya



– Ertak



– Rivoyat



– Masallar



– Dostondan parcha



– Qissadan parcha



– Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar


– Darsning tugashi

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-382-84-8

© «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017.
© S. Matchonov va boshq., 2017.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi



MANGULIKKA TATIGULIK KUN

Safar Barnoyev

1991-yil 31-avgust O‘zbekistonimiz uchun asrga tatigulik kun bo‘ldi. Shu kundan boshlab O‘zbekiston zaminida mardona «Mustaqillik» so‘zi tilimizga ko‘chdi, ongimiz, tilimizdagi qulf sharaqlab ochilib ketdi.

O‘tgan davr mobaynida yoshi ulug‘lar ham, yoshi kichiklar ham qayta tug‘ildi. Bobomiz sohibqiron Amir Temurni tanidik. Shoh va shoir, sarkarda Bobur Mirzoning ruhini shod etdik. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ali Romitaniy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi yuzlab ajdodlarimizni bilib oldik.

Istiqlolga erishgach, qisqa muddat ichida O‘zbekiston dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqib oldi. Bunda mashinasozlik kabi sanoat tarmoqlari, yer osti qazilma boyliklari, qishloq xo‘jaligi katta ahamiyat kasb etadi.

O‘tgan yillar ichida O‘zbekiston o‘z bug‘doy zaxirasiga ega bo‘ldi. «O‘zbekiston bug‘doyi» degan so‘zlar til boyligimizdan mustahkam o‘rin egalladi. Toshkent, Buxoro, Xiva hamda Samarqanddagi tarixiy obidalarga e’tibor kuchaydi.

Bugun qishloqlarimizga sanoat kirib bormoqda. Dunyoning eng so‘nggi texnikasi O‘zbekistonga ko‘chib kelmoqda. Uning haqiqiy egalari, boshqaruvchilari sizlar bo‘lasizlar, aziz o‘quvchilar! Bugungi ishlar, qurilishlar siz – bolalarga abadiy mulk bo‘lib qoladi.



O‘zbekiston atalmish gullagan diyorning yer, mulk egalari har jihatdan o‘qimishli, hunarmand, haq-huquqlarini biladigan bo‘lib yetishishlari zarur. Zero, mustaqil respublikamiz bolalarining ilm olish va hunar egallashlari uchun dunyo darvozalari keng ochib berildi.

1. Nima uchun 1991-yilning 31-avgustini asrga tatigulik kun deymiz?
2. Mustaqillik tufayli Vatanimizning gullab-yashnashiga misollar keltiring.

IQBOLI BUYUKSAN

Abdulla Oripov

Avvalo rahmatdir Onaga,
So‘ng esa albatta Otaga.

Bizlarga eslatmish hayotni,
Unutmang hech qachon ustozni.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Sen o‘zbek elining farzandi,
Istiqlol yurtining dilbandi...

Vataning g‘oyatda keng erur,
Barchaga barobar, teng erur.

Mehnatda qotsa ham suyaging,
Hech yerga tegmasin kuraging.

Chiniqtir, mayliga, sen tanni,
Unutma va lekin Vatanni.

Bolajon, sen doim suyuksan,
Bilib qo‘y, iqboli buyuksan!



1. She’rni ifodali o‘qib, mazmunini izohlang?
2. Ona bilan Vatan tushunchalari nima uchun qiyoslanadi?

QODIR BOBONING ORZUSI

To‘lqin Hayit

«Kasbini kim egallarkin?» Keyingi kunlarda shu o‘y Qodir boboni xiyla o‘ylantirib qo‘ydi. Bu yil saksonga to‘ladi, umr oqar daryo, ko‘z ochib yumguncha, shu yoshga yetib qoldi. Ozod Vatanda, mustaqil yurtda shukronalik bilan qariyalik gashtini suryapti-yu, ammo birgina shu o‘y unga tinchlik bermaydi.

Asaka shahrida yengil mashinalar ishlab chiqarish zavodi qurila boshlaganida, hali ancha tetik, baquvvat, bardam edi.

Zavq-shavqqa to‘lgan holda yeng shimarib, birinchilar qatori ishga keldi. Endi bizning ham o‘z avtomobillarimiz bo‘ladi, degan shirin o‘y unga qanot bag‘ishlab,

bir quvonchiga o‘n quvonch qo‘shdi. Birinchi o‘zbek avtomobillari – «Tiko», «Damas», «Neksiya»larning zavoddan turna qator chiqayotganini ko‘rganda esa o‘zini dunyodagi eng baxtli odamdek his etgani esida. Mustaqillik shunday imkoniyat va quvonch berganidan juda-juda mamnun edi.

U rasm chizayotgan nevarasiga qaradi. Ishini kim davom ettiradi endi? Katta o‘g‘li iqtisod yo‘lidan ketdi, ikki qizi – o‘qituvchi. Yana bitta o‘g‘li bo‘lganda, balki ota kasbini egallarmidi?! Odam degani qariganida ham xotirjam yasholmas ekan-da…

U beixtiyor nevarasi tomon egildi.

– Nimalarning rasmini chizyapsan, Po‘latjon?

– O‘zimizning mashinalarni! Mana bunisi – «Neksiya», bunisi – «Matiz»!



Qodir boboning tomog‘idan bir narsa sirg‘alib o‘tdi.

– «Kasbimni shu nevaram egallarmikan?!» – deya o‘ylarkan, qog‘ozdagi rasmlarga qarab yuragi yana entikdi.

– O‘xshabdi! Chiroyli chizibsan!

– Siz ham shunaqa mashinalar chizganmisiz, bobojon?

Qodir bobo horg‘in nafas oldi:

– Yo‘q, bolam, men bunaqa rasmlar chizmaganman. Yoshlik paytim ocharchilik yillariga to‘g‘ri kelgan. Bir burda non topish ilinjida erta-yu kech mehnat qilganman!

U gapni boshqa yoqqa burdi:

– Bu rasmlarni nima uchun chizding, bolam?

– Katta bo‘lsam, bobojon, zo‘r mashinalar yasayman!

Qodir bobo, yuragi go‘yoki o‘z qolipiga tushgandek, birdan xotirjam tortdi. Kutgani shu emasmidi?! U beixtiyor nevarasini bag‘riga bosib, yuz-ko‘zlaridan o‘pdi.

1. Qodir boboning oldingi hayoti bilan hozirgi hayotini solishtiring.
2. Siz kelajakda qanday kasb egasi bo‘lmoqchisiz?

ISTIQLOL BOLALARI

Dilshod Rajab



Istiqloldan bahra olgan,
Yurt mehrini dilga solgan,
Shodlik kuyin baland chalgan,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o‘g‘il-qiz bolalar.

Vatan – ozod, Vatan obod,
Kelajakka boramiz shod,
Shodon avlod – sog‘lom avlod,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o‘g‘il-qiz bolalar.

A’lo o‘qish – chin ontimiz,
O‘zbek elin quvonchimiz,
Buyuk Vatan ishonchimiz,
Biz bolalar, biz bolalar –
Quvnoq o‘g‘il-qiz bolalar.

1. Shoirning bolalar nomidan jo‘shib kuylashining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
2. She’rning «Istiqlol bolalari» deb nomlanishini o‘z so‘zlaringiz bilan tushuntiring.

SERQUYOSH O‘LKA

Zafar Diyor



Do‘stlar, mening yurtimni
O‘zbekiston deydilar,
Dong‘i tutgan dunyoni
Bog‘-u bo‘ston deydilar.

Osmoni keng, beg‘ubor,
Shifobaxshdir havosi,
Dimog‘larni chog‘ etar
Uning shodon navosi...

Bog‘larida mevalar
Sharbat bo‘lib pishadi,
Uzum, olma, behilar
Yo‘lingizga tushadi...

Shunga ko‘ra deydilar:
Serquyosh O‘zbekiston,
Baxtiyor bu zamonda
Yashnagan bog‘-u bo‘ston.

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. She’rdagi «serquyosh o‘lka» iborasini qanday so‘zlar bilan almashtirish mumkinligini aniqlang.

XARITA

Normurod Norqobil

I

Matematikani demasa, Rasul boshqa fanlardan xiyla nochor o‘qirdi. Ayniqsa, rasm darsini jini suymasdi. Qizlar kashta tikkanday, allaqanday gullar-u jismlarning shaklini erinmay chizib o‘tirishga sira toqati yo‘q edi. Shuning uchun ham sinf rahbari uni eng a’lochi o‘quvchilardan Samadga biriktirib qo‘ygandi.

Ammo u akasi uyda kezlardagina Samadning izmiga bo‘ysunar, ya’ni tinchgina darsini qilar, qolgan payt Samadni kurashga tortib, torgina darsxonaning changini chiqarardi. Shu bois, Samad har gal istar-istamas ostona hatlardi. Ammo bu safar u hovliqib kirib keldi. Qo‘lidagi papkasini bir chetga uloqtirib, qo‘ynidan to‘rt buklangan qog‘oz chiqardi.

– Qara, nimani chizdim, – dedi hayajonlanib. – Qishlog‘imiz xaritasini... Manavi yerga chegarachilarni qo‘ydim. Qalay, zo‘rmi?

– Shuning nimasiga hovliqasan, buncha? – dedi Rasul hayron bo‘lib. – Oddiy rasm-da.

– Hali bizda hech kim qishlog‘imiz xaritasini chizmagan, – dedi Samad qizishib. – Buni birinchi bo‘lib men chizdim. Sen yaxshilab qaragin, juda qiziq bu. Manavinisi o‘zimiz yozda cho‘miladigan ko‘l, bunisi podayotoq... Katta ko‘cha sal qiyshiq chiqibdi. Bunisi maktab, shifoxona... Lekin o‘zimizning hovlini juda o‘xshatib chizdim.

Rasulga egri-bugri chiziqlar bo‘ylab borayotgan chegarachilar, ulardan ham ko‘ra iti ko‘proq ma’qul bo‘ldi.

Rasul ostonaga yaqin joyda xumday boshini oyoqlari ustiga qo‘yib yotgan itiga g‘amgin tikildi. Itining holi yo‘qligiga juda achindi. Lekin sir boy bermaslikka urinib, chegarachilarga imo qildi:

– Unda manavilar kim?

– Oldindagisi men, keyindagisi sen. Qishlog‘imizni qo‘riqlayapmiz. Qiziq bo‘lsin deb chizdim-da.

– Qishloqni nimadan qo‘riqlaymiz? – Rasul hayron bo‘ldi.

– Nimadan bo‘lardi... – Samad javob topolmay, bir muddat chaynalib qoldi. – Nimadan bo‘lardi, bo‘rilardan-da. O‘tgan qish qo‘ylarimizni qiyratib ketishgani esingdan chiqdimi?

– Unda buni chegarachi emas, qorovul deydilar.

– Nima farqi bor, – Samad tumshayib, rasmga qo‘l cho‘zarkan, birdan yuzi yorishib ketdi. – Aytgancha, muallimimizning gapi esingdami? U kishi qishlog‘imizning o‘zi bir vatan, kichik vatan, degandilar. Vatanni qorovul emas, chegarachi qo‘riqlaydi.

Bu gap dastlab o‘zining xayoliga kelmaganidan Rasul ichida o‘zidan qattiq ranjidi. Shunda u birdan ikkinchi chegarachiga nisbatan birinchisi xiyla durust chizilganini payqab qoldi.

– Ikkinchisi emas, birinchisi men, – dedi u.

– Yo‘q, birinchisi men.

– Meni bukriga o‘xshatib qo‘yibsan-ku!

– Hecham-da, – Samad qog‘ozni buklab qo‘yniga soldi. – O‘zing chizolmaysan, chizganni ko‘rolmaysan.

Bu gap Rasulga ayilday botdi.

– Chizolmaymanmi?

– Chizolmaysan! – dedi Samad tap tortmay. – Bu senga shunchaki rasm emas, xarita. Xarita chizish uchun kalla kerak. Hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi bu.

– Chizolmaymanmi?

– Yo‘q chizolmaysan!

Ularning tortishuvi Samadning arazlab ketishi bilan yakunlandi.



1. Samadning qishlog‘i xaritasini chizishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?
2. Bolalarning tortishib qolishi sababini izohlang.



II

Samadning gapi turib-turib Rasulga juda alam qildi. «Sen chizgan narsani men chizolmaymanmi? – dedi ichida, – hali shunday bir zo‘r xarita chizayki, hayratdan og‘zing ochilib qolsin». U qishlog‘i va uning atrofidagi dala-dashtlarni xayolan ko‘z o‘ngida gavdalantirib, stolga o‘tirdi. Ammo chizgani o‘ziga yoqmadi, ikkinchi, uchinchisi ham ma’qul kelmadi. Samadning rasmida chegara nuqtali chiziqlar bilan chizilgan bo‘lib, ayni shu nuqtalar suratni juda bezab turardi. Boz ustiga, shuncha harakat qilsa-da, nuqtalar

bir xil chiqmas – biri katta, biri kichik, Samadniki esa xuddi qolipdan chiqqan g‘ishtdek bir tekis edi...

Bu sirning tagiga yetolmay, Rasulning juda boshi qotdi. Bir xayoli, chizmani yig‘ishtirib otmoqchi ham bo‘ldi-yu, Samadning gapini eslab, tag‘in fikridan qaytdi. U yerga mukka tushib, qog‘oz yuziga dastlabki chiziqni tortdi. Tortdi-yu, quvonchidan qichqirib yubordi. Chiziq qog‘oz yuziga nuqta-nuqta bo‘lib tushgandi.

– Buni qara, buni qara! – dedi u o‘rnidan sakrab turarkan, qog‘ozni akasiga ko‘rsatib.

Akasi kitobdan boshini ko‘tarib, qog‘oz yuziga loqayd tikildi.

– Nima edi? – dedi so‘ng quvonchi sababini tushunmay.

– Qaragin, nuqta-nuqta...

– Nima bo‘pti, gilamga qo‘yib chizganingdan keyin nuqta-nuqta bo‘ladi-da.

O‘zi uchun zo‘r kashfiyot bo‘lib tuyulgan ishning akasi tomonidan tez va osongina ilg‘anishi Rasulni ham hayratga soldi, ham uyaltirdi.

Dastlab ish juda yengil ko‘chdi. Rasul cho‘l va daryolar tasvirini osongina tushirdi-yu, lekin shaharlarga kelganda biroz o‘ylanib qoldi. Negadir xaritadagi tasvirni aynan ko‘chirgisi kelmadi. Ko‘hna yodgorliklarning jimitdek tasviri uni qanoatlantirmadi. Akasining kitobini titkilab, undan Shohi Zindani topdi-da, iloji boricha o‘xshatishga harakat qildi. Keyin yoniga «Samarqand» so‘zini bitdi. Buxoroda ikkita osmono‘par minora bilan qanoatlandi.

«Xiva» degan joyga Shohi Zindaga o‘xshash yodgorliklarning rasmini ishladi. Keyin umrida ko‘rmagan Toshkentni o‘zicha tasavvur qilib, ko‘p qavatli binoning rasmini chizdi-da, yoniga avtobusni tirkab qo‘ydi. So‘ng xaritada faqat nomi bitilgan boshqa shaharlarga ham shunga o‘xshash suratlar ishlab chiqdi. Qog‘oz yuzi to‘lgan sayin, battar zavqi oshib cho‘l degan joyga qo‘yning suratini ish--ladi. Jonivor qo‘ydan ko‘ra ko‘proq itga o‘xshab qolganiga ham e’tibor bermadi. Lekin paxta suratini juda chiroyli tushirdi. «Tog‘li zona» degan bo‘limga tog‘ning suratini chizib, oppoq bulutlar ustiga nur sochib turgan oftobni qo‘ndirdi...

Qilayotgan ishi uni o‘ziga qattiq mahliyo qilib qo‘ygan edi. Xaritani ko‘rgan akasi hayratlandi.

– Nomini nima deb qo‘yamiz, nomini? – dedi Rasul maqtovga zig‘ircha e’tibor bermay.

Akasi o‘ylab o‘yiga yetguncha nomni o‘zi topdi va qo‘lidagi qalami bilan xarita tagiga «O‘zbekiston» so‘zini bitdi.

Papkasini unutib qoldirgan Samad qaytib kirganida Rasul xaritaga mahliyo bo‘lib termulib turardi.



1. Rasulning xaritada Samarqand, Buxoro, Xiva sha-harlarini ko‘hna yodgorliklar misolida tasvirlashining sababini ayting.
2. Daftaringizga O‘zbekistonga chegaradosh davlatlarning nomlarini va ularning poytaxtlarini yozing.



MARDLIK VA AQL YORUG‘LIGI

Miraziz A’zam



Bir gapim bor, ukajon,
Diqqat bilan quloq sol.
Aytsam, o‘gitga o‘xshar,
Aytmasam, lekin uvol.

Bir o‘g‘lonning shu gapi
Ko‘nglimga og‘ir tegdi:
«O‘g‘il bolaga ilm
Juda zarurmi? – deydi.

– O‘g‘il bola pahlavon,
Kuchga to‘la, zo‘r bo‘lsin.
Marddek tursin maydonda,
Yuragida qo‘r bo‘lsin».

Bu gapi-ku yomonmas,
Hamma mard bo‘lsa qani!
Bilimga oid gapi
O‘ylatib qo‘ydi mani.

Aqlni faqat ilm
Yorug‘ qilar, ukajon.
Yorug‘ aql Vatanni
Olg‘a boshlar begumon.

O‘g‘ilga mardlik kerak,
Ilm ham kerak tayin.
Ilmsiz mardning esa
Holiga yig‘lar maymun.

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling. «Ilm», «mardlik», «aql» so‘zlarini izohlang.

KICHIK VATAN

Ashurali Jo‘rayev

O‘shanda uchinchi sinfda o‘qirdim. Biz oilamiz bilan boshqa qishloqqa ko‘chadigan bo‘ldik. Ko‘chishimizdan bir kun oldin akam bilan otam mollarni haydab, yangi uyimizga ketishdi. Ularga itimiz ham ergashdi.

Ko‘chamiz, degan kundan buyon bobomda qanday-dir bezovtalik boshlandi. U kishining ranglari o‘zgarib, biroz g‘amgin bo‘lib qoldilar.

Ertaga ko‘chamiz, degan kuni bobomda umuman halovat bo‘lmadi. Buvimning aytishlaricha, tuni bilan bezovta bo‘lib, uxlamay chiqibdilar.

Uydagi qolgan-qutgan narsalarni yig‘ishtirib, tugunlarga bog‘lab, kichik qutilarga joylagach, bobom fotihaga qo‘shib tilovat qildilar. Bobomdagi xomushlik fotihadan so‘ng bir lahza hammamizni chulg‘agandek bo‘ldi. Birozdan so‘ng bobom aytgan Shoyim tog‘a mashinasida yetib keldi. Bobom mendan boshqa hammani mashinaga chiqishga taklif qildi. Yuklarni

ortib bo‘lganimizdan so‘ng buvim bilan eng kichik ukam kabinaga joylashdi. Qolganlar mashinaning kuzoviga chiqishdi.

– Yaratgan egam hamrohlaring bo‘lsin. Sog‘-omon yetib olinglar! – bobom fotiha berdilar.

Bobom bilan huvullagan hovlida yana birpas qoldik. Bobom bog‘imizdagi daraxtlarga, ishkomga, hovli etagidagi shiyponchaga, molxona va bostirma tomonlarga qarab yana bir bor xo‘rsindi.

Bu orada uyimizni sotib olgan Erdon tog‘a ko‘ch-ko‘roni bilan kelib qoldi. Bobom bilan salom-alik qilishdi. Bobom qo‘lidagi kalitlarni unga topshirib duo qildi:

– Iloyo, bu uyda to‘ylar qiling, xonadoningizda yaxshi va baxtli kunlar ko‘p bo‘lsin.

– Keyingi haftada uy to‘yi qilamiz. Xabar beramiz, kelasiz-da, Jo‘ra bobo, – dedi Erdon aka.

– Albatta kelaman, Erdonboy, – dedi bobom ko‘zlari kulib. Uyning yangi egalari ko‘chlarini tushirish va kiritish bilan mashg‘ul edi.

Bu manzarani kuzatib turgan bobomning ko‘zlari yoshlanganini ko‘rib, mening ham ko‘nglim buzildi. Buni sezgan Erdon tog‘a bobomni bir piyola choyga taklif qildi. Agar xohlasa, qolib mehmon bo‘lib ketishini ham alohida ta’kidladi.

Bizning eski chorpoyamizga yangi dasturxon yozildi. Non, choy, qand-qurs qo‘yishdi.

– Bu hovli-joy otamdan qolgan edi, – deb hikoyasini boshladi bobom hazin ovozda. – Bolaligim



mana shu hovlida o‘tdi. Shu hovlida uylanib, bola-chaqalik bo‘ldim. Shu hovlida soch-soqolim oqardi. Hayotimdagi eng yaxshi va yomon kunlarim ham shu hovlida o‘tdi. Rahmatli ota-onam va bir farzandimni ham shu hovlidan chiqardim. Tug‘ilib o‘sgan uying kichik Vatan ekan, Erdonboy. Endi bu Vatanni sizga topshiraman.

– Bobojon, kichik Vatan ham bo‘ladimi? – beixtiyor so‘radim.

– Bo‘ladi, bolam, bo‘ladi. Odamning yashaydigan uyi, hovli-joyi – kichik Vatani. Ana shu kichik Vatanlar yig‘ilib-yig‘ilib, birlashib O‘zbekiston degan ulug‘ Vatanga aylanadi...

Bobom bilan katta yo‘lga chiqqanimizda, hamon shu kichik Vatan – uyimiz va do‘stlarim bilan bog‘liq shirin xotiralar og‘ushida edim.

1. Yangi hovliga ko‘chayotgan bobo nima uchun g‘amgin bo‘lib qolishi sababini izohlang.
2. U «kichik Vatan» haqida nimalarni gapirib berdi?
3. «Mening mahallam» mavzusida kichkina matn tuzing.



GULG‘UNCHALARMIZ

Muhiddin Omon

Bizlar mitti yulduz, gulg‘unchalarmiz,
Dilimizdan jo‘shar quvnoq tarona.
Baxt-u saodatning kuyin chalarmiz,
Ozod O‘zbekiston – bizlarga ona.

Maktabimiz bog‘ida sayraydi bulbul,
Beg‘ubor osmonda uchar bemalol.
Erkin havolardan yayraydi ko‘ngil,
Biz Vatan umidi, sog‘lom, barkamol.

Ilm-u hunar bilan dunyoni olgan,
Buyuk allomalar avlodlarimiz.
Go‘zal san’atiga jahon lol qolgan,
Ijodkor zotlarning zurriyotimiz.

Bizlar mitti yulduz, gulg‘unchalarmiz,
Dilimizdan jo‘shar quvnoq tarona.
Baxt-u saodatning kuyin chalarmiz,
Ozod O‘zbekiston – bizlarga ona.

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Siz kimlarning zurriyotlarisiz? Ulug‘ ajdodlarimizning nomlarini ayting.

KUZ

Shukur Sa’dulla

G‘ir-g‘ir shamol yeladi,
Buni hamma biladi.
O‘giradi yelga yuz:
– Marhamat! Kel, oltin kuz!
Maktab borar qiz-o‘g‘il,
Qo‘lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo‘rqib qishning aftidan.
Sarg‘ayadi ko‘katlar,
Barg to‘kadi daraxtlar.
Hosil yig‘ib olinar,
Qishga zamin solinar.

1. «Quyosh tushar taftidan», «Qishga zamin solinar» misralarining ma’nosini izohlang.
2. Shoir kuzning o‘ziga xos xususiyatlarini tabiatdagi qanday o‘zgarishlar misolida ta’riflaydi?

QOVUN SAYLI

Shukur Sa’dulla

I

Tog‘am har safar:

– Qovun poliziga boringlar, handalak so‘yib beraman! – derdi. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. Biram hidi yaxshi bo‘lardiki, kun bo‘yi qo‘ynimizga solib, hidlab yurardik. Koptokka o‘xshash bejirim, serto‘r edi.

Bir kuni u mashinada keldi-da:

– Bo‘linglar, qovun polizga boramiz! – dedi.

Men, Hasan, Husan, Fotima, Zuhralar mashinaga chiqib oldik. Paxtazorlarni yoqalab o‘tib, cho‘lga chiqdik. Shunday cho‘lga chiqishimiz bilan qovun poliziga kirdik. Biram katta dalaki, u yog‘ini ko‘rib bo‘lmaydi. Uzun-uzun pushtalarda katta-katta olachipor tarvuzlar dumalab yotibdi. Ko‘m-ko‘k palaklar ichida sarg‘ayib qovunlar ko‘rinadi. Biram ko‘pki!

Poliz oralab bejirim chaylaga kirdik. Ichi salqin ekan. Tog‘am dasturxon yozdilar. Hasan choydishga o‘t yoqqani o‘choq boshiga chiqdi.

Chaylada yangi uzilgan umrboqi, ko‘kalapish, doniyor qovunlar, qo‘zivoy tarvuzlar dumalab yotibdi.

Tog‘am qovunlarni chertib ko‘rdi-da, sarasini tanlab so‘ydi. Birpasda katta «kosa» qilib, oldimizga qo‘ydi.

Bir karjini olib og‘zimga solsam bormi – shundoqqina eridi-ketdi, biram shirin ekanki, tilni yoray deydi. Bir kosasini paqqos tushirdim-da, bir burda non bilan shirin sharbat suvini qirib ichdim. Kech bo‘ldi. Oy chiqdi. Cho‘l osmonini tomosha qilib yotdik.

– Quloq solinglar! – dedi tog‘am. «Chirt-chirt» etgan allaqanday ovoz eshitildi. Bo‘y cho‘zib qaradim, birov qovunlarni uzayotganga o‘xshadi...

– Qovunlar dum beryapti, – dedi tog‘am turib. Keyin dum bergan qovunlarni ko‘tarib chiqdi. Bora-bora tun salqini tushdi. Chirillagan ovoz polizni tutdi.

– Ertaga qovun uzamiz, yordamlashasizlar! – dedi tog‘am. Qachon tong otar ekan, deb osmonga tikilib yotdik...

– Qani, tura qolinglar, choy sovib qoldi, – dedi tog‘am.

Ko‘zimizni ochsak, tong otib qolibdi. Tog‘am choy-non qo‘yibdi. Tez yuvindig-u choy ichdik, non yedik.

– Qani, azamatlar, qovunlarni yig‘inglar! – dedi tog‘am.



1. Matnda tilga olingan qovun navlarini daftaringizga yozing.



II

Bir vaqt yo‘lni changitib, qatoriga uch mashina keldi. Ularda ancha amakilar bor ekan.

– Hosilga baraka! – deb qichqirishdi ular bizlarni ko‘rib. Keyin yaqin kelib, hayron qolishdi. Yengimni shimarib – men, paykalda Hasan, Husan, uchalamiz zaptiga olib, atayin katta-katta qovunlarni inqillab polizdan ko‘tarib chiqdik.

– E-ha, qaysi ilg‘orlar desam, azamat bolalarimiz ekan-ku, hormanglar! – dedi kelganlarning eng kattasi.

– Bor bo‘linglar! – dedik.

Qarasak, rais bobo. O‘zini katta olmay, kelib qo‘limizni siqib ko‘rishdi.

– Qovun sayliga keldik. Qani, mehmon qilinglar! – dedi u.

– O‘zingiz tanlang, rais bobo! Qovun saylida har kim o‘zi tanlab yeydi, – dedim tog‘amdan eshitgan gapni takrorlab. Rais va sheriklari ma’noli kuldi:

– Xo‘p-xo‘p. Ma’qul gap. Qani, yigitlar, qovun tanlang!

Rais va sheriklari bittadan serto‘r, og‘ir qovun tanlab, chaylaga kirishdi. Yonlaridan pichoq olib, qovunlarni birma-bir so‘yib yeya boshlashdi.

– Mening qovunim shirin, – dedi rais.

– Garov o‘ynaymiz, – dedi Ali polvon bir tilim qovunni bir tishlashda simirib yeb.

Rais unga bir tilim qovun tutdi.

– Xo‘sh, qalay ekan, – dedi rais uning qovunini tatigan Ali polvonga.

– Meniki shirin, – dedi Ali polvon.

– Tushingizni suvga ayting, – dedi rais o‘zining qovunini maqtab.

– Qovun emas, asal-ku bu!

Boshqalar qo‘shilib, bahs qizib ketdi.

– Qani, bolam, beri kel, – dedi rais, – tatib ko‘rchi, kimniki shirin ekan. Sen nima desang shu!

Hasan tatib ko‘rdi, Husan tatib ko‘rdi, men tatib ko‘rdim:

– Ikkovingizniki ham bir-biridan qolishmaydi.

– Ah, – dedi rais tizzasiga urib va qah-qah urib kulib yubordi. – Obbo sizlar-ey...

Raisga qo‘shilib boshqalar ham kulishdi, maqtashdi.

– Hoy, toshkentlik bola, bizda qolaqol, shu polizga seni katta qilib qo‘yaman! – dedi rais hazillashib.

– Katta bo‘lay, sizning o‘rningizni olaman! – deb men ham hazillashdim.

Hamma qotib-qotib kuldi.

– Obbo azamatlar-ey... Xo‘p, xo‘p. Biz qarib qolyapmiz. Tezroq ulg‘ay, jiyan, – dedi rais. Keyin ilova qildi: – Qani, qovunlarni ortinglar!

Qovun-tarvuzlarni mashinalarga ortdik.

1. Hikoya nima uchun «Qovun sayli» deb nomlangan?
2. Qovun sayli qachon bo‘ladi?
3. Qovunlarning qanday turlarini bilasiz?

DEHQON

Sulaymon Rahmon



Dehqon desam, ko‘z o‘ngimda
Jonlanadi saxiy inson.
Dehqon desam, ko‘z o‘ngimda
Yashnab turar bog‘-u bo‘ston.

Jonlanadi, dehqon desam,
Sahrolarda kulgan bahor.
Ko‘z o‘ngimda: saxiy g‘o‘zam,
Savat-savat olma-anor.

Ko‘z o‘ngimda tonggi gullar
Dehqon desam, ko‘z o‘ngimda
Namoyondir yoz quyoshi.
Unga ixlos ko‘p ko‘nglimda
Dehqon – go‘yo Yer naqqoshi!

1. Shoir dehqonni qanday so‘zlar bilan ulug‘laydi?
2. Naqqosh bilan yer naqqoshi – dehqon o‘rtasida qanday o‘xshashlik borligini izohlang.

SALOMLASHISH ODOBI

Husayn Voiz Koshifiy

Salom – salomatlik ma’nosini ifodalaydi. Agar sendan necha mavridda salomlashish kerak, deb so‘rasalar, yetti holatda, deb javob bergin. Avvalo: yor-u do‘stlarni, aka-ukalarni ko‘rganda salomlashish kerak. Ikkinchi: jamoat joylariga borganingda salom berishing lozim. Uchinchi: biror xonadonga borsang, u yerga salom berib kirgin. To‘rtinchi: bir yerda jam bo‘lib o‘tirgan kishilar davrasiga kirsang, salomlashgin. Beshinchi: kishilar huzuridan turayotganingda ham salomlashishni unutma, uni vidolashish (xayr-u xo‘sh) salomi deyiladi. Oltinchi: maqbaraga, qabristonga borsang, salom ber. Yettinchi: o‘z xonadoningga kirganingda ham oila a’zolaringga salom berishni kanda qilma.

Hammomda salom berilmaydi. Qazoyi hojatdagi kishilarga, baland ovoz bilan qiroat qilayotgan odamlarga salom bermaydilar. Otliq piyodaga, turgan odam o‘tirganlarga salom berishi lozim. Kichiklar kattalarga, yolg‘iz odam jamoat bo‘lib turganlarga salom beradi. Salom berayotgan kishi ochiq chehrali bo‘lishi darkor. Imo-ishora bilan emas, ovoz chiqarib salomlashish kerak.



1. Matndan salomlashish lozim bo‘lgan va lozim bo‘lmagan holatlarni aniqlang.



ODAMDAN NIMA QOLADI?

Yusuf Xos Hojib

Qo‘ling el aro uzun bo‘lsa, sen o‘z fe’l-atvoringni ezgu tut. Yigitlik mangu emas, u juda tez kechadi. Tiriklik chirog‘i ham ko‘z ochib-yumguncha o‘chadi. Hayot tushdek bir gap. U yashindek tez kechadi. Tiriklikda jami ezguliklarni yig‘moq kerak. Ular keyinchalik yegulik va kiygulik bo‘ladi. Kishilarning ezgusi bu haqda shunday deydi:



– Olamda tug‘ilgan odamzodning biri ozroq, boshqa biri ko‘proq yashaydi, so‘ng baribir vafot etadi. Lekin podshoning ham, oddiy odamning ham vafotidan keyin qoladigan narsasi – nomi.

Ana endi o‘zing aytgin-chi, sening tabiatingga ezgulik mosmi yoxud yomonlik?

Tilaging qanaqa bo‘lsa, shundan kelib chiqib o‘zing birini tanlab ol. Keyin o‘kinib yurma.

Shunga o‘xshatibdi sinagan odam,
Sinagan odamga ayondir olam.
Yaxshi nom oladi, ko‘r, ezgu kishi,
Yomonlar nasibi – el-yurt qarg‘ishi.

Tajribalarda juda ko‘p marta tasdiqlangan shunday hikmat bor: yomonlarning omadi hech qachon kelmaydi, ularning ishi har vaqt orqaga ketadi:

Yomonlik go‘yo o‘t, yondirar, yoqar,
O‘tishga kechig yo‘q: u soy tez oqar.

Agar o‘tmishdagi ajdodlarga nazar solguday bo‘lsang, bir holatni kuzatasan: oddiy odam ham, katta martabadagi kishilar ham bilimli va dono bo‘lsa, ular el-yurt taqdirini o‘ylashgan. Bugun ham ezgu deb atalgan har qanday odam ezgularga bosh bo‘ladi. Boshliq bilimli va dono bo‘lsa, atrofiga o‘ziga o‘xshaganlarni yig‘adi. Bu xil boshliq elini boyitadi. Bilimli va dono boshliq saxiy degan nom oladi. Saxiy o‘lsa ham, nomi tirik qolaveradi.

Jahonda bilimdan ulug‘, bilimdan aziz nima bor? Bilimsiz desalar, bu inson uchun haqoratdir.

Ammo donoga quyidan, poygakdan o‘rin tegsa, o‘sha poygak to‘rdan ham baland sanaladi. Donoga ko‘rsatiladigan bunday izzat-ikrom, hurmatning sababi, hech shubhasiz, bilimdir.

Bilimsiz kishi yilqi – hayvon bilan teng. Bilimsizni aql-idrok egalari ko‘zi ko‘r odamga qiyoslashadi. Ey o‘g‘lon, bilimdan ulush olgin!

Kishi so‘zni tili bilan so‘zlaydi. So‘zlari yaxshi bo‘lsa, uning yuzi suv oladi, ya’ni obro‘ qozonadi, e’tibor topadi.



1. Matndan ezgulik va yovuzlik ta’riflangan o‘rinlarni daftaringizga ko‘chiring.
2. Bilimlining ulug‘ligi-yu bilimsizning ko‘zi ko‘r kishiga o‘xshatilishini izohlang.





ENG ULUG‘ FAZILAT

Qadim zamonda bir mo‘tabar odamning uch o‘g‘li bor edi. Bir kuni ularni huzuriga chaqirib, shunday debdi:

– O‘g‘illarim, sizlarni sinamoqchiman, bir oy sayohat qiling. Shu bir oylik umringizni xalqqa foydali, yaxshi ishlarga sarf eting. Qaysi biringizning qilgan yaxshiligingiz eng ulug‘ fazilat kasb etsa, barmog‘imdagi mana shu juda qimmatbaho uzukni unga beraman.

O‘g‘illari har tarafga tarqalib, sayohatga chiqib ketibdilar. Bir oy sayohat qilib yurib, yana otalarining huzuriga qaytib kelibdilar.

Ota katta o‘g‘lidan so‘rabdi:

– O‘g‘lim, shu bir oy ichida qanday eng ulug‘ fazilatli ish qilding?

– Otajon, bir kuni tanho o‘zim bir bog‘ ko‘chasidan o‘tib ketayotsam, bir yerda juda ham qimmatli olmos tushib yotgan ekan. Uni olib darhol tegishli ma’murlarga topshirdim. Ma’murlar boshlig‘i menga tashakkur aytdi. Qo‘limga mana shu taqdirnomani yozib berdi. Olmosning egasini toptirib, unga topshirdi. Shu qilgan ishim to‘g‘riligimga bir dalil. Shu harakatim eng ulug‘ fazilat emasmi?

– Juda to‘g‘ri ish qilgansan, o‘g‘lim! Vijdonan vazifangni ado etgansan. Lekin u olmos sening xususiy mulking emas-ku!

Keyin o‘rtancha o‘g‘li so‘zga kirishdi:

– Men bir kuni katta bir ariq yoqasidan ketib borardim. Shu choqda bir yosh bola suvga tushib ketdi. Halok bo‘lish xavfi ostida ekanini ko‘rib qoldim. Darhol o‘zimni suvga tashladim. Ko‘p mashaqqat chekib, bolani suvdan olib chiqdim. Uni halokatdan qutqazib, ota-onasiga eson-omon topshirdim. Ota-onasi mendan ko‘p minnatdor bo‘lib, haqimga duo qildilar. Hayotim qo‘rqinch ostida qolsa ham yosh bolani halokatdan

qutqazish uchun qilgan shu harakatim bilan mukofotingizga loyiq bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman.

Otasi o‘rtancha o‘g‘lining qo‘lini ushlab, shunday dedi:

– Ofarin, o‘g‘lim. Seni tabriklayman, faqat shu go‘zal ishing tufayli qalbing zavq-shavq bilan to‘lganini his etgansan. Shuning o‘zi mukofot emasmi?

Keyin kichik o‘g‘li otasiga ta’zim qilib aytdi:

– Otajon, menga doimo dushmanlik nazari bilan boqib, zarar yetkazib yurgan bir odam bor. Men unga hech bir yomonlik qilmagan bo‘lsam ham, u payimda yuradi. Hatto meni yo‘q qilish uchun fursat kutadi. Kecha u dushmanimning bir jar yoqasida uxlab yotganini ko‘rdim. Agar uyqusirab, bir yondan ikkinchi yonga ag‘darilsa yoki qattiqroq tovush chiqarib uyg‘otilsa, turishga harakat qilib, jarga qulab tushishi mumkin edi. Men tovush chiqarmasdan, sekingina yurib uning yoniga bordim. Juda ehtiyotkorlik bilan uni ushlab, asta-sekin o‘z tomonimga torta boshladim. Ancha beriga kelib xavf-xatardan qutulgandan keyin ruhim ko‘tarildi, shodlanib yo‘limda davom etdim.

Otasi o‘g‘lining bu yaxshi ishidan, oliyjanobligidan shodlanib ko‘ziga yosh oldi. Uni quchoqlab, yuz-ko‘zidan o‘pib dedi:

– Bor bo‘l, o‘g‘lim! Yasha, umring uzoq bo‘lsin! Mukofotimni olishga sen haqlisan, chunki dunyoda eng ulug‘ fazilat – yomonlikka yaxshilik qilishdir, – deb qimmatli uzugini o‘g‘lining barmog‘iga taqdi, uning haqiga duo qildi.



1. Ertak mazmuni yuzasidan reja tuzing va qisqartirib hikoya qiling.
2. Nima uchun kenja o‘g‘ilning ishi otasiga ma’qul kelganini o‘ylab ko‘ring.
3. «Menga shunday topshiriq berilsa...» degan mavzuda kichik matn yarating.

HAR KIM EKKANIN O‘RAR

Munavvarqori Abdurashidxonov

Bir kishining otasi
Ko‘p yashamish, qartaymish.
Soch-soqoli oqarmish,
Bellari kuchdan qolmish.



Non yeganda lablari
Burni bilan so‘zlashur.
Choy ichganda qo‘llari
Qaltirashib, titrashur.

Beli ikki bukilgan
Yuray desa yurolmas.
Bir o‘tirsa o‘rnidan
Ko‘tarmasang, turolmas.

O‘g‘il, kelin, nevara
Zerikdilar bu holdan.
Qutulmoqchi bo‘ldilar
Bir ish qilib u choldan.

O‘g‘il bilan nevara
Kun kech bo‘lgach turdilar.
Ko‘tardilar u cholni
Sahro sari yurdilar.

Bir o‘ringa yetganda
So‘zga kirdi asta chol.
Dedi: «O‘g‘lim, so‘zimga
Birozgina quloq sol.

Men otamni bir zamon
Bu o‘ringa keltirib,
Tashlab ketgan chog‘imda
Qolgan edi termulib.



Navbat keldi o‘zimga,
Sen ham meni keltirding.
Men otamga ne qilsam,
Endi menga sen qilding.

Menga yarar shul o‘rin,
Bir kun senga ham yarar.
El aro bor bir matal:
«Har kim ekkanin o‘rar».

1. Rivoyatni ifodali o‘qing va sarlavhasi mazmunini izohlang.
2. O‘zingiz cholning o‘gli o‘rnida bo‘lganingizda nima qilgan bo‘lardingiz?

CHAQIMCHIGA «MUKOFOT»

Qadim zamonda hokimlardan biri ovga chiqdi. Hokim va u bilan birga ovga chiqqanlar bir yerga kelib to‘xtadilar. Hamma biror ish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Hokim o‘z jilovdori – otboqarini yoniga chaqirib:

– Sen bilan birga otda chopishni ko‘p vaqtdan beri orzu qilaman, kimning oti chopqir ekanini bilishni istayman, – dedi.

Otboqar qabul qildi, otiga minib chopdi, hokim uning ketidan quvladi. Shikor joyidan ancha uzoqqa ketdilar. Hokim otini to‘xtatib, otboqarga ham to‘xtashga buyruq berdi, uni yoniga o‘tqazib:

– Ey jilovdor, ko‘nglimga kelgan bir fikrni aytmoqchi bo‘lib, sen bilan birga bu xoli yergacha ot

choptirib keldim. Hammadan ko‘ra senga ishonganim uchun sirimni faqat senga bayon qilaman, ehtiyot bo‘l, hech kim sezmasin, – dedi.

Otboqar ta’zim qilib:

– Modomiki, siz menga ishongan ekansiz, siringizni hech kimga oshkor qilmayman, hech kim voqif bo‘lmaydi, – deb hokimga va’da berdi.

Hokim otboqarning so‘zidan xursand bo‘lib, ko‘nglidagi sirini unga aytdi:

– Ukamning shu kunlarda qilgan harakatidan shubhaga tushib qoldim, meni o‘ldirmoqchi bo‘lsa kerak. Shuning uchun men ukamni yo‘q qilmoqchiman. Sen yonimdan uzoqqa ketmay, meni asrab yur!

Otboqar hokimning sirini saqlashga, o‘zini asrashga va’da berib, qasam ichdi. Hokim ovdan qaytib, o‘z saroyiga kirishi bilanoq otboqar bevafolik qilib, xiyonat ko‘chasiga qadam qo‘ydi. Fursat topib, hokimning ukasiga eshitganlarini bayon qildi. Hokimning ukasi bu chaqimchi otboqardan xursand bo‘lib, unga inoyat va va’dalar qildi.



Hokimning ukasi yaxshi tadbir bilan o‘zini asrar edi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, hokim vafot etdi. Uning o‘rniga ukasi hokim bo‘lib, darrov chaqimchi otboqarni dorga osishga buyruq berdi.

Chaqimchi otboqar o‘zining qilgan xizmatini so‘zlab, ko‘p zor-u tazarru qilsa ham, yangi hokim qabul qilmay:


– Sirni fosh qilishdan, chaqimchilikdan yomonroq gunoh yo‘qdir. Akam senga ishonib sirini aytdi, sen xiyonat qilib, sirini fosh qilding, menga kelib chaqding. Akamga vafo qilmagan odam menga vafo qilarmidi? Ana endi chaqimchiligingning jazosini tort, – deb dorga ostirdi.

1. Hokim otboqardan nimani iltimos qildi?
2. Chaqimchilik qanday odat ekan? Bu haqda o‘z fikringizni kengroq bayon eting.

OMONATGA XIYONAT

Kunlardan bir kuni bir kishi o‘ralgan, muhrlangan bir xaltachani do‘stining huzuriga keltirib:

– Do‘stim, men safarga chiqib ketayotibman, ichida ming tanga oltin bo‘lgan shu xaltachani senga omonat topshiraman, safardan qaytib kelganimdan so‘ng olaman, – deb xaltachani topshirdi va o‘sha kuni safarga chiqib ketdi. Do‘sti omonatga xiyonat qilib, xaltachaning bir tomonini so‘kdi, oltinlarni olib, tangalar bilan to‘lg‘izdi, so‘kilgan joyini hech bilinmaydigan qilib tikib qo‘ydi. Oradan o‘n yil o‘tgandan keyin omonat egasi safardan qaytib



kelib, do‘stidan qo‘ygan omonatini talab qildi. Omonat egasi xaltachani ochib tangalarni ko‘rgach, hayron bo‘lib, do‘stidan:

– Xalta ichidagi oltinlarim qani? – deb so‘raganda, do‘sti inkor qilib:

– Xaltachaga nima solib qo‘ygan bo‘lsang, shunday turibdi, qarab ko‘r, bosgan muhring ham buzilmagan, tag‘in nima da’vo qilasan? – dedi.

Omonat egasi xaltachani olib, shahar qozisining huzuriga bordi va voqeani bayon qildi. Qozi juda aqlli va tadbirli odam edi. U darhol xiyonatchi do‘stini chaqirib olib, omonat egasining shikoyatini aytdi. Xiyonatchi do‘st inkor etishda davom qildi.

– Omonatni qabul qilganingga necha yil bo‘ldi? – deb so‘radi qozi. U o‘n yil bo‘lganini aytdi.

Qozi hamma tangalarning bosilgan yillariga ko‘z tashladi. Tangalarning bosilganiga ikki-uch yildan ortiq bo‘lmagan edi. Qozi xiyonatchi do‘stga tangalarning bosilgan yillarini ko‘rsatgan edi, u sharmanda bo‘lib, qilgan aybiga iqror bo‘ldi. Tadbirli, farosatli qozi oltinlarni xiyonatchidan olib, egasiga topshirdi.

Qozining buyrug‘i bilan xiyonatchini eshakka teskari mindirdilar. «Omonatga xiyonat qilgan kishilarning jazosi shunday bo‘ladi!» – deb qichqirib, shahar ko‘chalari va bozorlarni aylantirdilar.



1. Qozi omonatga xiyonat qilinganini qanday aniqladi?
2. «Menga xiyonat qilinsa...» mavzusida og‘zaki hikoya tuzing.



IKKI SAXIY

Murod Xidir

I

Qadim zamonda bir saxiy g‘oyat hotamligi bilan dovrug‘ solgan edi. U ekin ekkan, mol boqqan, xullas, tun-u kun ter to‘kkan. Saxiy hamqishloqlariga har kuni nimanidir orttirib, nimanidir ulashgan. Xotini ham, farzandlari ham saxiyning ana shu xayrli ishiga allaqachon ko‘nikib qolishgan va saxiy bilan yonma-yon turib mehnat qilishga bel bog‘lashgan edi.

Saxiyning kuni obiyovg‘onga qolib, tishining kirini so‘rgan kezlarda ham u o‘z ahdidan tushmadi. Yo‘g‘on cho‘zilib, ingichka uziladigan qahatchilik yillarida ham uyining bo‘sag‘asiga najot istab kelgan muhtojlarning qo‘lini bo‘sh qaytarmadi.

Shu orada qishloqning yana bir odami hammaga saxovat eshigini lang ochib yubordi. Birinchi saxiyga taassub qilib, u bor budini bir boshdan ulashaverdi. Uy jihozlaridan qolgan eng so‘nggi bo‘yrasini ham ayamadi. Endi odamlar biror nimaning ilinjida ko‘proq unikiga yopirilib keladigan bo‘ldilar.

Hamma hayron, hamma lol edi. Kim chin saxiy? Axir ular hotamlikda bir-biridan o‘zib borayotir-ku! Shuni ajrim qilib bera oladigan dono bormi olamda? Bor edi... Ha, har qanday jumboqni tafakkur ko‘zi bilan yechadigan birdan-bir donishmand chol xuddi shu qishloqda yashar edi. U naq yuz qovun

pishig‘ini ko‘rgan bo‘lsa-da, hamon hushyor va ziyrak, serfahm va zukko edi. Boshi qotgan bir guruh odamlar o‘sha donishmandnikiga ravona bo‘ldilar. Qalin bir kitobni mukka tushib mutolaa qilayotgan chol qoshiga kelib, ular muddaosini aytishdi:

– Buvajon, har ikki saxiy haqida eshitgansiz, albatta. Shu kunlarda birinchi saxiynikiga keluvchilar ancha siyraklashib qoldi. Ikkinchi saxiy ham hech kimdan hech nimani ayamayapti. Odamlarga sug‘urib beradigan faqat o‘ttiz ikki tishi qoldi, xolos. Agar gal kelsa, o‘sha tishlarining ham bahridan o‘tishi hech gap emas. Ayting, buvajon, kim chin saxiy? Qaysi biri?

Kitobni yonboshiga olib qo‘ygan nuroniy chol biroz sukut saqladi.


1. «Saxiylik» va «baxillik» so‘zlarining ma’nosini qiyoslang.
2. Qanday odamni saxiy deyish mumkinligini o‘ylab ko‘ring.

II

So‘ngra huzuriga kelganlarning o‘zini savolga tutdi:

– Aytinglar-chi, birinchi saxiy hojatmandni kuzatayotganda, unga nima deb so‘z qotadi?

– Hech nima demaydi, buvajon, – deyishdi ular baravariga.



– Barakalla! – dedi chol. – Ikkinchi saxiy-chi?

– Olqish ustiga olqish yog‘ilayotganda, – dedi ulardan biri, – ikkinchi saxiy: «Men buni savob yo‘lida qilyapman», deb qo‘yadi, xolos.

– Xo‘sh, xo‘sh! – dedi chol jonlanib. – Yana-chi?

– Yana, yana, – dedi ulardan boshqa biri boshini qashib, – hojatmandlar minnatdorchilik izhor etishayotganda, ikkinchi saxiy: «Meni duo qilsanglar bas», deydi, vassalom.

Cholning serajin yuziga tabassum yugurdi.

– Masala ravshan, o‘g‘illarim, – dedi chol va bo‘lak hech nima aytmay jimib qoldi...

– Yo‘q, yo‘q, buvajon, muammoni oxirigacha yechib berasiz, kim saxiyligini ajrim qilasiz.

– Bu yog‘ini o‘zlaringga havola qilgandim, – dedi chol salmoqlab so‘zlarkan. – Mayli, aytsam ayta qolay.

Birinchi saxiy bergan narsasi evaziga hojatmanddan hech nima – savob ham, duo ham tama qilmaydi. Chunki birinchi saxiy: «Nuqul savobni ko‘zlab qilingan xayrli ish tamagirlikka kiradi, duoni so‘rab olish esa tilanchilik bilan baravar», – deb o‘ylagan.

Ikkinchi saxiyning tosh-u tarozisi bor. Tarozining bir pallasiga o‘zi ulashgan narsani, ikkinchi pallasiga savobdan qadoqlab olgan toshini qo‘yadi. Shu bilan orani ochiq qiladi. Lekin uning hojatmanddan undirgan, ya’ni so‘rab olgan duolari esa faqat foydaga qoladi.

Xullasi kalom, har bir hojatmand ikkinchi saxiyning dargohidan bir hissa boylikni olib qaytadi, ikki hissa boylikni esa tashlab chiqadi. Shu tariqa ikkinchi saxiyning o‘zi hojatmandlaridan bir umr qarzdor bo‘lib qolayotir, endi siz mendan: «Ikkinchi saxiy hojatmandlardan qarzini qachon uzadi», – deb ham so‘rarsiz?

– Yo‘q, yo‘q, buvajon, bas, yetar, sizga ming ofarin, – deganlaricha ular donishmand huzuridan shodmon qaytdilar.

Lekin donishmandning ikkinchi saxiy borasida aytgan so‘zlari butun qishloqqa chaqmoqday tez tarqaldi-yu, hojatmandlarning bari yana birinchi saxiynikiga yog‘ilib keladigan bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay, ikkinchi saxiy el nazaridan qoldi.

1. Donishmand ta’magirlik va tilanchilik haqida qanday misol keltirdi?
2. «Ikki saxiy» mavzusida kichik matn yarating.

QO‘ZICHOQ

Rauf Tolib

Yaylovda bir Qo‘zichoq tug‘ilibdi. Ikki ko‘zi munchoqday, yunglari jingalak-jingalak, quyosh nurida jimirlab, ko‘zni qamashtirar ekan. Qo‘zichoqni ko‘rgan qo‘ylar hayron bo‘lib qolishibdi.



– Voy, qo‘zichoq ham shunaqa chiroyli bo‘ladimi-ya? – deyishibdi bir-birlariga.

– O‘zimning shirintoyimdan aylanib ketay, – yalab-yulqabdi Ona Qo‘y.

Qo‘zichoq juda tez o‘sa boshlabdi. Keng, yashil yaylovda irg‘ishlab sira-sira tolmas, dikanglab, onasining ketidan qolmas ekan. U bir-ikki oy deganda ancha to‘lishib, barra o‘tlarni yeb semiribdi. Yanayam ko‘zga tashlanibdi. Ko‘rganlar uni maqtashga tushishibdi.

– O‘-ho‘, ajoyib qo‘chqorcha ekan, – debdi burama shoxli Qora Qo‘chqor unga havas bilan boqib.

– Antiqa, antiqa, – debdi Oq Qo‘chqor. Bu gaplardan Qo‘zichoqning burni ko‘tarilib ketibdi.

– To‘g‘ri aytasiz, bunaqa antiqa qo‘zilar kam tug‘iladi, – ularning gapini quvvatlashibdi qo‘ylar.

Qo‘zichoq: «Ana eshityapsizlarmi?» – deganday yon-veridagi qo‘zilarga qarab qo‘yibdi.

Ammo Qo‘zichoq o‘zi haqidagi maqtovlarni eshitib, tobora taltayib ketibdi, bosar-tusarini bilmay qolibdi.

Kunlar o‘tib Qo‘zichoq g‘alati-g‘alati qiliqlar chiqara boshlabdi. U boshqa qo‘zilarga qo‘shilmay, alohida yurarkan. Boshqalarni mensimay, gerdayib qararkan. Avvaliga uning bu qiliqlariga hech kim parvo qilmabdi.

«Turishini qarang, katta bo‘lsa bo‘rilarning ham dodini beradi», – degan maqtovlardan Qo‘zichoqning og‘zi qulog‘iga yetibdi.

– Eh, shoxlarim tezroq o‘sa qolsa edi, o‘zimni ko‘rsatib qo‘yardim...

Qo‘zichoq ko‘ngli tusagan joylarda o‘tlar, atay butalar ichida qolib ketar ekan.

Ona Qo‘y Qo‘zichoqdan xavotirlana boshlabdi.

Bir kuni Qo‘zichoq yo‘qolib qolibdi. Ona Qo‘y uni qidira-qidira soy bo‘yidagi o‘tloqdan topibdi.

– Bolam-ey, naq o‘takamni yorib yubordingku! Bo‘ri yoki Tulki ilib ketdimi, deb yig‘layverib, yuguraverib, jonimda jon qolmadi, – debdi ranjib.

– Buncha qo‘rqasiz, shu shoxlarim bilan o‘sha Bo‘ringizni qornidan darcha ochib qo‘yaman, – kerilibdi Qo‘zichoq.

– Hay-hay, bolam, o‘zingni bos... Bilmadim, sen nega bunday kekkaygan chiqding?

– Nima, kekkaysam, arzimabdimi? Men zo‘rman. Qarab turasiz, oyi, bir kun men o‘sha Bo‘rining ham dodini beraman.

– Qo‘y, birovlarning gap-so‘zlariga quloq solma, bolam, – nasihat qilibdi Ona Qo‘y.

Ammo Qo‘zichoq gerdayishni qo‘ymabdi.

Bir kuni u yana yo‘qolib qolibdi. Bechora Ona Qo‘y yuragini hovuchlab to‘rt tomonga yuguribdi, izlabdi, bo‘zlabdi. Qorong‘i tushgach, topa olmay nochor qo‘raga qaytibdi.

Ertasiga yana izlabdi. Do‘ng orqasidagi pastqam jarlikda o‘g‘lining tanish terisini ko‘rib qolibdi. Ona Qo‘y quruq maqtovlarga uchib, Bo‘riga yem bo‘lgan Qo‘zichoqning terisini ko‘ziga surtib yum-yum yig‘labdi.



1. Qo‘zichoq nima uchun boshqalarni mensimay qo‘ydi?
2. Daftaringizga Qo‘zichoqning kekkayishiga doir so‘z va iboralarni ko‘chirib yozing.



XALQ OG‘ZAKI IJODI

QO‘SHIQLAR QANOTIDA

BOYCHECHAK



Boychechagim boylandi,
Qozon to‘la ayrondir.
Ayroningdan bermasang,
Qozon-tovog‘ing vayrondir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Boychechakni tutdilar,
Tut yog‘ochga osdilar.
Qilich bilan chopdilar,
Baxmal bilan yopdilar.



Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.



Boychechagim boylandi,
Ko‘chama-ko‘cha aylandi.
Boychechagim ko‘k somsa,
Cho‘ntaklarga joylandi.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Boychechakning «bahor elchisi» deb atalishining sababini izohlang.

OFTOB CHIQDI OLAMGA

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga:
– Xola, xola, kulcha ber!
Xolam dedi: – O‘tin ter!
Keyin yugurdim qirga,
O‘rtog‘im bilan birga.
O‘tin terdik bir quchoq,
Bilmadik sira charchoq.
Xolam-chi, qordi xamir,
Kulcha yopdi bir tandir.
Bizga kulcha berdilar,
Peshanamizdan o‘pdilar.
Oftob chiqdi olamga-ye,
Yugurib bordim xolamga-ye!



She’rni ifodali o‘qing va izohlang.

XO‘P HAYDA

Xo‘p hayda-yo, xo‘p hayda,
Qalqon qulog‘im hayda,

Temir tuyog‘im hayda,
Xirmonni qilgin mayda.

Ostingda bosgan donni,
Tuyog‘ing qilsin mayda.



Sen po‘stidan judo qil,
Somoni senga foyda.

Chuv, hey jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda.

Ishni tamom qilmasang,
Joningga tinim qayda...

Chuv, hey, jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda.

Donni yig‘ib olmasak,
Bizlarga tinim qayda.

1. «Xo‘p hayda» qo‘shig‘i qaysi paytda aytilgan?
2. Xirmon egasi otini qanday so‘zlar bilan erkalatadi?

ERTAKLAR MAMLAKATIDA

ILM AFZAL

I

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda Buxorodan uzoqda, Urganch cho‘li tomonda bir qariya yashagan ekan. Chol, o‘zim omiligimcha qoldim, qani endi o‘g‘illarim o‘qib odam bo‘lsa, deb orzu qilarkan. Boboning sakkiz o‘g‘li va bir qizi bor ekan. Qizi aqlli va sezgir ekan. Ota qiziga:

– Umringni uzoq qilsin, baxtimdan o‘rgilayki, senday farzandim bor. Lekin akalaringdan kuydim. Ularning mehnat qilishga bo‘yni yor bermaydi, o‘qib, ilm olib, odam bo‘linglar desam, gapimga quloq solishmaydi.

Shuncha molimiz, yerimiz bor, o‘qib nima qilamiz, deyishadi. Men qarib qoldim, bu dunyodan ko‘z yumsam, akalaringning holi nima kechadi, deb qo‘rqaman, qizim, – deb hasrat qilibdi.



– Otajon, akalarimni yoningizga chaqiring. Keyin ulardan qilib yurgan ishlarini so‘rang. Qani, nima deb javob qiladilar, – debdi qizi.

– Ey, jonim qizim, ularning qilib yurgan ishini bilaman. Sakkiz akang cho‘ntaklarini pulga to‘ldirib, sakkizta chopqir otga minib, shaharma-shahar kayf-u safo qilib yurganlari yurgan, – debdi ota.

– Bu ishlarini bilaman, otajon, siz ularni mehmonxonaga chaqiring. Men eshikning orqasida turib gapirgan gaplaringizni eshitaman. Siz, avvalo, ulardan: «Ilm afzalmi yoki davlatmi?» deb so‘rang. Hammalarining gaplarini eshitib bo‘lgandan keyin meni chaqiring. Menga ham akalarimga bergan savolingizni bering. Aqlim yetganicha javob beraman, akalarim eshitsinlar, – debdi qizi.

Chol qizining aqliga tasanno aytib, kechqurun o‘g‘illarini mehmonxonaga chaqiribdi.

– O‘g‘illarim, sizlarni yedirdim, ichirdim, voyaga yetkazdim. Birovdan kam emassizlar. Mendan keyin ro‘zg‘or tashvishi boshingizga tushadi. O‘ylab ko‘rsam, ilm bilan hunarda gap ko‘p ekan.

Chol to‘ng‘ich o‘g‘lidan so‘rabdi:

– Sen katta farzandimsan. Qani ayt-chi, ilm afzalmi yoki davlatmi?

– Ey, ota, qiziq gaplarni aytasiz-da. Ming marta shukurki, boshimizda soyabonimiz, siz, padarimiz hayot-siz. Yerimiz, molimiz bor, o‘qib nima qilamiz? – debdi.

Chol o‘g‘lining gapidan xafa bo‘lib, ikkinchi o‘g‘lidan so‘rabdi:

– O‘g‘lim, sen asl inson bo‘lasan, deb o‘ylovdim. Sen ham ot minib necha kunlab yo‘qolib ketasan. Men qari holim bilan qachongacha ishlayman. Menga yor-dam ber. Yaxshilab o‘ylab ko‘rib javob ber, bolam, ilm afzalmi yoki davlatmi?

Ikkinchi o‘g‘il aka-ukalariga bir qarab olibdi-yu, otasiga:

– Olloh taolodan tilaymanki, otam doimo sog‘-salo-mat yursinlar, soyayi davlatlarida yigitlik davrini suraylik. Pul-u mol bo‘lsa, ilmdan nima foyda? – debdi.

Cholning ta’bi xira bo‘lib xo‘rsinibdi.

Uchinchi o‘g‘il o‘ylamay-netmay otasining savoliga shunday javob beribdi:

– Ey, mo‘tabar otajonim, hamma gaplaringizga tu-shunaman. Lekin bu dunyoda yegan-ichgan, kiyganingiz qoladi. Endi katta bo‘lib qoldik, shu yoshda ilm olgan bilan qayerga boramiz? Hammaning ko‘zi davlatmand-ning qo‘liga qaraydi. Qo‘lini doim ko‘ksiga qo‘yib sa-lom beradi, xizmatingizni bajo qiladi, davlat yaxshi-da, ota, – deb javob beribdi.

1. Cholning savoliga o‘g‘illarining bergan javobini solishtiring.

II

Afsus-nadomat qilgan ota navbatni to‘rtinchi o‘g‘liga beribdi:

– Qani, o‘g‘lim, sen nima deysan?

To‘rtinchi o‘g‘il javob beribdi:

– Ey, padari buzrukvorim, men sizga nima ham derdim. Mana, siz o‘qimagansiz. Lekin mol-mulkingiz haddan ziyoda. Doim hurmat-izzatdasiz. Biz ham sizday yashayveramiz. Savolingizga javobim shuki, davlat yaxshi. Qo‘lingiz uzun bo‘ladi, qayerga cho‘zsangiz, yetadi.

Cholning hafsalasi pir bo‘libdi-yu, beshinchi o‘g‘liga ham o‘sha savolni beribdi.

– Hurmatli padarim, sizga javobim shuki, ilm degani qo‘lga ilinmaydi, kissangizga pul bo‘lib ham kirmaydi. U bilan qorin to‘ymaydi, kiyimingiz but bo‘lmaydi. Uyingizga palos qilib sololmaysiz. Endi sizga aytsam, mol-davlatga nima yetsin, davlat afzal-da, otajon, – debdi o‘g‘li.

Otaning jahli chiqibdi va oltinchi o‘g‘liga yuzlanibdi.

Oltinchi o‘g‘il o‘ylab turib, so‘ng debdi:

– Otajon, sizga ilm afzal desam, men uni bilmayman, o‘qiganim yo‘q. Davlatni bilaman. Boy yashaymiz. Uyimizda hamma narsa bor. Yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ketimizda. Bundan chiqdi, davlat afzal ekan-da, otajon.

– Ey, bolam, sen ham ko‘nglimdagi gapni aytmading. Akalaringga o‘xshab sen ham davlatga hirs qo‘ygan ekansan, – deb ota yettinchi o‘g‘liga murojaat qilibdi.

O‘g‘il talmovsirab javob beribdi. Gapining tayini yo‘q emish.

Ota xo‘rsinibdi, so‘ng kenja o‘g‘liga qarab:

– Qani, kenjam, umidim sendan, bolam. Kenja o‘g‘il aqlli bo‘ladi, deydilar. Davlat afzalmi yoki ilmmi? – debdi.

Kenja o‘g‘il otasiga:

– Otajon, men davlat emas, ilm afzal deyman. Meni maktabga bering, o‘qiyman. Nasihatingizga amal qilaman. Ko‘zingiz ochiqligida ilmli bo‘lib qolay.

– Barakalla, o‘g‘lim, – deb ota o‘g‘lining peshanasidan o‘pibdi.

Shunda eshik orqasida akalari bilan otasining bahs-u javoblarini tinglab turgan qizi:

– Ey, aziz otajonim, menga ruxsat bering, savolingizga javob berayin, endi navbat meniki, – debdi.

– Qani, qizalog‘im, navbat seniki, gapir, bu savolga sen nima deb javob berasan?

Qizi gap boshlabdi:

– Ey, otajon, avvalambor shuni aytay, eng kenja o‘g‘lingizning bergan javobi to‘g‘ri javobdir. Davlat emas, ilm afzaldir. Ilm eskirmaydi, chirimaydi, nobud bo‘lmaydi. Lekin mol-mulk chiriydi, oftobda rangi o‘chadi, sovuqda qotadi, olovda kuyadi. Davlatmand odam mudom uning g‘amida bo‘ladi.

Oqila qiz otasi va akalarining jimgina o‘tirib eshitayotganlarini sezgach, muddaosini aytdi:

– Ey, otajon, akalarim yaxshilab o‘ylab ko‘rsinlar. Yoshlik davrini bekor o‘tkazmasinlar, vaqtdan foydalansinlar. Zero, «So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman» bo‘ladi.

Chol kenja o‘g‘li bilan qizini maktabga beribdi. Boshqa o‘g‘illari endi mehnat qila boshlabdilar. Shunday qilib, ular murod-maqsadlariga yetibdilar.



1. Ertak mazmuni asosida reja tuzing.
   (Masalan, 1. Cholning qizi bilan suhbati...)
2. Aka-ukalar ilm to‘g‘risida qanday xulosaga kelishdi?



DAVLAT

Qadim zamonda bir dehqon o‘tgan ekan. Davlat dehqonning hovlisida bir necha yil yashabdi. Uning sharofatidan dehqonning mol-u davlati juda ko‘payib ketibdi. Dehqon mollarining son-sanog‘ini, yerlarining tanobini, oltinlarining hisobini bilmas ekan.

Bir kuni Davlat dehqonning qoshiga kelib:

– Bobo, dargohingizda ko‘p yillar yurdim, mening sharofatim bilan mol-u davlatingiz haddan ziyoda bo‘ldi. Endi menga xursandlik bilan javob bersangiz, boshqa birovnikiga borsam, – debdi.

Dehqonning aqli shoshib, hushi boshidan uchibdi-yu:

– Davlatjon, to‘g‘ri aytasan, sendan ko‘p bahramand bo‘ldim, beqiyos boylik orttirdim. Minnatdorman sendan. Lekin mendan nima yomonlik ko‘rdingki, ketaman deyapsan? O‘tinib so‘rayman sendan, ketmagin, huzurimda qolgin. Sensiz ahvolim nima bo‘ladi, zinhor ketma! – deb yalinibdi.

Davlat:

– Bobo, sizdan yomonlik ko‘rganim yo‘q. Siznikida ko‘p turib qoldim. Boshqalarnikiga ham boray-da. Ijozat bermasangiz bo‘lmaydi! – debdi.

Dovdirab qolgan dehqon:

– Davlatjon, bir kun sabr qil, men uydagilar bilan maslahatlashib olayin, – debdi.

Davlat bir kun kutadigan bo‘libdi. Dehqon xotini, ikkala o‘g‘li, kelinlari-yu qizini chaqirib, yig‘lab shunday debdi:

– Endi holimiz xarob bo‘ladi. Boshimizga musibat tushdi. Mol-u dunyomizdan birpasda ayrilamiz. Davlat bizdan xafaga o‘xshaydi. Ketaman, deb oyoq tirayapti. Yalinib-yolvorganimgayam ko‘nmayapti. Endi nima qilamiz?

Hammalari dehqonga qo‘shilib yig‘lashibdi. Kichkina kelini yig‘lamabdi ham, xafa ham bo‘lmabdi-da:

– Otajon, yig‘lamang, qarigan chog‘ingizda o‘zingizni qiynamang. Davlat ketaman degan bo‘lsa, xushnudlik bilan javob bering, mayli, ketsin! Buning uchun g‘am yemang, – debdi qaynotasiga.

Kelinning gapini eshitib hamma hayron bo‘libdi.

– Kelinposhsha, nimaga bundoq deyapsiz? Davlat ketsa, nima qilamiz? – debdi dehqon.

– Ota, ilojimiz qancha? Davlat ketsa ketaversin. Siz oyim bilan duo qilib o‘tirasiz. Biz hammamiz mehnat qilamiz: ekin ekamiz, mol boqamiz, meva teramiz, hayotimiz yomon bo‘lmaydi, – debdi kelin.

Kelinning bu gaplari dehqonning ko‘ngliga taskin beribdi.

Ertalab turib, hovliga chiqibdi. Davlat hali ham mehmonxonaning eshigi yonida dehqonni kutib turgan ekan.

– Assalomu alaykum, bobo! Endi menga ruxsat berasizmi? – deb so‘rabdi u.

Dehqon xo‘rsinib qo‘yibdi-yu, gap boshlabdi:

– Davlatjon, hammamiz maslahatlashib, senga ruxsat beradigan bo‘ldik. O‘g‘il-qizlarim, xotinim, kelinim: «Davlat ketadigan bo‘lsa, mayli, javob bering, o‘zimiz bir yoqadan bosh chiqarib, ahil bo‘lib mehnat qilamiz, mol-u davlat bo‘lsa kelaveradi», – dedilar.

Davlat birpas ma’yuslanib turibdi-da, so‘ng kulib:

– Bobo, men so‘zimni qaytib oldim, hech qayerga ketmayman, shu yerda qolaman. Men xursand bo‘lib, ahil yashaydigan xonadonni yaxshi ko‘raman. Inoqlik qayerda bo‘lsa, men ham o‘sha yerdaman! – debdi.

Shunday qilib, Davlat dehqonning xonadonida umrbod qolgan ekan.



1. Nima uchun Davlat dehqonning uyidan ketishni xohlamadi?
2. Davlat deganda nimani tushunasiz?





KO‘ZACHA BILAN TULKI

I

Juda qadim zamonda bir yolg‘onchi tulki yashagan ekan. Bir kuni momiqdum katta yo‘lga chiqib, tuproqqa ag‘anay boshlabdi. Tulki tuproqda ag‘anayotganda o‘sha yerga bir karvon yaqinlashibdi. Tulki darhol iniga kirib yashirinib olibdi.

Karvon o‘sha yerda tunamoqchi bo‘libdi, yo‘lovchilar tuyalar ustidan og‘ir qoplarni tushirib, olov yoqib ovqat pishirishibdi, choy qaynatishibdi.

Tuyalar uzoq yo‘l bosib, ancha holdan toygan ekan, karvonboshi shu yerda uch kun turishlarini aytibdi. Ularning gapini eshitib tulkini g‘am bosibdi.

Shunday qilib, tulki uch kun ovqat yemabdi. To‘rtinchi kuni karvondagilar yo‘lga hozirlik ko‘ra boshlashibdi. Shunda kimdir ko‘zachani tushirib yuboribdi. Ko‘zachaning bir bo‘lagi sinib tushibdi. Karvondagilar yaroqsiz idishni tulkining uyasi yaqiniga tashlab ketishibdi.

Tulki uyasidan endi chiqmoqchi bo‘lgan ekan, birdan shamol turib, singan ko‘zacha g‘uvullay boshlabdi.

– Nahotki karvondagilar to‘rtinchi kun ham shu yerda qolishsa! – deb tulki qo‘rqqanidan iniga chuqurroq joylashibdi.

Tulkivoy uzoq chiday olmabdi.

– Ochlikdan o‘lgandan ko‘ra, o‘qdan o‘lgan yaxshiroq, – deb o‘ylabdi u. Inidan chiqib qarasa, karvon yo‘q emish. Hammasiga ko‘zacha aybdorligini ko‘rgan tulki unga baqiribdi:



– Senimi, shoshmay tur! Borib qornimni to‘yg‘azib kelay, keyin bir ta’ziringni beraman.

Tulki yugurib ov qilgani ketibdi. Yurib-yurib bir bo‘lak go‘sht topibdi. Go‘sht uzoqdan mehrigiyoday o‘ziga tortayotganmish. Tulki yaqinroq borib qarasa, bir narsa borga o‘xshabdi. Ovchilar qopqon qo‘yib ketishgan ekan. Tulki nima qilishini o‘ylab qolibdi. Qarasa, bo‘ri ketayotganmish.

– Nimalarni o‘ylayapsan, do‘stim tulkijon? – debdi bo‘ri.

– Hech narsani o‘ylayotganim yo‘q, – deb javob beribdi tulki. – Salom, do‘stim!

– Agar saloming bo‘lmaganida seni yutib yuborardim! – deb tishlarini g‘ijirlatibdi bo‘ri.

– Meni yutguncha ana u yerdagi go‘shtni yuta qol!

Bo‘ri tamshanib, labini yalab:

– Nega tayyorgina go‘shtni yemading? – deb so‘-rabdi. – Balki u bemazadir?

– Axir go‘sht ham bemaza bo‘ladimi? Shundog‘am yeb qo‘yardim!

– Yana nimalarni istaysan? Bu go‘shtni xayolingga ham keltirma, – deb bo‘ri go‘shtga tashlangan ekan, qopqonga tushib qolibdi. Bo‘kirib, tishlarini g‘ijirlatib, qancha harakat qilsa ham chiqa olmabdi.



1. Tulkining inidan chiqmay yotishi sababini izohlang.
2. Tulki qanday hiyla ishlatib bo‘rini qopqonga tushirdi?



II

Tulki esa go‘shtni bir chekkaga olib borib yeb turib, debdi:

– Bo‘rivoy, sen dovyuraksan, lekin ko‘p narsalarni ko‘rmaysan.

Bo‘ri boshini xam qilib yordam so‘rabdi:

– Qadrdon tulkijon, yordam ber. Meni ozod qilgin.

Tulki dumini likillatib:

– Yaqinda meni yutib yubormoqchi bo‘lgan sen emasmiding? Yo‘q, azizim, ovchilarni kutib turasan, – deb ketib qolibdi.

Tulki iniga kelib, ko‘zachaga tikilibdi. Unga qanday jazo berishni o‘ylab-o‘ylab, oxiri suvga cho‘ktirmoqchi bo‘libdi. Dumiga bog‘lab, ariq bo‘yiga sudrab ketibdi.

Ko‘zacha ichiga suv to‘lib, qulqullagan sari tulkining battar jahli chiqibdi:

– Jim bo‘l, ey ahmoq! O‘liming yaqinlashsa-yu, sen kulasan!

Ko‘zacha qulqullab-qulqullab to‘libdi-da, tulkini ham suvga torta boshlabdi.

Shunda tulki yalinib:

– Voy, ko‘zacha, azizim! Axir dumimni uzib yuborasan-ku! Boshqa qilmayman, qo‘yib yubor meni! – debdi.

Ko‘zacha bo‘lsa indamay tulkini chuqurroqqa tortib boraveribdi. Tulki ovozining boricha noliy boshlabdi:

– Qo‘yib yubor, ko‘zacha, og‘ayni, o‘lyapman! – deb bor kuchi bilan bir silkingan ekan, dumi uzilib ketibdi.

Qirg‘oqqa sakrab chiqsa, ro‘parasida bo‘ri paydo bo‘libdi.

– Ha, tulkijon! Qo‘lga tushmayman, deb o‘ylagandirsan-a?

Ammo tulki sira qo‘rqmabdi.

– Eh, do‘stim! Axir nega mendan xafa bo‘lasan, nahotki sen taklif qilgan ziyofatdan bosh tortgan bo‘lsam? – debdi tulki.

Bo‘rining battar jahli chiqibdi:

– Axir sen meni tuzoqqa ilintirding! Endi dunyoga kelganingga pushaymon bo‘lasan.

Tulki bunga ham gap topibdi.

– Bo‘ri, og‘ayni, qanaqa xafachilik haqida gapiryapsan?

– Endi meni alday olmaysan. Qani, shikastlangan oyog‘imning haqini to‘lagin-chi, – debdi bo‘ri.

– Axir tushunsang-chi, bu baxtsizligingga kim aybdor o‘zi? – debdi tulki.

– Dumli tulkining o‘zginasi.

– Unda bu men emas, – deb ayyor tulki bo‘riga cho‘ltoq dumini ko‘rsatib, qutulib qolibdi.

Shu bilan ertak ham tugabdi.

1. Tulki bo‘rini qanday qilib aldadi? Ular bir-birlariga qanday so‘zlar bilan murojaat qildilar?
2. «Ayyor tulki» mavzusida bayon yozing.

OCHKO‘Z BOY



Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bir zamonlar chol bilan kampir o‘tgan ekan. Chol o‘tinchilik bilan zo‘rg‘a ro‘zg‘or tebratar ekan. U kunlardan bir kuni cho‘lga o‘tin tergani borsa, yovshanning tagida bir o‘rdak ucholmay yotganmish. Chol uni avaylab uyiga olib kelibdi va parvarish qila boshlabdi. O‘rdak bir oy deganda patlari o‘sib, parvoz qiladigan bo‘libdi. Chol quvonib, uni devorning ustiga qo‘yibdi. O‘rdak uchib ketibdi.

Buni ko‘rgan kampir choldan ranjib: «Qani qilgan foydangiz, o‘rdak uchib ketdi-ku! Uni so‘yib yerdik yoki sotardik», – debdi. Chol: «Savobi tegar», – debdi.

Kunlarning birida o‘sha o‘rdak uchib kelib, tom ustiga qo‘nibdi. Kampir:

– Chol, qarang, o‘rdagingiz keldi, – debdi. Chol o‘rdakni ko‘rib, belbog‘ini yozib, don sepibdi. Ammo o‘rdak tomdan tushmay, tumshug‘idagi bir hovuch gavharni tashlabdi-yu, uchib ketibdi. O‘zida yo‘q xursand bo‘lgan chol gavharlarni do‘kondorga olib borib, katta pulga sotibdi.

Chol bilan kampir juda boy-badavlat bo‘lib yashay-versinlar-u, gapni boshqa yoqdan eshiting.

Cholning bir boy qo‘shnisi bor ekan. Yeyishga noni, kiyishga kiyimi bo‘lmagan qashshoq o‘tinchining boy bo‘lib ketganini ko‘rgan boy:

– Qanday qilib bunchalik boyidingiz? – deb so‘rabdi.

Sodda chol bo‘lgan voqeani batafsil aytib beribdi va: «O‘rdakni davolaganim evaziga u menga gavhar tashlab ketdi, boyligim o‘shandan», – debdi.

Hasad o‘tida yongan boy cho‘lga ravona bo‘libdi. U axtara-axtara bir o‘rdakni topibdi-yu, oyog‘ini urib mayib qilibdi, patini bittalab yulibdi. So‘ng uni uyiga olib kelib parvarishlabdi. Jonivorning bir qancha vaqtdan keyin pati o‘sib, uchib ketibdi. Shu ketganicha bir oy ko‘rinmabdi. Bir kun uchib kelib boyning tomiga qo‘nibdi. Boyning xotini katta ko‘rpani supaga yozib, don sepibdi. O‘rdak tomda turganicha bir dona tarvuz urug‘i tashlabdi. G‘azablangan boy qarasa, o‘rdak osmon-u falakda parvoz qilib ketayotganmish. Boyning jahli chiqib, tarvuz urug‘ini yerga ekibdi. Urug‘ bir kunda unib chiqib, ikkinchi kuni hosil beribdi. Bir haftada qulochga sig‘maydigan tarvuz bo‘libdi. U kun sayin emas, soat sayin o‘sibdi. Ajablangan boyning toqati tugab, tarvuzning dumini bolta bilan chopib, uyiga dumalatib kelibdi. Ancha gavhar chiqsa kerak, qo‘shnimning ko‘zi tushmasin, deb eshikni ham qulflabdi. So‘ng er-xotin tarvuzni so‘yishibdi. Uning ichidan gavhar emas, bir ajdaho chiqib, boy bilan xotinini yutib yuboribdi.

Shunday qilib, ochko‘z boyning mol-mulki ham chol-kampirga qolibdi.



1. O‘tinchi chol va ochko‘z boyning xislatlarini solishtiring.
2. Ochko‘z boyning qilmishini qanday baholaysiz?
3. «Ochko‘z boy» va «Zumrad va Qimmat» ertaklarining o‘xshashligi va farqini aniqlang.





HIYLAGARNING JAZOSI

Ikki o‘rtoq bor edi. Biri sodda, ikkinchisi esa hiylagar edi. Ular bir kuni savdogarchilik qilish uchun bir yoqqa ketayotganlarida yo‘ldan bir xalta tilla topibdilar. Soddadil hiylagarga:

– Omadimiz keldi, endi bularni bo‘lib, orqaga qaytamiz, – desa, hiylagar:

– Taqsim qilib o‘tiramizmi? Hozir kimga qancha kerak bo‘lsa olib, qolganini ehtiyot qilib berkitib ketaylik. Zarur bo‘lganda yana kelib keragini olarmiz, – debdi.

Soddadil uning so‘ziga kirib «xo‘p» debdi. Oltindan keragicha olib, qolganini bir daraxt ostiga ko‘mibdilar.

Shaharga yetib kelib, har biri o‘z uyiga ketibdi. O‘zini aqlli deb hisoblagan hiylagar ertasi kun borib, ko‘milgan tillaning hammasini olib ketibdi. Soddadil o‘z qo‘lidagini xarjlab bo‘lgach, hiylagar qoshiga kelib debdi:

– Yur, oltindan picha olib kelaylik, juda muhtoj bo‘lib qoldim.

Hiylagar u bilan birga tilla ko‘milgan joyga boribdi, lekin ular hech narsa topmabdilar. Hiylagar soddadilning yoqasidan ushlab:

– Tillalarni sen olgansan, chunki sendan bo‘lak hech kimning bundan xabari yo‘q edi, – debdi.

Soddadil bechora: «Olmadim», – deb har qancha ont ichsa ham foydasi bo‘lmabdi. Hiylagar uni qoziga olib borib, bo‘lgan gapni aytib beribdi va tillalarni topib berishini da’vo qilibdi. Qozi:

– Guvoh va dalil bormi? – deb so‘rabdi.

Hiylagar:

– Ostiga tilla ko‘milgan daraxt guvohlik berib, tillani shu noinsof olib ketgan, dedi, – debdi.

Qozi bu so‘zni eshitib, hayron bo‘libdi.

Ancha gap-so‘zdan keyin ertasiga guvohlik bergan daraxt yoniga borishga qaror qilishibdi. Hiylagar sevinib uyiga kelib otasiga:

– Bu tilla hangomasini o‘z foydamizga hal etish sizga bog‘liq bo‘lib qoldi. Sizga ishonib, daraxt guvohlik beradi, dedim. Endi mening gapimga ko‘nsangiz, olib kelgan tillalarim o‘zimizga qoladi va yana qo‘shimcha shuncha tillaga ega bo‘lamiz, – debdi. Otasi:


– Men nima qilishim kerak? – deb so‘rabdi.

Hiylagar:

– U daraxtning ichi kovak bo‘lib, unga o‘n odam bemalol yashirinsa bo‘ladi. Kechasi borib, u yerga joylashib olishingiz kerak, ertasiga qozi daraxt tagiga kelganida, daraxt nomidan guvohlik bersangiz bo‘ldi, – debdi.

Ertasi kuni qozi shahardan chiqib, daraxt oldiga boribdi. Tomosha qilish uchun anchagina odamlar ham unga ergashib kelgan ekan. Qozi daraxtga qarab, tillalarning qayerdaligini so‘rabdi. Daraxtdan: «Tillalarni soddadil olib ketgan», – degan sado chiqibdi. Taajjublangan qozi daraxt atrofida aylanib yurib, unga diqqat bilan razm solibdi. Daraxtning katta kovagi borligini ko‘ribdi-da, hamma gapga tushunibdi. O‘ziga-o‘zi: «Xi-

yonatga marhamat yo‘q», – deb daraxt atrofiga shox qalatib o‘t qo‘ydiribdi. Chol biroz chidab jim turibdi, lekin halok bo‘lishini bilib, yolvora boshlabdi. Qozining buyrug‘i bilan uni daraxt ichidan chiqaribdilar. Qozi savol-javob qilib, haqiqatni bilibdi, soddadilning to‘g‘riligi, hiylagarning makri ma’lum bo‘libdi. Chol chekkan azobiga va nomusga chiday olmay, shu yerning o‘zidayoq jon beribdi. Hiylagarni jazolab, adabini beribdilar va otasining jasadini yelkasiga orttirib, shaharga jo‘natibdilar. Soddadil esa to‘g‘riligi tufayli hamma tillalarga ega bo‘libdi.



1. Matndan soddadil bilan hiylagarga xos xislatlar tasvirlangan o‘rinlarni topib, qayta o‘qing va solishtiring.
2. Qozi hiylagarning hiylasini qanday aniqladi?

HUNARSIZ KISHI O‘LIMGA YAQIN

I

O‘tgan zamonda bir podshoh yashagan ekan. Kunlarning birida u ovga chiqibdi-da, o‘sha yerdagi bir o‘tinchining go‘zal qizini ko‘rib, sevib qolibdi.

Podshoh tomonidan kelgan sovchilarga:

– Podshohingizning nima hunari bor, men hunarli kishiga turmushga chiqaman, – debdi qiz.

Sovchilar:

– Dunyoda podshohlikdan ham katta hunar bo‘ladimi? Podshoh barcha hunarli fuqaroning otasi bo‘ladi, – deyishibdi.

Qiz:

– Menga hunarlilarning otasi kerak emas, hunarlining o‘zi kerak. Zamon o‘zgarishi bilan bugun podshoh bo‘lgan kishi ertaga tilanchi bo‘lib qolishi mumkin. Podshohingizga borib ayting, menga hunarini ko‘rsatsin, undan so‘ng tegaman, – debdi.

Sovchilar qaytib kelib, qizning javobini aytibdilar. Podshohning bu so‘zlarga achchig‘i kelib, qizni o‘ldirmoqchi bo‘libdi-yu, biroq qizga bo‘lgan sevgisi bunga yo‘l bermabdi.

Nima qilarini bilmay, o‘zini o‘qitgan muallim bilan kengashibdi.

Muallim «Yetmishta yangi hunar» degan kitobni keltiribdi-da, uni tovush chiqarib o‘qibdi. Bir yerdan «hunarsiz kishi o‘limga yaqindir» degan so‘zlar chiqib qolibdi. Muallim ham shu yerda kitobni yopibdi-da:



– Qizning so‘zi to‘g‘ri, «Hunarliga tegaman» desa, haqqi bor, – debdi.

Podshohning ilgarigi dardiga yana ming dard qo‘shilibdi. Muallimga ruxsat beribdi-da, o‘zicha bir hunar o‘rganmoqqa

ahd qilibdi. Ertasiga podshoh taxtiga o‘tirgan chog‘ida, bir kishi bir gilam olib kelibdi. Bu gilamni ko‘rishi bilanoq podshohning ko‘ngliga gilam to‘qishni o‘rganish havasi tushibdi. Gilamdo‘zdan gilam to‘qishni o‘rgatishni o‘tinib so‘rabdi. U podshohga gilam to‘qishni yigirma besh kun davomida o‘rgatibdi. Kerakli narsalarni tayyorlab, podshoh o‘z qo‘li bilan gilam to‘qib, o‘tinchining qiziga sovchilardan berib yuboribdi. Sovchilar qizga podshohning o‘z qo‘li bilan to‘qigan gilamini ko‘rsatganlarida u:

– Mana endi podshoh men istagan kishi bo‘libdi, borib aytinglar, to‘yni boshlayversin, – debdi.



1. O‘tinchining qizi podshohga qanday shart qo‘ydi?
2. Qiz shartini sovchilar qanday tushunishdi? Podshoh-chi?



II

Podshoh tezda to‘y qilib, o‘tinchining qiziga uylanibdi.

O‘sha kunlarda el orasida taomining yaxshiligidan bir kababchining dong‘i chiqqan ekan. Podshohga ham uning kababi yoqib, ko‘ngli istagan chog‘larda u yerdan kabob oldirib yer ekan. Kunlardan bir kuni yarim kechada podshohning kabob yegisi kelib qolibdi, borib kababchining do‘konini taqillatibdi.

– Kimsan, nima ishing bor? – debdi kababchi.

– Men bir musofirman, qornim och, kabob yegani keldim, – debdi podshoh.

Podshoh kabobchining uyiga kirib koʻrpachaga oʻtirgan ekan, birdan gumburlab yertoʻlaga yiqilib ketibdi. Yertoʻlada podshohdan boshqa bir necha odamlar ham bor ekan.

Shunda u aniq bilibdiki, kabob yegani kelganlarni zindonga tashlab, soʻngra qul qilib sotishar ekan. Bu yerga meni oʻlim haydab kelgan ekan, debdi podshoh va chidamoqqa majbur boʻlibdi. Oradan bir necha kun oʻtgandan soʻng gal podshohga yetibdi. Podshoh:

– Agar sizning istagingiz aqcha topish boʻlsa, mening yaxshi hunarim bor, yigirma kunda bir gilam toʻqiyman. U gilamni podshohga tortiq qilsangiz, juda koʻp pul beradi, – debdi kabobchining odamlariga.

Ular maslahatlashib: «Hunaring tufayli oʻlimdan qutulding, bizlarga gilam toʻqib ber», – deyishibdi. Podshoh yigirma kun orasida bir gilam toʻqib, chetiga yonidagi muhrini bosib:

– Mana, gilamni podshohga tortiq qilib olib boring! – debdi. Kabobchilar gilamni podshohning oʻrdasiga olib boribdilar. Vazir gilamni sinchiklab koʻzdan kechirgach, bir chetida podshohning muhrini koʻrib qolibdi. U darhol navkar yoʻllab, kabobchining makonini oʻrab olib, podshoh va boshqa asirlarni zindondan qutqaribdi. Podshoh xalqni toʻplab, ular uchun ibrat boʻlsin deb, odamlarni qiynab, soʻngra qul qilib sotadigan kabobchilarni bozorning oʻrtasida dorga ostiribdi.

1. «Hunarli kishi xor bo‘lmas» maqolining ertak mazmuniga qanday aloqasi bor?
2. Matndan hunarning afzalligi haqidagi o‘rinlarni tanlab o‘qing.

ZIYRAK UCH YIGIT

I

Qadim zamonda fahm-farosatli va zukko uch aka-uka: Ibrohim, Ismoil va Umar degan yigitlar safarga chiqibdilar. Yo‘lda ketisharkan, o‘sha yo‘ldan o‘tib ketgan bir tuyaning izi ularning diqqatini jalb etibdi. Tuya bir necha belgilar qoldirib ketgan edi. Uch yigit tuya qoldirgan belgilarni diqqat bilan tekshirib yo‘llarida davom etdilar. Biroz yurgan edilar, chopib kelayotgan o‘rta yoshli bir kishini ko‘rdilar. U aka-ukalar yoniga hovliqib kelib:

– Yigitlar, men tuyamni yo‘qotdim, mabodo uni ko‘rmadingizmi? – deb so‘radi. Ibrohim unga:

– Tuyaning bir ko‘zi ko‘r, uning ustiga birida yog‘, ikkinchisida asal bo‘lgan ikki idish osgansan, to‘g‘rimi? – dedi. Haligi kishi: «To‘g‘ri so‘zladingiz», – deb uning so‘zini tasdiqladi.

Keyin Ismoil so‘zladi:

– Tuyaning bir tishi tushgan edimi?

– To‘g‘ri topdingiz, tuyamning bir tishi yo‘q edi, – deb javob berdi egasi. Haligi kishi tuyaning belgilarini to‘g‘ri aytib berganlaridan hayratda qolib:

– Yigitlar, tuyamning hamma belgilarini topdingiz, ayting-chi, tuyam qayerda? – dedi.

Yigitlar uning tuyasini uchratmaganlarini aytdilar. Haligi kishi g‘azablanib:

– Bekorchi so‘zlarni so‘zlamang, tuyamni ko‘rgansiz, ko‘rmagan bo‘lsangiz uning belgilarini topib so‘zlamasdingiz. Sizlar uni tutib olib, bir yerga yashirgansiz yoki birovga sotib yuborgansiz. Agar tuyamni topib bermasangiz, ustingizdan hokimga shikoyat yo‘llayman. Hokim albatta buning chorasini ko‘rib, siz – o‘g‘rilarga jazo beradi, – deb do‘q urdi.

Yigitlar tuyani ko‘rmaganlarini qayta-qayta aytsalar ham u aslo ko‘nmadi. Shundan keyin ular yana yo‘lga tushdilar.

Haligi kishi darhol shahar hokimining huzuriga borib, voqeani bayon qildi. Hokim bu uch yigitni tutib keltirish uchun bir necha otliq askarni yubordi. Askarlar ularning qo‘llarini bog‘lab, hokimning huzuriga keltirdilar. Hokim yigitlarning qo‘llarini yechib, o‘tirishga buyurdi. So‘ngra ularga xitob qilib:


– Yigitlar, tuya egasiga tuyaning hamma belgilarini to‘ppa-to‘g‘ri aytib bergansiz-u, keyin tuyani ko‘rganimiz yo‘q, deb tongansiz. Kishi ko‘rmagan narsasining belgilarini qayerdan biladi? Bunga kim ishonadi? Tuyani yashirgan bo‘lsangiz, egasiga olib kelib bering, sotib yuborgan bo‘lsangiz bahosini to‘lab, egasini rozi qiling, bo‘lmasa jazo beraman, – dedi.

Yigitlar haligi kishiga aytgan gaplarini takrorlab, tuyani ko‘rmaganlarini aytdilar. Hokim g‘azablanib, ularni zindonga tashladi.

1. Aka-ukalar tuyaning qanday belgilarini aytishdi?
2. Hokim ularni zindonga tashlab to‘g‘ri qildimi?

II

Oradan bir necha kun o‘tgach, haligi kishi boshqa bir qabiladan tuyasini topib oldi. Uch yigitga tuhmat qilganiga ko‘p o‘kindi. Darhol hokimning huzuriga kelib:



– Bechora yigitlarga tuhmat qilibman, haqiqatan ular o‘g‘ri emas, pok, sof yigitlar ekan. Tuyam boshqa qabilaga ketgan ekan, o‘sha qabiladan topib oldim. Yigitlarni ozod qilishingizni o‘tinaman, lekin tuyamning belgilarini qanday qilib topganlariga hayronman. Sizning huzuringizda aytib bersinlar. Bu bilan sizni ham, meni ham hayronlikdan qutqazadilar, – dedi.

Hokim yigitlarni darhol zindondan chiqarib, o‘z huzuriga keltirdi, ko‘p iltifotlar qilib, ularning ko‘ngillarini ko‘tardi, so‘ngra:

– Yigitlar, sizlar tuyani ko‘rmasdan turib, uning belgilarini qanday qilib bildingiz? Shunga hayronmiz, aytib bering, bizni hayratdan qutqaring, – dedi.

Ibrohim o‘rnidan turib ta’zim qilib aytdi:

– Yo‘lda kelarkanmiz, bir tuyaning izlarini ko‘rdik, tuya bir tomondagi o‘tlarni yeb borgan-u, ikkinchi tomondagi o‘tlar joyida qolgan. Shundan men tuyaning

bir ko‘zi ko‘r ekanini angladim. Yana yo‘lning bir tomonida yumronqoziq bir joyni yalab turgandi, ikkinchi tomonida pashshalar g‘uvullashardi. Shundan tuyaning ustida biriga yog‘, ikkinchisiga asal to‘ldirilgan ikki idish borligini bildim, idishlar chayqalib biroz yog‘ va biroz asal yerga to‘kilgan.

Ismoil aytdi:

– Tuya tishlari bilan o‘tni tortganda, har tishlab tortilgan o‘tlardan bittasi qolib ketavergan, bu esa tuyaning bir tishi yo‘qligini ko‘rsatdi.

Hokim yigitlarning fahm-farosatlari, ziyraklik, sezgirliklariga tahsin aytib, ularga ko‘p in’om-ehson qildi. Hech qo‘ymasdan o‘sha yigitlarni o‘z yonida olib qoldi.

Bir kun kechasi hokim ularning uyiga keldi, yigitlar kabob yeb, sharob ichib gaplashib o‘tirgandilar. Hokim eshik orqasida turib yigitlarning gaplariga quloq soldi.

Ibrohim:

– Bu ichib o‘tirgan sharobimiz qabristonda o‘sib turgan uzumdan tayyorlanganga o‘xshaydi, chunki sharobdan qabriston hidi kelib turibdi, – dedi.

Keyin Ismoil:

– Bu yeb turgan kabobimiz it sutini ichgan qo‘zi go‘shtidan tayyorlanganga o‘xshaydi, – dedi. Umar ham so‘zga kirishib:

– Hokim – hokim o‘g‘li emas, balki oshpaz o‘g‘li, deb o‘ylayman, – dedi.

1. Aka-ukalar sharob, kabob va hokim to‘g‘risida qanday taxmin qildilar?

III

Hokim onasining yoniga borib:

– Rostini ayting, men kimning o‘g‘liman? Otam kim? – deb so‘radi.

Onasi har qancha:

– Marhum otang shahar hokimi edi, sen uning o‘g‘lisan, – desa ham, hokim unamasdan:

– Onajon, to‘g‘risini ayta bering, oshpazning o‘g‘li ekanimni fahm-farosat egasi – o‘sha uch yigit suhbatlashib o‘tirganlarida eshitdim. Ularning fikrlari xato bo‘lmaydi, men bunga ishonaman, – deb onasini qistay boshladi. Nihoyat onasi haqiqatni aytishga majbur bo‘ldi:

– Sen aslida bizning o‘g‘limiz emas, oshpazimizning o‘g‘lisan. Bizning hech bir farzandimiz bo‘lmadi, erim – shahar hokimi ham, men ham shu to‘g‘rida qayg‘urar edik. Kunlardan bir kun oshpazimizning xonadonida sen dunyoga kelding, lekin bir oy o‘tar-o‘tmas onang bechora vafot etdi. Biz seni o‘z tarbiyamizga oldik. Onang vafotidan biroz vaqt o‘tgandan keyin otang ham qayg‘u-hasrat o‘tida kuyib vafot etdi. Sen o‘z ota-onangni bilmaysan, biz ham senga haqiqiy ota-onangni bildirmadik. Xalq seni shahar hokimining o‘g‘li deb tushundi. Sening ma’naviy otang vafot etgandan so‘ng uning vorisi sifatida sen shahar hokimi bo‘lding.

Hokim onasining yuz-ko‘zidan o‘pib, unga tasalli berdi, ko‘nglini ko‘tardi. Hokim uchala yigitning so‘zlari to‘g‘ri chiqqaniga hayratda qolib, ularning fahm-farosatlariga ofarin o‘qidi. O‘sha kuni kechasi yigitlarning yoniga borib biroz so‘zlashib o‘tirgandan so‘ng:

– O‘tgan kecha uyingiz eshigi yonida turib, kishini hayratda qoldiradigan ba’zi so‘zlaringizni eshitdim: sharobning qabristonda o‘sgan tok uzumidan tayyorlanganini, qo‘zichoqning it suti emganini, men oshpaz o‘g‘li ekanimni so‘zladingiz. Qaysi dalillarga asoslanib shu fikrlarga kelganingizni aytib bering, – dedi.

Ibrohim aytdi:

– Sharob kishiga xursandchilik beradi, kecha yuborgan sharobingizni ichib ko‘nglimda g‘amginlik paydo bo‘ldi, chunki sharobdan qabriston hidi kelardi. Shu asoslarga tayanib, sharobni qabristonda o‘sgan tok uzumidan tayyorlanganini sezdim.

Ismoil aytdi:

– Yuborgan kabobingizni yeganimdan keyin tabiatim it tabiat holiga tushdi. O‘rnimdan turib birov bilan yoqalashish fikriga tushdim. Shundan kabobni it suti emgan qo‘zi go‘shtidan ekanini bildim.

Hokim uning fikrini ham tasdiq qildi. So‘ngra:

– Mening oshpaz o‘g‘li ekanimni siz so‘zlagan bo‘lsangiz kerak, deb o‘ylayman, ayting-chi, mening oshpaz o‘g‘li ekanimni qayerdan bildingiz? Bunga birorta dalil ko‘rsata olasizmi? – deb Umarga murojaat qildi. Umar aytdi:

– O‘zingizga ma’lum bo‘lsa kerak, har kasb ahli qayerda bo‘lmasin, o‘z kasbini maqtaydi, dehqon – dehqonchilikdan, savdogar – savdogarchilikdan so‘z ochadi. Mabodo ularning o‘g‘illari boshqa kasbni egallagan

bo‘lsalar, baribir ota kasbi ularning ruhiga ta’sir etgan bo‘ladi. Chunki ota tarbiyasida bo‘lib, ota kasbidan non yeganlar. Shuning uchun ular qayerda bo‘lmasinlar, beixtiyor ota kasbi haqida so‘zlaydilar. Agar hokim o‘g‘li bo‘lsangiz edi, ovqatdan emas, mamlakat ishlaridan so‘zlar edingiz. Doimo taomdan so‘z ochganingizdan oshpaz o‘g‘li ekanligingizni sezdim.

Hokim Umarning topib aytganidan hayratda qolib, uning fahm-farosatiga, ziyrakligiga tahsinlar aytdi.



1. Ertakning «Ziyrak uch yigit» deb nomlanishini izohlang.
2. Ertak qismlariga mos sarlavhalar toping va ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik borligini aniqlang.



ADABIY ERTAKLAR



BO‘RINING TABIB BO‘LGANI HAQIDA ERTAK

Anvar Obidjon

I

Nelar bo‘lmas jahonda!..
Yer go‘yo ters aylandi –
Tabiblikka o‘rmonda
Yirtqich Bo‘ri saylandi.
Ana qarang,
Tish qayrab
O‘tirar shum shifokor.
Yo‘lga boqar jovdirab,
Tezroq kelsa deb bemor.

Keldi ingrab Quyonvoy,
Shalvirab ding qulog‘i.
Qadamlari poyma-poy,
(Balki, tortmas oyog‘i.)
– Qani, o‘tir.
Xix-xix-xi...
Darding nima?
Ayt, inim.



– Bo‘ri og‘a,
Uch kunki –
Tinmay og‘rir biqinim.
Bo‘ri yaqin o‘tirdi,
Dono bilib o‘zini.
Biqin qolib,
Tekshirdi –
Quyonning chap ko‘zini.

– Kechikamiz dingquloq,
Ko‘rmasak tez chora gar.
Oshqozoning sal chatoq,
Buni... «tumov» deydilar.

Biz tabiblar bu dardni
Juda yaxshi bilamiz.
Qorning yorib,
Sen mardni –
Muolaja qilamiz.

Dikkaytirib dumini,
Qochib qoldi tez Quyon.
Bechoraning biqini
Og‘rimas shundan buyon.

Keyin og‘rib tomog‘i,
Keldi yig‘lab yosh To‘ng‘iz.
Ushlab ko‘rib oyog‘in,
Bo‘ri dedi:
– Voh, essiz!..
Tomoq og‘riq boshlanar
O‘ng oyoqning payidan.

Kesib olsak soz bo‘lar,
Go‘shtlikkina joyidan.
Bo‘ri tayyor deb o‘lja,
Yutar ekan so‘lagin.
Fursat poylab To‘ng‘izcha
Rostlab qoldi juftagin.

1. Matnni ifodali o‘qing va bo‘riga xos xislatlarni aniqlang.
2. Quyon bilan To‘ng‘izchaning qochib qolishi sababini izohlang.

II



Keldi Tulki ming‘irlab,
Tikan kirib qo‘liga.
(Bo‘ri der: «Bu boshqa gap!»
Uchrab go‘shtning mo‘liga.)

– Tabib, uzr,
Keldim kech...
Juda chatoq ishlarim...
– Dard ko‘rmaysan endi hech,
Omon bo‘lsa tishlarim!

– Kecha tunda uzoqdan
Tinglab shirin ovozin,
Tutib keldim uzoqdan
Tul kampirning xo‘rozin.

Yo‘lda ablah bo‘ztikan
Yaraladi qo‘limni.
Azobi ja zo‘r ekan,
Bukchaytirdi belimni.

«Shoshmay turgin, muttaham!»
Der Bo‘rivoy ichida.
– Ko‘z tegmasin,
O‘zing ham –
Yetilibsan-da juda...

Dardingni bilay tishlab,
Beri kel-chi, jon inim.
...Shunday qilib,
Dil xushlab,
Bo‘ri yedi Tulkini.

So‘ngra ochib bemorning –
Qabul qilish daftarin,
Silab-siypab qornini
Yozdi ushbu gaplarni:

«Qo‘lin tirnab bo‘ztikan,
Tulki keldi notetik.
Ahvoli og‘ir ekan,
Chora topmadik...
Yedik!»

Kechga yaqin kekkayib,
Kirib keldi qari Sher.
Bo‘ri yetti bukchayib,
«Xush kelibsiz, shohim!» der.

Sher harsillab,
O‘zini
O‘rindiqqa tashladi.
Chaqchaytirib ko‘zini,
Darg‘azab so‘z boshladi:
– Yuray desang sog‘, quvnoq,
Yaxshilab ko‘r, akasi.
Bir haftaki,
Sal yo‘qroq
Ishtahamning mazasi.

Bo‘ri aytar:
– O, shohim,
Chekmang tashvish ozorin.
Buning chorasi oson,
Zarurdir quvvatdori.



Tabibdir yetti pushtim,
Shunday uqtirar ular:
«Semiz hayvonning go‘shti
Quvvatga ko‘p boy bo‘lar».
Og‘zidan so‘lak oqib
U tugatgach gapini,
Semiz tabibga boqib
Sher yaladi labini:
– Yaxshi emas, har holda,
Quvvatdori izlasam.

Shoh bo‘lsam-u,
Shoqolday –
O‘rmonda giz-gizlasam.
Qo‘ldan berib imkonni,
So‘ng yurarman armonda –
Sendan semiz hayvonni
Topish mushkul o‘rmonda.
Qadrlayman men har choq
Tabiblarning so‘zini,
Totmoqchiman hoziroq
Quvvatdori tuzini.



1. Bo‘rining shum taqdirini «qilmish-qidirmish» deb baholash mumkinmi?
2. Ertakka yana qanday sarlavha qo‘yish mumkin?



BAQA BILAN TAQA



Aziz Abdurazzoq

I

Taqachining ustaxonasiga yaqin yerdagi ko‘lmakda bir baqa yashar ekan. U o‘zining qanday qilib ko‘lmak suvda paydo bo‘lib qolganini bilmas ekan. Qiladigan ishining ham tayini yo‘q ekan. Taqachini yaxshi ko‘rar ekan-u, buni taqachi bilmas ekan. Azbaroyi yaxshi ko‘rganidan uning sayrashi ham taqachining bolg‘a urishiga o‘xshar ekan. Taqachi shogirdi bilan birga «taqa-taq», «taqa-taq» qilib bolg‘a urganida, baqa ham unga o‘xshatib «vaqa-vaq», «vaqa-vaq» deb sayrar ekan.

Bir kuni o‘sha baqa ko‘lmakdan chiqib, taqachining oldiga boribdi. Salom bergan ekan, taqachi eshitmabdi.

Bolg‘aning shovqinida baqaning tovushi yo‘qolib ketibdi. Taqachi bolg‘ani qo‘yib, sandon ustidagi temirni olovga solayotganda baqa yana salom beribdi. Taqachi uning ovozini eshitibdi-yu, o‘zini ko‘rmabdi. U yoqqa-bu yoqqa qarayveribdi. Baqa o‘zini bildirish uchun «vaqa-vaq» deb sayrab yuboribdi. Shunda salom bergan baqa ekanligini taqachi bilib qolibdi.



– Vaalaykum assalom! – alik olibdi taqachi. – Xo‘sh, xizmat?

– Har kuni uzoqdan sizga tikilib yotaman, – deb gap boshlabdi baqa. – Nechta otga taqa qoqqaningizgacha bilaman. Sanab yotaman.

– Xo‘sh, nima bo‘libdi? – debdi taqachi. – Maqsading nima? Tezroq aytaqol.

– Maqsadim shuki, – debdi baqa, – menga ham taqa qoqib qo‘ysangiz.

Taqachi hayron bo‘libdi:

– Iye, iye, sen ot emassan-ku! Taqani nima qilasan?

– Taqa menga juda zarur, – debdi baqa. – Nega desangiz, men baland sakraganim bilan oyog‘imdan tovush chiqmaydi. Agar taqa qoqtirib olsam, sakraganimda hammayoqni jaranglatib yuborar edim. Oyog‘imdan o‘t chaqnar edi. Axir men ham dunyoga umid bilan kelganman. Besh kunlik umrimni o‘zimning borligimni bildirib o‘tkazsam deyman.

Taqachi baqani otashkurak bilan qisib olib, uloqtirib yuboribdi. Baqa shalop etib ko‘lmak suvga tushibdi.

U yerda ancha vaqt xafa bo‘lib yotibdi. Lekin ertasiga yana taqachining oldiga borishga qaror qilibdi.



1. Baqa nima uchun oyog‘iga taqa qoqtirishni havas qildi?
2. Gap uqmas baqaning qaysarligini qanday baholash mumkin?



II

Bundan keyin baqa har kuni bir marta taqachining oldiga boradigan bo‘libdi. Har borganida taqa so‘rab yalinaveribdi.

Uning yalinib-yolvorishi taqachining joniga tegibdi.

– Shuncha yil taqachilik qilib, bolg‘aning taraq-turuqi jonimga tegmagan edi, – debdi u. – Ammo sening xi-raligingdan charchadim.

Baqa ham bo‘sh kelmabdi.

– Qulog‘im tinch bo‘lsin desangiz, oyog‘imga taqa qoqib qo‘ying, – debdi u.

Ertasi kuni taqachi baqaning to‘rttala oyog‘iga taqa qoqib qo‘yibdi.

– Qani, endi yurishingni tomosha qilay, – debdi taqachi. Baqaga bu gap ta’sir qilmabdi. Sakramoqchi bo‘lgan ekan, o‘rnidan qo‘zg‘alolmabdi. Sir boy bermas-lik uchun sekin-sekin yurib ko‘lmakka boribdi. Suvga tushib yotib o‘ylabdi: «Taqa og‘ir bo‘lar ekan. Lekin o‘rganib ketaman. Endi meni boshqa baqalar ko‘rsa, havasi keladi.

Shu yaqin o‘rtada hovuz bo‘lsa kerak. Axtarib ko‘ray. Agar hovuz topsam, u yerda baqalar bo‘ladi. Ularga taqamni ko‘rsatib hayron qoldiraman». Shu xa-yol bilan yo‘lga tushibdi. Ikki soat yurar-yurmas rosa terlab ketibdi. Baqa bo‘la turib taqa bilan yurish oson-

mi, axir?! U bir necha joyda dam olib, yo‘lda davom etibdi. Hovuzni ham topibdi.

Haqiqatan u yerda baqalar ko‘p ekan. Hovuzdan chiqib oftobda isinib yotishgan ekan. Ular taqali baqani ko‘rib hayron bo‘lishibdi.

– Oyoqlaringdagi qanaqa temir? – deb so‘rabdi baqalardan bittasi.

– Taqa, – deb javob beribdi baqa.

Shu payt uzoqdan chopib kelayotgan ot dupuri eshitilibdi. Baqalar cho‘chib hovuzga sho‘ng‘ib ketishibdi. Bir mahal hovuzdan chiqib qarashsa, taqali baqa yo‘q emish.

– Mehmonimiz qayoqqa ketib qoldi ekan? – deb hayron bo‘lishibdi ular.

– U ham biz bilan suvga sho‘ng‘igan edi, – debdi bir baqa. – Men ko‘rgan edim.

Suvning tagiga tushib qarashsa, haqiqatan mehmon baqa yuzaga chiqolmay taqalari loyga botib yotgan ekan.

Uni ko‘plashib ko‘tarib olib chiqishibdi. Taqali baqa oftobda yotib, anchadan keyin o‘ziga kelibdi.

– Nima bo‘ldi senga, mehmon? – debdi bir baqa.

– Taqa bilan yurib bo‘lar ekan-u, suzib bo‘lmas ekan, – debdi u.

Baqalar unga taqasini oldirib tashlash kerakligini aytishibdi. Taqali baqa bunga rozi bo‘libdi-yu, yana taqachining oldiga borishga uyalibdi. Baqalar maslahatlashib, uni o‘zlari olib boradigan bo‘lishibdi.

Shunday qilib, ertasi kuni yo‘lga chiqishibdi. Taqachining oldiga borib voqeani aytishibdi. Taqachi qoshlarini chimirib, biroz o‘ylanib qolibdi. Keyin:

– Ha, mayli, – debdi u. – Bir o‘zi kelsa, balki olib tashlamas edim. Sizlar ko‘pchilik bo‘lib iltimos qilyapsizlar.

U shunday deb, baqaning oyog‘idagi taqalarni olib tashlabdi. Shundan keyin baqa yengil tortib, o‘zining yangi tanishgan og‘aynilari bilan birgalikda sakrab-sakrab yo‘lga tushibdi.

– Endi bundan buyon mana shu og‘aynilaringdan ajralmagin, – deb nasihat qilibdi taqachi. – Bular nima qilsa, sen ham shuni qilgin. Baqa bo‘lsang baqaga o‘xshab sayrab yuraver. Endi taqani havas qila ko‘rma. Uni otga chiqargan. Sen ikki dunyoda ham ot bo‘lolmaysan.

Taqadan ozod bo‘lgan baqaga bu gap ma’qul bo‘libdi-yu, lekin u lom-mim deb og‘iz ocholmabdi.



1. O‘ziga noloyiq ishga qo‘l urgan kishilar maqsadiga erisha olmasligini taqali baqa misolida izohlang.
2. Ertakni yana qanday nomlash mumkin?






LAQMA IT

Shukur Sa’dulla


I

Birdan tushib qoldi sovuq,
Itning ko‘rpa-yostig‘i yo‘q.
Na uyi bor, na boshpana
Hech kimi yo‘q – yakka yana.
Qish keladi qilich olib,
Bo‘ron bilan dovrug‘ solib.
Qaltiraydi kuchuk dir-dir,
Sovuq deydi: – «Ichkari kir».
Mosh bilan u urish edi,
Buning uchun afsus yedi.
Chidolmadi, qoqdi eshik,

Derazadan boqdi mushuk.
– Kechir, – dedi, yolvordi it,
Mushuk dedi: – Yalinma, ket!
Yozi bilan do‘stlashmading,
Biror og‘iz so‘zlashmading.
Yurding doim sanqib bekor,
Bo‘yning ishga bermadi yor.
Ajab bo‘ldi... Uy qurmading,
O‘z va’dangda sen turmading.
Ko‘z yosh to‘kar kuchuk sho‘rlik:
– Yomon bo‘ldi bu ko‘rgulik,
Uy qurardim, attangki, qish,
Qishda qilib bo‘lmaydi ish.
Ketmon botmas yer o‘yganda,
Qish quritmas g‘isht quyganda.
Qo‘lni suvga urib bo‘lmas,
Xullas, qishda uy qurilmas.
Yalinadi yalqov kuchuk:
– Rahming kelmas menga nechuk?
Yoz bo‘lsa-chi, quray bir uy,
Uymas, saroy... so‘rama, qo‘y!
Dang‘illama va serhasham,
Havaslaring kelsin biram.
Pechka yonar erta-yu kech,
Yozdan farqi bo‘lmagay hech.
Faqat menga ber joy-makon,
Yoz kelguncha saqlayin jon!
Moshxon kular ko‘zin suzib:
– Aldoqchi! – deb bo‘yin cho‘zib
– O‘tgan yili ko‘z yosh to‘kding,
Issiqqina uyga cho‘kding.



Quvding meni ko‘cha-ko‘yga,
Kirolmadim erkin uyga.
Qo‘yxonaga borar chopib,
Akillar u sovuq qotib.
Eshik qoqar, so‘ng tinglar jim,
Echki quloq solib der: – Kim?
– Men, eshikni och, Echkijon,
Keldim senga bo‘lib mehmon.
– Sen laqmani men bilaman,
Kela ko‘rma, yo‘q qilaman.
Yozi bilan laqillading,
Meni ko‘rsang akillading.
Issiq bo‘lsa, suvda suzding,
Qorning ochsa, g‘o‘ra uzding.
Salqin joyda qilding rohat,
Sovuqqa ham qil-da toqat.
Qor yog‘adi gupillatib,
Molxonani do‘pillatib.
Yolboradi bo‘ribosar,
Sigir asta quloq osar.
– Govmish sigir, Olaqashqa,
Do‘stim yo‘qdir sendan boshqa.
Menga joy ber, qishlay yana,
Tor bo‘lsa ham ber boshpana.
Nishxo‘rdingdan ko‘rpa qilay,
Senga uzoq umr tilay.
– Menga bundoq hiyla qilma,
Sigirlarni ahmoq bilma.
Ishontirding o‘tgan yili,
Rahm qildi hayvon eli.
Uyda yotding oyoq cho‘zib,
Sog‘in sutni hadeb buzib.



Ta’zirimni yeganman xo‘p,
Sololmaysan og‘zimga cho‘p.



1. Itning Moshxon, Echki va Olaqashqalar bilan suhbatini qayta o‘qing. Ularning uylariga kiritishmagani sababini izohlang.
2. Moshxon nima uchun itni uyiga kiritmadi?



II

It yugurdi erta-yu kech,
Ammo yordam bo‘lmadi hech.
Xo‘roz, tovuq, kurka, o‘rdak,
Parrandalar bari birdak.
Yolg‘onchiga bermadi joy,
Daydi itning holiga voy.
Qordan so‘ngra yer muzladi,
Sovuq qotib it so‘zladi:
– Yoz kelsin-chi, quray bir uy,
Bir saroyki, tengsiz... voy-bo‘y,
Dang‘illama va serhasham,
Havasingiz kelsin biram...
O‘rtasida bo‘lar pechi,
Qishda yozday uyning ichi.
Maza qilib uy quraman,
Mehmon chorlab davr suraman.
Kunlar o‘tdi birin-ketin,
It yo‘qotdi yarim etin.
Paxmoq bo‘ldi mo‘y-junlari,
O‘lmay qolib qish kunlari.
Nur sochadi ko‘kda quyosh,
Yerdan maysa ko‘tarar bosh.



Hamma ishga otlanadi,
It suyunib shodlanadi.
– O‘ynab olay, keldi bahor –
Deb sanqiydi erta bahor.
Yozi bo‘yi tinim bilmas,
Sanqimoqni kanda qilmas.
Issiq kunda cho‘miladi,
Qumga oyoq ko‘miladi.
Salqin yerda xurrak otib,
Dam oladi beg‘am yotib.
Hamma ishda, kuchuk bekor:
– Menga, – deydi, – uy na darkor?
Bir gap bo‘lar qishda, – deyar, –
Erta g‘amin eshak yeyar...
Yomg‘ir ezib yog‘ar avval,
So‘ngra laylakqor olar gal.
It tumshayib yurar yolg‘iz,
Qorda, muzda qoldirib iz.
Yalinar u yana-yana,
Qani bo‘lsa bir boshpana.
Yoz yemasang qishning g‘amin,
Holingga voy, bo‘lgin amin!

1. It yozni qanday o‘tkazdi? U nima uchun o‘ziga uy qurmadi?
2. Itning qilmishini qanday baholash mumkin?
3. Ertak nima uchun «Laqma it» deb nomlanganini izohlang.

MAQOLLAR

- Ona yurting – oltin beshiging.
- Vatanning qadrini bilmagan
  O‘z qadrini bilmas.
- Oz so‘zla – soz so‘zla.
- Ko‘p bilgan oz so‘zlar,
  Oz so‘zlasa ham, soz so‘zlar.
- Aql – yoshdan, odob – boshdan.
- Odob bozorda sotilmas.
- Ilm – aql chirog‘i.
- Bilim kuchda,
  Kuch bilimda.
- Harchand o‘qibsan – bilimdonsan,
  Agar amal qilmading – nodonsan.
- Do‘stsiz boshim – tuzsiz oshim.
- Yolg‘iz otning changi chiqmas,
  Changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas.
- Do‘sting ham til,
  Dushmaning ham til.
- Hunar bo‘lsa qo‘lingda,
  Non topilar yo‘lingda.
- Mehnatli non shakar,
  Mehnatsiz non zahar.

- Yoshlikdagi mehnat qarilikda davlat keltirar.
- Hunarli er xor bo‘lmas,
  Do‘st-dushmanga zor bo‘lmas.
- Baxil topsa, bosib yer,
  Saxiy topsa, barcha yer.



1. Har bir maqolning ma’nosini o‘z so‘zlaringiz bilan izohlang.
2. O‘zingizga yoqqan maqollarni yod oling.
3. Maqollarning ertak, she’r, hikoyalardan farqini aniqlang.

TOPISHMOQLAR



- Katta chelak teshildi,
  Undan ko‘p suv to‘kildi.
- Bitta dara, ikki tog‘,
  Ichidagi saryog‘.
- Qat-qat qatlama,
  Aqling bo‘lsa, tashlama.
- Teg desam, tegmaydi,
  Tegma desam, tegadi.
- Qush emas, qanoti bor,
  Chiroyli savlati bor.
  Uchsa, lochin yetolmas,
  Tolmas zo‘r quvvati bor.



1. Topishmoqlarda narsalarning belgisi nima uchun yashirin beriladi?
2. Topishmoqlarga xos umumiy o‘xshashlik nimada deb o‘ylaysiz?



KUMUSH QISH

QISH TO‘ZG‘ITAR MOMIQ PAR

Qudrat Hikmat



Savab bulut to‘shagin
Qish to‘zg‘itar momiq par.
Yerga serbar oq namat
Yozilganday yaltirar.

Mahalla-ko‘y ko‘chada
Chuvurlashib qor kurar.
Esib sovuq izg‘irin:
– Tezroq yur! –
deb buyurar.


Pirpiratib ko‘zini
Avtobuslar o‘tadi.
Qahraton qish hovurni
Mo‘rkon kabi yutadi.

Qorga deyman: – Namuncha
Zeriktirding uchqunlab?
Yog‘masding-ku ilgari
Surunkasi uch kunlab.

Tomlar kiydi oq qalpoq,
Hovlilarda sen tepa.
Osmon elak, nazdimda,
Shahrimizga un separ.

Yetar shuncha yog‘ganing,
Uzoq dala, qirga bor!
Ular seni kutmoqda,
Har zarrangga bo‘lib zor.

Vodiylarga fayz berib,
Gullat bog‘-u rog‘ini.
O‘ra kumush choyshabga
O‘lkamning har yog‘ini.



1. She’rda qor yog‘ishi, tomlarning qor bilan qoplanishi nimalarga o‘xshatiladi? Misollar keltirib so‘zlang.
2. «Mo‘rkon», «serbar», «fayz», «surunkasi» so‘zlarining ma’nosini izohlang.

RANGIN QORLAR

Olloyor

Qadim-qadim zamonda qish paytlari rang-barang qorlar yog‘ar ekan. Ular ba’zan alohida-alohida, ya’ni bir ko‘chaga sariq, boshqa mahallaga yashil, yana bir boshqasiga pushti ranglarda yog‘sa, ba’zan bir joyning o‘ziga yetti-sakkiz xili yog‘ib, juda g‘aroyib rang bo‘lar ekan. Ayoz esa deraza oynalariga rangin naqshlar chizarkan. Shunday qilib, o‘sha davrlar ham suvday oqib o‘tib ketibdi. Keyin-keyin faqat oq qorlar yog‘adigan bo‘libdi.

Odamlar ham oq qorlarga o‘rganib ketishibdi. Ularga qorning oqligi yillar osha tabiiy tuyula boshlabdi. Endi ular biror narsaning oqligini ta’riflaydigan bo‘lishsa, «qorday oppoq» deb gapirishar ekan.

Nega qorlar faqat oq rangda yog‘adigan bo‘lib qoldi? Buning boisini bilish uchun o‘sha qadim zamonlar haqidagi ertakka quloq solish kerak. Bu ertakda bir necha ming yilda bir marta bo‘ladigan bo‘yoq bozori to‘g‘risida so‘z boradi.

Buyuk bo‘yoqchi qirqta qirq quloqli qozonda bo‘yoq pishirib xaridor kutib, yo‘l kuzatayotgan mahali olisdan bir qora ko‘rinibdi. Agar qo‘lni peshanaga soyabon qilib, yo‘l qaralsa, ushbu yo‘lovchi Bahor ekanligini bilish mumkin ekan. U tobora shitob bilan yaqinlashib, uning libosi-yu qiyofasi tiniq ko‘rina boshlabdi. U juda chiroyli qiz ekan: sochlarida kurtak va g‘unchalar bo‘rtib turganmish; ko‘ylagining etaklariga binafshalar qadalgan; moychechaklar chambari kiydirilgan boshi uzra qaldirg‘ochlar charx urib, yelkasiga qo‘ngan sa’va-yu qumrilar chax-chaxlab kelayotir.



Bahor bozorga yetib kelgach, Buyuk bo‘yoqchiga ta’zim bajo qilibdi. Buyuk bo‘yoqchi xaridorlarining birinchisini bug‘lanib turgan qirq quloqli qozonlar sari boshlabdi.

– Bahorjon, mana, bu bo‘yoqlardan keragicha ol! – debdi u.

Bahor esa eng avval yashil bo‘yoq qaynayotgan qozon yoniga boribdi. Bahor uchun yashil bo‘yoq juda zarur ekan.

Bahor bo‘yoq bozoridan ko‘ngli to‘lib chiqib ketibdi.

Yoz har mahalgidek mudrab qolgan ekan. Bahor o‘z aravasida xarid qilgan bo‘yoqlarini ortib, momaqaldiroqlarni gumburlatib, chaqinlar chaqnatib o‘tgan maha-

li Yoz uyqudan uyg‘onib ketibdi-da, erta-indin dalalarda arpa-bug‘doylar bo‘y berib, bog‘larda olma-o‘riklar ta’m yig‘ib olishini, ular o‘zining bo‘yoqlar keltirishini kutib, unga muntazir bo‘lib turishini o‘ylab, bozorga otlanibdi. Buyuk bo‘yoqchi uni ham rozi qilib jo‘natibdi.

Bo‘yoq bozoriga Kuz kelgan payt ko‘plab qozonlar bo‘shab qolgan ekan. Qozonlardan faqat ikkitasi – za’far va zarg‘aldoq bo‘yoq qaynayotgan qozonlarda hali ancha bo‘yoq bor ekan. Qolganlarida bo‘yoqlarning yuqigina bor ekan, xolos. Kuz o‘z tegishi – za’far rangli bo‘yoqning hammasini olibdi. Qolgan bo‘yoqlarning yuqini ham qozonlardan qirib olgach, oq bo‘yoqdan ham oz-moz idishga solib olibdi. Uning ham tashvishi o‘ziga yarasha ekan. Bog‘-rog‘lar, o‘rmon va yaylovlardagi bahorning yashil bo‘yoqlarini o‘chirib chiqib, ularni za’far, pushti, zarg‘aldoq ranglarga bo‘yab chiqishi kerak ekan.

Buyuk bo‘yoqchi bo‘shagan qozonlarini yuvib, ularni yig‘ishtirayotgan paytda so‘nggi xaridor – Qish yetib kelib qarasa, ahvol chatoq. Unga faqat oq bo‘yoq qolibdi.

Bo‘yoqchi yangi bo‘yoqlarni tayyorlaguncha, minglab yil kutish kerak ekan. Qish oq bo‘yoqni olib yo‘lga tushar ekan, qolgan fasllardan xafa bo‘lib ketibdi. O‘sha kundan boshlab Kuz va Bahorning, ilojini topsa, Yozning ham bo‘yoqlariga zarar keltirish payida bo‘larkan. Ayni o‘riklar gullab turgan paytda, paxta chaman-chaman ochilib, bog‘larda tilladay uzumlar ayni yetilgan kuz kunlarida Qish qahrini sochib qolarkan. Ba’zan esa Yozning saratoniga ham o‘z qori, sovug‘i bilan suqilib kirarkan.

Odamlar Qish o‘z qilmishidan ko‘p ham o‘kinmasligi, kelgusi safar bo‘yoq bozoriga o‘z vaqtida borishi uchun yangi yil bayramlarida archa shoxlariga turli rangdagi o‘yinchoqlar, qo‘g‘irchoqlar, shokilalar osishni odat qilishibdi.



1. Ertak mazmunini qisqartirib hikoya qiling.
2. Bahorning yashil rang tanlashining sababini izohlang.





QISH

Tursunboy Adashboyev

Qish ayozi tobida,
Qor erinmay bo‘ralar.
Shox-shabba orasidan
Ovchi sergak mo‘ralar.

Ayiq g‘orga yo‘l olar
Piymasini ivitgan.
Quyon po‘stin tikibdi
O‘ziga oq tivitdan.

Eman bargi tovusning
Quyrug‘iday serhasham.
Kiyik yurgan so‘qmoqlar
Qirda yo‘l-yo‘l beqasam.

Yashil taroq archalar
Keng yozib qulochini
Erinmasdan shamolning
Tarar paxmoq sochini...



1. She’rdagi qish tasvirini ifodalovchi misralarning mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan gapirib bering.
2. She’r mazmunini Qudrat Hikmatning «Qish to‘zg‘itar momiq par» she’ri bilan taqqoslang.





QOR ODAMNING SOVG‘ASI

Oqiljon Husanov

Hamma bolalarning eslarida bor: bundan uch yil avval qish juda qattiq keldi. Ariqlarda suvlar muzladi,

yerlar tosh-metinga aylandi. Hadeb qor yog‘averganidan kamqatnov yo‘llarda yurish qiyinlashib qoldi.

Bir kuni dadam nonushta paytida akamga:

– O‘tkirvoy! – dedilar. – Bugun yakshanba, dam olish kuni. Maktabga bormaysan. Eshakni aravaga qo‘shgin-da, bironta o‘rtog‘ingni yoningga olib, chaylaga borib kelgin. Avval aravaga makka poyasini ortinglar. Ustiga ketganicha yantoq bosinglar – qo‘y bilan sigirga yemish bo‘ladi.

Akam «xo‘p» dedilar. Dadam birozdan keyin:

– Sherik topolmasang, yakka o‘zing borma. Ukang Kamolni yoningga olvolarsan, – dedilar.

Men sevinib ketib, dalaga ketayotganimizni aytish uchun Alisherlarnikiga chiqdim. «Akang «xo‘p» desalar, men ham borardim», – dedi u. Akamdan so‘ragan edim, aftimga qarab turdi-da:

– Agar injiqlik qilmaydigan bo‘lsa, mayli, men boshqa hech kimni chaqirmay qo‘ya qolaman, – dedi.



Shunday qilib, Alisher ikkimiz aravaning oldiga o‘tirib oldik. Akam eshakka mindi. Uchovimizning ham boshimizda quloqchin, oyog‘imizda ichi jun botinka, ustimizda palto...

Akam chayla yoniga yetganimizda aravani to‘xtatib, eshak ustidan pastga irg‘idi. Biz ham birin-ketin yerga tushdik.

Uchovimiz ichkariga mo‘raladik. Chaylaning ichi o‘tin-cho‘pga, yem-xashakka to‘la edi. Akam makkapoyalarni o‘roq bilan qo‘zg‘ayotganida chaylaning ichi changib ketdi.

– Tashqariga chiqib turinglar, – dedi akam bizga qarab. – Eshakdan ham xabardor bo‘linglar, aravani olib ketib qolmasin.

Chaylaning orqasiga o‘tdik.

– Alisher, qor odam yasaymizmi? – dedim men.

– Bo‘pti. Yur! Qayerda yasaymiz? – dedi Alisher.

– Huv, ana u yerda.

Ikkovimiz aravadan tushib, ariqning narigi tomoniga sakrab o‘tdik-da, ishga kirishdik. Qor odamni beligacha yasadik. Biroq yuqorisini ko‘tarishda ancha qiynaldik.

Qorimiz ilashmay to‘kilib ketaverdi.

– Ichiga bironta cho‘p tiqmasak bo‘lmaydi, – taklif qildi Alisher.

Boya yo‘lda kelayotganimizda arava ustida ko‘rgan kosovni olib keldim. Kosovni yerga qoqish uchun chaylaning ichidan guvala topib chiqdim. Kosovning kuygan tarafini yuqoriga qilib yerga qoqa boshladik. Yer ajriqzor bo‘lsa ham qattiq ekan. Kosovning uchi yerga ozgina kirar-kirmas guvala ikkiga bo‘lindi. Yaxshi bo‘ldi dedik-da, guvalani kosovning ikki tomoniga tirab qo‘ydik. So‘ngra qaytadan qor yig‘ishga tushdik...

Qor odamimiz binoyidek chiqdi. Og‘zini kattaroq qilib yuboribmiz. Iljayganga o‘xshab qolibdi.

– Mayli, iljaysa yomonmi? – dedi Alisher. – Ko‘rgan odam hazilkash ekan, deydi-da...

Akam bizni chaqirib qoldi. Aylanib chayla oldiga borsak, bir o‘zi makkapoyani aravaga ortib bo‘libdi.

– Endi uchovimiz ham piyoda yuramiz, – dedi akam.

Biz «xo‘p» dedik. Akam eshakni yetakladi. Chaylaning orqasidan o‘tayotganimizda arava to‘xtadi. Biz hayron bo‘ldik.

– Anovi qor odamni sizlar yasadilaringmi? – deb so‘radi akam biz tomonga qarab. Biz «ha» degandek boshimizni qimirlatdik.

– Obbo azamatlar-ey, rosa boplabsizlar-ku.

Biz yo‘l-yo‘lakay qor odamni qanday yasaganimizni akamga aytib berdik.

Akam o‘sha yili bahorda armiyaga ketdi. Biz ham ikki yilgacha chaylaga ko‘chib chiqmadik.

Akam harbiy xizmatdan qaytgach, dadam dala-dagi brigadaga o‘tdilar. Biz yana chaylamizga ko‘chib chiqdik.

Qovun-tarvuzlarimiz yaxshi bo‘ldi, handalaklar pishib katta qovunlar to‘rlagan paytda dalalar shunaqayam chiroyli bo‘ldiki... O‘sha kunlari akamning tug‘ilgan kun-larini o‘tkazdik.

Bir mahal akam dadamga qarab:

– Bu tol ilgari yo‘q edi-ku, qachon ekkansiz, dada? – deb so‘radi.

– Men ham hayronman, – dedilar dadam. – Ilgari yo‘q edi.

Akam shu payt o‘rnidan turib tol poyasining yuqori tomoniga tikildi. Menga qarab bir kulib qo‘ydi-da, da-damga gapirdi:

– Buni Kamoljon bilan Alisher ekkan, bu tol o‘sha kosovdan unib chiqqan, – dedi akam. – Buni qor odamning bizlarga qoldirgan sovg‘asi, desak ham bo‘ladi...



1. Hikoyaning «Qor odamning sovg‘asi» deb nomlanishini izohlang.
2. «Qor odam» bolalarga qanday sovg‘a qoldirdi?





KITOBGA IXLOS

Mirkarim Osim

I

Muntazam qo‘shindan ajrab, zaiflashib qolgan Buxoro son-sanoqsiz ko‘chmanchilar tomonidan bosib olindi.

Qorabug‘roxon shaharni ishg‘ol qilib, saroydagi boyliklarni qo‘lga kiritdi, o‘z askarlariga bozorni talatdi; ko‘p imoratlarga o‘t tushib ketdi, achchiq tutun shaharni o‘rab oldi. O‘z mol-dunyosini saqlab qolmoqchi bo‘lganda qilich yeb yiqilgan kishilarning faryodi, asir qilib olib ketilayotgan ayollarning oh-u nolasi, quturgan dushman askarlarining suroni quloqlarni qomatga keltiradi. Uch oy ahvol shu zaylda davom etdi.

Ibn Sino esa alamini kitobdan olar, yarim tungacha o‘tirib mutolaa qilar, yozar edi. Bir kuni kechasi uyqusi kelib, ko‘ziga qum tiqila boshlaganda, uyqu qochiradigan dorisini ichib, hovliga tushdi. Odati bo‘yicha osmonga qarab, Hulkar yulduzi qayerga kelganini bilmoqchi bo‘ldi. Shu payt Registon tomon qizarib, osmonga uchqunlar sachrab turganini sezdi. O‘qtin-o‘qtin olovning qip-qizil tillari qorong‘i osmonni yalar, uzoqdan qiy-chuv ovozlar eshitilardi. Yosh hakimning yuragi bir falokatni sezgandek dukullab urib ketdi. Darrov kavush-mahsisini, choponini kiyib, onasini uyg‘otdi.

– Onajon, Registon maydoni yaqinida bir uyga o‘t ketganga o‘xshaydur, borib bilib kelay, qo‘limdan kelgancha o‘t o‘chirishga yordam beray.

– E, qo‘ysang-chi, o‘g‘lim. Sensiz ham o‘t o‘chiruvchilar topilib qolar.

– Yo‘q, onajon, bormasam bo‘lmaydur. – Yosh yigit ko‘ngliga kelgan shubhani onasiga aytishdan ham qo‘rqardi. «Bordi-yu, agar... yo‘q, yo‘q, bu mumkin emas. Necha yuz yillab to‘plangan ilm-fan xazinasining kuli ko‘kka sovurilishi mumkin emas».

Sitorabonu uning aftiga qarab ijozat bermaslikning iloji yo‘qligini angladi.

– Mayli, borsang boraqol, ammo kechikma...

Ibn Sino halloslab Registon maydoniga kelganda, ko‘nglini ezayotgan shubha haqiqat bo‘lib chiqqanini angladi. Yuzlab kishilar qo‘lma-qo‘l chelak uzatib, maydon o‘rtasidagi hovuzdan suv bilan kitobxonaga tushgan o‘tni o‘chirishga urinar edilar. Madrasa talabalarining, tevarak-atrofdagi mahalla ahlining jonbozligiga qaramay, yong‘in borgan sari kuchayar, qimmatli kitoblarni ajdarhodek yutayotgan alanga quturib, hujra eshigidan tutun aralash chiqib turar edi.



Chelaklab sepilgan suv unga kor qilmas, aksincha, moydek ta’sir qilayotgandek edi.

Ibn Sino boshida chelaklab suv tashib o‘t o‘chirayotganlarga qarashib turdi. Keyin ko‘pchilikning hafsalasi pir bo‘lganini ko‘rib, g‘azabiga chidolmay, olov chiqib turgan bir hujraga o‘zini urdi. Bunda tibga doir kitoblar saqlanardi.

Odamlar uni tutib qololmadilar. Bir necha daqiqadan keyin etagining yonayotganiga ham parvo qilmay, bir necha kitobni quchoqlab chiqdi...

– Bu qanday falokat, qanday mudhish falokat! – dedi ibn Sino yig‘lamoqdan beri bo‘lib.

Chol xo‘rsinib qo‘ydi:

– Ha, baxtsizlik, ammo bilib qo‘yingki, dunyoviy ilm dushmanlari ma’rifat chirog‘ini o‘chirolmaydilar.

Shuncha urinib yong‘inni so‘ndira olmagan odamlar birin-ketin uy-uylariga tarqalishdi.

Ibn Sino xuddi yaqin bir kishisini ko‘mib, qabristondan qaytgan kishidek boshini quyi solib, yarim-yorti kuygan bir necha kitobni qo‘ltiqlagan holda uyiga jo‘nadi...



Matn mazmunini qisqartirib hikoya qiling.



II

Oradan ikki oycha vaqt o‘tdi. Shu vaqtgacha o‘zini qo‘yarga joy topolmay yurgan ibn Sino bir kuni uyiga xursand bo‘lib keldi.

– Suyunchi bering, onajon. Qorabug‘roxon qo‘shini Buxoroni tashlab chiqib ketmoqda. Qo‘liga yarog‘ olgan Buxoro xalqi turkmanlar bilan birgalikda ularni haydab chiqarmoqda. Talab olingan mollarni qaytarib olmoqda.

Karmana tomon chekinayotgan istilochilarning orqada qolgan qismi bilan buxoroliklar o‘rtasida bo‘layotgan jangning suroni uzoqdan sal-pal eshitilib turardi. Sitorabonuning rangi o‘chib:

– Oxiri baxayr bo‘lsin, – deb qo‘ydi.

Buxoro ko‘chmanchilar qo‘liga o‘tgandan keyin ilm-fan ahllari quvg‘in ostiga tushdi. Ibn Sino qora quzg‘unlar uyasiga aylangan shaharni tark etib, o‘ziga ma’rifatparvar bir hokim, homiy izlash to‘g‘risida o‘ylay boshladi. Lekin uning otasi vafot etib, onasi beva qolgan, uni tashlab ketishga ko‘zi qiymas edi. Sochlariga oq oralab, ko‘zlari atrofini ajin bosgan Sitorabonu o‘g‘lining qanday ahvolga tushib qolganini, nima uchun peshanasini tirishtirib yurganini yaxshi bilar edi. Bir kun kechki ovqatdan keyin sharbat ichib dam olib o‘tirganlarida, rangi biroz siniqqan Husaynga qarab:

– O‘g‘lim, nima to‘g‘risida bosh qotirayotganingni bilib turibman, – dedi xo‘rsinib. – O‘z shahring o‘zingga torlik qilib qoldi. Xorazmlik qo‘shnimiz Abu Bakr bobo xotiniga: «Husayn zudlik bilan Buxorodan chiqib ketsin, chiqib ayt», – debdur. Shu gapni eshitdim-u, kechasi bilan uxlay olmay chiqdim. Abu Bakr Barakiy o‘qimishli odam, bir narsani bilmay gapirmaydur. Jon bolam, boshim omon bo‘lsin desang, shahardan chiqib ket, o‘zingga tinchgina bir joy top. Menga xat yozib tursang, shuning o‘zi kifoya, eson-omon yurganingni bilib tinchgina umr kechiraman.

Onasining gapi qay tomonga og‘ishini bilmay turgan tarozining bir pallasiga qo‘yilgan toshdek ta’sir ko‘rsatdi.

Husayn qat’iy qarorga kelib, qaddini ko‘tardi-da:

– Mayli, sizning aytganingiz bo‘lsin. Bu yerda qolsam, bir kun meni chaqirib oyog‘imga bolta uradurlar. Men erkin o‘ylab, erkin yashashga o‘rganib qolganman. Menga oq fotiha bering, safar otini egarlab yo‘lga chiqay. Siz ham tinch bo‘ling, men ham.

– Qayerga borsang ham, Olloh seni o‘z panohida asrasin, ishlaringga rivoj berib, falokatlardan asrasin...

Ibn Sino orqasiga qarashdan qo‘rqib darvozadan chiqdi-da, Gurganj tomon yo‘l oldi.



1. Ibn Sino nima uchun Buxoroni tashlab ketishga majbur bo‘ldi?
2. Sitorabonu xayrlashuv chog‘ida o‘g‘liga nimalarni tayinladi?





PAHLAVON VA SHOIR

Hamidjon Hamidov

Mahmudning Dehliga safari hind xalqining milliy bayramiga to‘g‘ri kelibdi. Odatda, bunday ayyomlarda xalq sayillari, har xil tomoshalar, musobaqalar uyushtirilar ekan.

Mahmudning shahar chetidagi saroylardan biriga tushganini eshitgan sulton uni ertangi kurashda ishtirok etishi va yosh saroy pahlavoni bilan bellashishini so‘rab, odam yuboribdi.

Mahmud yosh bahodirning izzat-nafsiga shikast yetkazishni o‘ziga ep ko‘rmay, bu iltifotni rad etibdi. O‘z marhamati qabul qilinmaganini eshitgan sulton g‘azab otiga minibdi.

Mulozimlar bu xabarni Mahmudga yetkazib, kurashda ishtirok etishini o‘tinib so‘rabdilar. U rozilik bildiribdi.

Odatda, bunday musobaqalardan oldin Mahmud ulug‘larning qadamjolarini ziyorat qilar ekan. O‘sha kecha ham shahardagi qabristonni ziyorat qilib yursa, bir ayol erining qabrini quchoqlab:

«Ey xudo, ikki bolam va erimni olding, ertangi kun maydonda yolg‘iz o‘g‘limning qo‘lini baland qilgin», –

deb nola chekayotgan ekan. Mahmud bu xotin sulton saroyidagi pahlavonning onasi ekanligini sezibdi.

Ertasi kuni kurash maydonida Mahmud o‘zini juda zaif va lapashang qilib ko‘rsatibdi. Yosh bahodir ikki-uch davradan keyinoq Mahmudni chirpirak qilib ko‘tarib uribdi. Sulton bu g‘alaba sharafiga katta ziyofat beribdi. Tantanalardan so‘ng hokim boshchiligida arkoni davlat: barcha xizmatkorlar, mehmonlar fillarga minib o‘rmonga – ovga jo‘nashibdi.

Changalzorlar orasidan ketayotganda bexosdan sulton taxtiravoni o‘rnatilgan fil botqoqqa botib qolibdi, ko‘p urinishibdi, filni loydan chiqaza olishmabdi. Shunda Mahmud xizmatkorlarga filning oldingi oyoqlari orasini kovlab bo‘shatishni buyuribdi. Shunday qilishibdi.

Bo‘shliqqa katta bir kundani tashlabdilar. Mahmud ana shu kunda ustiga tushib, fil oyoqlari orasiga yelkasini qo‘yib, bir zo‘r bilan ikki oyog‘ini botqoqdan bo‘shatibdi, fil o‘zini o‘nglab, halokatdan qutulibdi.

Hamma mehmonning qudratiga ofarinlar aytibdi. Ovdan so‘ng yana ziyofat boshlanibdi. Gap orasida sulton Mahmuddan:



– Kecha maydondagi zaifligingiz bilan bugungi jasoratingizni qanday tushunsa bo‘ladi? – deb so‘rabdi.

– Ey, oliyhimmat sulton! Bu yigit – bir bevaning yagona farzandi, istiqboli porloq pahlavon, lekin hali tajribasiz. Men u bilan olishib, mayib qilib, umriga zomin

bo‘lishni istamadim. Ammo siz g‘azablanganingizdan so‘ng kurash tushishga rozilik bergandim, – debdi u.

– Tilang tilagingizni, nima istasangiz, muhayyo qilaman, – debdi sulton.

– Menga hech narsa kerak emas. Sizning zindoningizda 200 dan ortiq yurtdoshlarim asir ekan, o‘shalarni ozod qilsangiz, Vatanimga birga olib ketsam, bas, – debdi Mahmud.

Sulton bahodirga ot-ulov, sarpolar beribdi va asirlarni hibsdan bo‘shatibdi. Mahmud vatandoshlari bilan Xorazmga qarab yo‘l olibdi.



1. Pahlavon Mahmud nima uchun yosh bahodir bilan kurash tushishni xohlamaydi?
2. Pahlavon Mahmudning kurashda yosh bahodirdan yengilish sababi nimada deb o‘ylaysiz?





ALISHERNING YOSHLIGI

Oybek

I

Alisher katta bog‘ hovlining har bir burchagini tomosha qilib uzoq yurdi. Daraxtlarning novdalariga osilgan rangdor qafaslardagi to‘ti, bulbul, maynalarni maroq ila tomosha qildi. Ularning qafas ichra tinimsiz sakrashlarini, sayrashlarini uzoq kuzatdi. Qushlarga qarab yuradigan maxsus xizmatkorga ergashib, unga bitmas-tuganmas savollar berdi.

Bir payt qarshisida yetti yoshlardagi shahzoda Husayn paydo bo‘ldi. Uning boshida kichkina ipak salla, ustida yangi baxmal to‘n, oyoqlarida zarhal etik, kamariga oltin sopli kichik xanjar suqilgan. Husayn osmonga sapchishga tayyor, olovday shijoatli bola edi.

– Qullar, kanizlar oyog‘iga o‘ralib ne qilib yursen? – deb so‘radi qah-qahlab Husayn.

– Qushlarni sayr eturmen, bir-biridan ko‘rkam... – deb javob berdi Alisher...

Shahzoda Husayn va Alisher ko‘chaga otildilar. Katta maydonda yigitlar o‘q uzish mashqi ila mashg‘ul edilar. Beklar, mirshablar ko‘p edi. Bolalar qiziqib tomosha qildilar. Bir tomonda ikki fil lopillab, qaydandir katta-katta xarilarni tashib kelardi.

Fillar ustida o‘ltirgan bo‘z yaktakli ikki oriq chol o‘zaro tinmay gaplashib, ba’zan kulib qo‘yar edi. Sovut kiygan, ot mingan yigitlar bir qo‘llarida yoy, bir qo‘llari bilan o‘q uzardilar. Ular bir marraga yetganda darhol qilich-qalqon tutib qilichbozlikka kirishar, shovqin-suron ko‘tarar, chuvvos-hayqiriq bilan maydon o‘rtasida yig‘ilib qolar edilar. Maydon chetida bir to‘da beklar «Yaxshi-yaxshi!», «Balli!», «Durust!», «Ofarin!» deb ularni rag‘batlantirib turardilar.

– Jasur yigitlar-a! – dedi Husayn kattalardek salmoqlanib, – Xudo xohlasa, men qilichboz bo‘lurmen, ko‘zimga ko‘ringan yovning kallasini sapchadek uzurmen.

Alisher indamadi. U maydonda chopib yurgan otlarning qaysi biri suluv, qaysi biri chopqirroq, degan xayol bilan band edi.

– Qara, kabutarlar raqsini ko‘r! – Alisherning yengini tortdi osmonga qarab Husayn...

– Kabutarlar farishtalarga o‘xshaydi-ya! – dedi o‘ylanib Alisher.

– Men xo‘b sevadurmen kabutarlarni, tomoshadan charchashni bilmaydurmen, ishqim baland...

Shu tobda Husayn oldida beo‘xshov o‘ralgan katta sallali, ko‘zlari hiylakor, o‘ttizlardan oshgan bir yigit, qo‘llari ko‘ksida, ta’zim ila to‘xtadi:

– Shahzoda, kech bo‘ldi, ruxsat bersalar, ketaylik.

– Shahzoda, xayr, yaxshi borsinlar, – dedi Alisher ham hayajonda. Alisher asta yurib, ichkariga kirdi. Bazm avjida edi.

Mehmonlar oldiga yoyilgan dasturxonda qalashtirib tashlangan taomlar, rango-rang mevalar, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib uchib yurgan kanizaklar toboqlarda yangi-yangi taomlar tortib, guloblar tashirdilar. Alisherning onasi shivirlab:



– O‘tira qol, shovqin qilma, – deb o‘g‘lining oldiga u-bu taomlardan surib qo‘ydi. Musiqa tinmasdi, bir to‘da cholg‘uchilar xonaning bir chetida o‘tirib, tanbur, dutor, ruboblarni nihoyatda mohirlik bilan chertar edilar...

Ko‘ngli shirin mavjlarga to‘lib, xayolchan o‘ltirgan Alisher onasining tizzasini sekin turtdi:

– Musiqa sehrli-ya, o‘yinlarni qarang, menga yoqadur...

Gulbegim kulimsiragan holda mamnun shivirladi:

– Tingla!

Bazm oqshomga qadar davom etdi. Keyin malika boshliq mehmonlar hovliga chiqib bazmni tag‘in qizitdilar.

– Yur, o‘g‘lim, ketaylik, – dedi Gulbegim past tovush bilan va Alisherning qo‘lidan ushladi.

Ular qasrdan chiqqanda G‘iyosiddin Kichkina bog‘da bir bek bilan oyoq ustida turib suhbat qurar edi. Alisher sevinib, otasi oldiga yugurdi...

Alisher cho‘zilib otasining bo‘ynidan quchib o‘pdi-da, chetda turgan onasi oldiga yugurdi, birga ko‘chaga chiqib ketdilar.

– O‘g‘il chakki emas, tiyrak, begona ko‘zdan asrasin! – dedi zimdan bolani ta’qib qilib turgan bek.

G‘iyosiddin Kichkina kamtarona ohangda:

– Ilohim, mulla bo‘lsin, zehni yaxshi, – dedi. So‘ng o‘zi ham ichida: «Ha, Tangrim yomon ko‘zdan asrasin», – deb qo‘ydi.



1. Alisher bilan Husayn bog‘da nimalarni tomosha qilishdi?
2. Ularning suhbatiga qarab har ikkisining nimaga qiziqishini ayting.



II

Alisher o‘zi tengi ikki qo‘shni bola bilan hovlida soqqa o‘ynardi. Bolalarning ustida malla yoqa bo‘z ko‘ylak, boshlarida kir oq takya, oyoqlari yalang. Alisher ham xiyla uringan, eskirgan etiklarini yechib, devor tagiga tashlagan edi. Soqqalarni uzoqqa uloqtirib, keyin halloslab yugurdilar. Alisher harakatchan, yugurik, soqqa ortidan chopganida o‘rtoqlaridan qolishmaydi.

O‘yindan zerikkach, soqqalarni yig‘ishtirib, devor soyasida bir lahza cho‘qqayib o‘tirdilar. Shu tobda daraxtlar orasidan otilib chiqqan kiyik Alisherni hidladi, erkalanib surkaldi. Alisher kiyikning bo‘ynidan quchib, boshini silab ulgurmagan ediki, jonivor bir zumda yo‘q bo‘ldi.

– Seni tanir ekan, qurmagur, xo‘b o‘rgatibsan o‘zingga, – dedi bolalardan biri.

– Rost, qoyilman! – deya ma’qulladi zavq bilan ikkinchi bola. – Hozir oldingda turgan kiyik otilgan o‘qdek uchdi-ketdi, zap ziyrak, chopqir bo‘ladi-da.

Alisher kulimsirab, kiyikning xulqi, qiliqlari haqida jiddiy so‘zlay boshladi:

– Tog‘am, ermak bo‘lsin, deb dashtdan olib kelgan edilar. U kishi usta merganlar. Hayvonlarning, ayniqsa, kiyiklarning xulq-atvori, qiliqlari haqida maroq bilan hikoya boshlasalar, kulli jahonni unutib yuboray deyman.

To‘satdan yana paydo bo‘lgan kiyik halloslagancha Alisherning pinjiga bosh suqdi. Sevinib ketgan Alisher:

– Mu-mu, birpasgina jim tur, – dedi kiyikni erkalab. Nariroqdagi oppoq tovuqlarga ko‘zi tushgan kiyik: «Bular kim bo‘ldi?» degandek, qop-qora ko‘zlarini yanada kattaroq ochdi, bir zum taajjubda tikilib boqdi-da, keyin bir sakrab hovlining qaysi tomonigadir g‘oyib bo‘ldi.

– Pok, ozoda, ajoyib suluv jonivor, – dedi zavq bilan tomosha qilgan bola.

– Katta bo‘lganimda ovchi bo‘lgumdir, tog‘larda merganlik qilishning kayfi zo‘r, – dedi kiyik ketgan tomonga tikilganicha ikkinchi bola.

– Bizning vatanimiz Hirot o‘lkasi jannatmakon desak lof bo‘lmas, do‘stlarim, – dedi Alisher cho‘p bilan yerga nelardir chizgan holda, boshini ko‘tarmasdan. – Meningcha, bo‘ri, yo‘lbars yanglig‘ vahshiy hayvonlarni ov qilmoq ma’qul. Kiyikday beozor maxluq, fahmimcha, dunyoda kamdur deyman.

– Qiyofasining suluvligini qaranglar! Go‘shti ham lazzatlidir-a? – dedi qoracha bola, soqqalarini sanay turib. Shirin xayollar zanjirini uzgisi kelmagandek, sukutda

o‘ltirgan Alisher o‘rtog‘ining aytganini eshitmadi shekilli:
– Ov qilmoq, merganlik – ermak narsa, lekin eng zo‘r zaruriyat maktabdir. Turmushning ko‘p sirlarini maktab o‘rgatadi.

Suhbatning bunday keskin o‘zgarganidan shoshib, bir on jim qolgan bolalarning kattarog‘i:

– Kim o‘rgatdi senga bu gaplarni? – deb so‘radi Alisherga tik qarab.

– Bilaman-da, otam hamisha: «Olim odam xor bo‘lmaydi», – deydilar. Otamning oldiga olim odamlar ko‘p keladi, turli gap-so‘z, ajoyib g‘azallarni bir chetda o‘ltirib tinglaymen, o‘zim ham xiylagina g‘azallarni yod bilurmen...

Alisher yaqinda maktabga borajagini, otasi ko‘pdan va’da qilib yurganini aytmoqchi edi, lekin aytmadi.



1. Alisher o‘rtoqlari bilan nima haqda suhbatlashdi?
2. O‘zingiz hikoya bo‘limlariga mos sarlavha toping.





SHUM BOLA

G‘afur G‘ulom

...Domlaga ergashib, hovlisiga bordim. Domla ikkita qo‘rga ko‘milgan jo‘xori bilan bitta sopol tovoqda moshxo‘rda chiqarib berdi. Bu lazzatli taomni huzur qilib ichib oldim.

Domla ichkariga kirib ketdi-da, birozdan keyin qo‘lida bitta katta pichoq, bir bolta va biroz chiyratma arqon bilan to‘ppa-to‘g‘ri mening oldimga keldi. Men bo‘lsam, domlaning nima niyatda ekanligini tushunmasdan, hurkovuch kiyikdek oyog‘imni bir yerga g‘uj qilib, qochishga hozirlangan, og‘zimni bo‘lsa dodlashga juftlagan edim.

Domla mening harakatimdan bir narsa sezdimi, haytovur, kulimsirab, meni yupatib dedi: – Qo‘rqma, seni so‘ymayman, men yomon emasman. Senga bir xizmat bor, o‘g‘lim, bir poy ho‘kizim bir necha kundan buyon bo‘kib, novqoslanib yotibdi. Mana shu asboblarni boshingga qo‘yib hushyorroq yotasan, mabodo, ho‘kiz yomonlab qolguday bo‘lsa, borib darrov bo‘g‘ziga pichoq tortib yuborasan-da, meni chaqirasan. Ehtiyot bo‘l, tag‘in uxlab qolib, harom o‘ldirib qo‘yma.



– Xo‘p, taqsir, – dedim. – Choy-poy yo‘qmi?

– Nima-nima, nimchorak choy bir miri-ku, sen choy ichasanmi, suv ariqda oqib yotibdi, erinsang, ana obdastada ham bor, ichaver...

Domla buyurgan ishning oson ko‘chganligini bilib sevindim, domla ichkariga kirib ketdi. Domla chiqarib bergan ko‘rpachaga cho‘zildim. Allavaqtlargacha ko‘kka qarab, termilib yotdim. Qo‘rg‘onchaning atrofida har bir qoraygan ko‘lanka vahima solib, meni qo‘rqitar edi. Uxlay olmadim.

Yarim kechadan og‘ib, tong yaqinlashib qolganda, ko‘zimni g‘ira-shira uyqu bosgan bo‘lsa

ham, xayolim uyg‘oq edi. Og‘ilxona tarafda bir nimaning «gurs» etib yerga yiqilib, xirillay boshlagani eshitildi.

«Obbo, harom o‘lgur, yomonlab qoldi-yov», deb o‘yladim-da, arqon bilan pichoq-boltani ko‘tarib, og‘ilxonaga qarab yugurdim. Qorong‘ida qandaydir bir hayvon yerda yotib, xirillamoqda edi. Tikka oldiga borib, devkor salloxlarday bo‘g‘ziga pichoq tortib yubordim. Qon demaganingiz tizillab otilib ketdi. Oyog‘imdan tortib basharamgacha qonga bo‘yaldim. Jon bermoqchi bo‘lgan hayvon eng so‘nggi nafasda ma’rab qolmoqchi bo‘ldimi, ichidan butun o‘pkaning siqilib yoyilishidan paydo bo‘lgan hansirash bilan katta hammomning dudbo‘roniday pishqirib yubordi.

Hayvon jon berib bo‘ldi. Garchand, domla: «Meni chaqir yoki hafsalang kelsa terisini shilib, nimta qilib qo‘ygin», degan bo‘lsa ham, qorong‘i bo‘lgani, ham bir chekkasi o‘zim charchaganim uchun... bu ishlarni erta tongga qoldirdim.

Katta bir tashvishdan qutulgan kishilarday osoyishtalik bilan tinchlanib, yana ko‘rpachaga cho‘zilib, uyquga ketdim.

Azonga yaqin shirin uyquda ekanman, och biqinimga tumshug‘i qayrilib ketgan baland poshnali sag‘ri kavushning bergan achchiq tepkisidan cho‘chib uyg‘ondim. Tepamda xalta ko‘ylakli... har bir ko‘zi g‘ayni olxo‘ridek qinidan chiqib ketgan domla pochcham turar edilar. Alanglab o‘rnimdan turishim bilan domlaning qo‘lidagi teskari ushlangan boltaning muhrasi yelkamga kelib tushdi. Alamlanib ketdim.

– Ha, taqsir, bir yetimni hadeb ura berishmi, xizmatga tuhmatmi, taqsir? – deb yig‘lab yubordim.

– Ha xizmating boshingni yesin! – dedi domla. – Eshakni so‘yib qo‘yibsan-ku, padar la’nat! Men bu eshakni Buxoroyi sharifdan uch tilloga olgan edim. O‘zi ham qanday eshak edi-ya, bay-bay eshagim...

Eshakka motamzada bo‘lgan domla meni hech imkon bermay savalar edi.

Ma’lum bo‘lishicha, men kechasi qorong‘ida yanglishib, kulga ag‘anab yotgan eshakni novvos ho‘kiz gumon qilib, bo‘g‘ziga pichoq tortib yuborgan ekanman. Ho‘kiz bo‘lsa allaqachon yomonlab harom qotgan ekan. Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to‘rt tomonga alanglab, o‘zimga bir najot yo‘li qidirar edim...

1. Domla yetim bolani ovqatlantirib, unga qanday ish topshirdi?
2. Domlaning bola bilan dastlabki va keyingi suhbatini taqqoslab o‘qing. U yetim bolaga qanday munosabatda bo‘ldi?

SHAHZODANING BOLALIGI

Erkin Samandar

Kuzbor Malik kelib malika Oychechak huzurida ehtirom ila bosh egdi.

– Yo‘qlagan ekansiz, malikam!

Oychechak unga yonidan joy ko‘rsatib, o‘tirishga imo qildi.

– Siz yaqinimsiz, Kuzbor og‘a, – dedi malika nigohini unga tikib, – shuning uchun sizga ishonaman.

– Malikam!

Malik uning qarshisida tiz cho‘kdi.

– Buyuring, ne yumush! Nima qilay? Qayga boray?

Oychechak qo‘li bilan o‘tiradigan joyni ko‘rsatdi.

– Og‘a, o‘tiring.

Kuzbor sadoqat to‘la nigohini unga tikib so‘z qotdi:

– Siz, buyuk Xorazmshoh rafiqasi, men qulingizman, xolos.

Oychechak minnatdorchilik bilan unga qarab, dedi:

– Sizga, og‘am, zarur yumushim bor. O‘g‘lim Jaloliddinni qo‘lingizga topshirmoqchiman. Uni tarbiya qiling. Toki u injiq-tantiq shahzoda emas, balki chinakam bahodir yigit bo‘lsin!

Oychechak oltin to‘la hamyonni unga uzatdi.

– Jaloliddinni o‘z otalig‘ingizga olib, yaxshi tarbiya berasiz.

Oychechak e’tirozga og‘iz juftlamoqchi bo‘lgan Kuzborga endi amr etdi:

– Uni ayamang. Bilgan narsangizni o‘rgating. Alp yigit bo‘lsin. Xudoga shukur, savodini chiqardi. Zehni o‘tkir. Ammo siz unga harbiy ilmni astoydil o‘rgating. Men sizni hozirgi xizmatingizdan ozod qildiraman. Vazifangiz faqat o‘g‘lim bilan shug‘ullanish! Bu faqat mening emas, balki Xorazmshohning ham amridir!

– Bosh ustiga, malikam!

Oychechak ko‘ziga to‘lgan yoshlarni ko‘rsatmaslikka harakat qildi.

– Uni yuzxotir qilmang. Jaloliddin – valiahd, ammo bugundan e’tiboran shogirdingiz, o‘quvchingiz.

Kuzbor ta’zim ila chiqib ketgach, Oychechak o‘zini yig‘idan to‘xtata olmadi. Ona uchun o‘g‘lining o‘zidan uzoqlashishi naqadar og‘ir edi.

Mamlakatning ko‘rkam viloyatlaridan birida Kuzbor Malik shahzoda uchun qarorgoh hozirladi. Bu yerda uning

asl zotli mingga yaqin yilqilari boqilar edi. U shahzodaga birinchi navbatda otda yurishni o‘rgatdi.

– Yilqilarning orqasidan borsangiz, tepadi, – dedi Kuzbor, – oldindan borsangiz, tishlaydi. Bunday otni yonboshidan borib, chap tomondan bo‘lsa, chap qo‘l bilan, o‘ng tomondan bo‘lsa, o‘ng qo‘l bilan uning yo‘lidan tutib, tezlik bilan o‘zingizni ustiga oling. Otning yolini qo‘ldan chiqarmang. Agar yol qo‘ldan chiqsa, yerga qattiq yiqilishingiz mumkin. Oyoq ostida qolish xavfi bor. Otning ustida o‘rnashib olgandan keyin ikki tizzalab otni siqib turib, yolini qo‘yib yuboring. Ot minilmagan bo‘lsa ham, chopib-chopib o‘zi yuvoshlanib qoladi.

Ular har kuni ovga chiqishar edi. Jaloliddin ot choptirib yoydan otmoqni: o‘ngdan, so‘ldan, oldindan va orqadan mo‘ljalga urmoqni o‘rgandi.

Kuzbor Malik unga ikki qo‘lda qilich ishlatish va chavandozlik mahoratini namoyish qildi. Kuzbor tengi yo‘q chavandoz edi. U uch otni yondoshtirib, birinchisidan uchinchisiga, uchinchisidan birinchisiga, so‘ng ikkinchisiga epchillik bilan sapchib o‘ta olar, chopib borayotgan otda egarning ustidan uning yonboshiga egilib, ko‘zdan g‘oyib bo‘la olardi. Jaloliddin ham shunday mashqlar qila boshladi.

Kuzbor jang-jadallar ko‘rgan bo‘lib, Jaloliddin uning hikoyalarini zavq bilan tinglar, ayniqsa, xorazmshohlar tarixiga oid voqealarga juda qiziqar edi. U Kuzbor Malikdan bobosi Takishning jasurligi haqida ham ko‘p hikoyalar eshitdi.



1. Malika Kuzbor Malikka nima uchun o‘g‘li Jaloliddinni ayamasdan tarbiya qilishni topshirdi?
2. Kuzbor Malikning Jaloliddinga chavandozlik va o‘q otish sirlarini o‘rgatishining sababini izohlang.



ODOBLI BO‘LISH OSONMI?

Anvar Obidjon

I

Mittigina, quvnoqqina, yebto‘ymasgina bir Sichqoncha bor ekan. U suyukli onajonisi bilan birga qishloqdagi eng baland, eng ko‘rkam uyning kovagida yashar ekan. Bir kuni onajonisi to‘lpoq Sichqonchaning burniga burnini ishqab erkalatibdi-da:

– Mana, tiling ancha burrolashib, tashqariga o‘zing chiqib o‘ynasang o‘ynagudek kattagina bo‘lib qolding, endi sal esingni yig‘ib ol, odobli bo‘l, – deb nasihat qilibdi.

– Esim-ku joyida, chunki qaysi ovqat shirinligini yaxshi bilaman, – debdi Sichqoncha o‘zini o‘zi maqtab. – Ammo odobli ko‘rinish uchun nimalar qilishim kerak, oyijonim?

– Kichkintoylarning odobi, birinchi navbatda, qanday salom berishidan bilinadi, – deya javob qaytaribdi onajonisi. – O‘zingdan kattaroqlarni uchratganda, chiroyli jilmayib: «Assalomu alaykum», – desang, ular ham senga ochiq yuz bilan boqib: «Vaalaykum assalom», – deyishadi. Keyin ichlarida: «Nihoyatda odobli ekan, ota-onasiga ming rahmat», – deb havas qilishadi. Buni eshitib, Sichqonchaning zavqi jo‘shib ketibdi. Qoyil-



maqom salom berib, birovlardan tezroq rahmat eshitgisi kelibdi-yu, shosha-pisha tashqariga yo‘l olibdi.

Kovakdan chiqiboq, unga chaqchayganicha tikilib turgan bo‘g‘irsoqsimon Mushukka duch kelibdi. Sichqoncha shum baroqqa jilmayib qarab: «Assalomu alaykum, Miyovpochcha!» – degan ekan, uning ko‘zidagi yovuzlik birdaniga so‘nibdi va sal tamshanib qo‘yib: «Vaalaykum assalomuv-v... Umring uzoq bo‘lsin. O‘taver», debdi. Birinchi duodan ko‘ngli tog‘dek ko‘tarilgan Sichqoncha quvonchdan irg‘ishlab-irg‘ishlab borayotganida, oldidan sersoqol qari Echki chiqib qolibdi.

– Assalomu alaykum, Echkivoy buva! – deb oldingi o‘ng oyog‘ini ko‘ksiga bosibdi Sichqoncha.

– Me-e, vaalaykum assalom, – deya qiroat bilan alik olibdi Echki. – Kam bo‘lma, bo‘tam. Otangga rahmat. Agar qorning och bo‘lsa, kel, manavi dumbulning chetidan ozgina kemirib ol.

Yosh-u keksa o‘rtasida qandaydir tenglik, o‘zaro mehr-oqibat, bir-biriga yaxshilik tilash holatini yuzaga keltiruvchi «salom-alik» Sichqonchaga yoqib qolibdi. U tobora ko‘nglini yashnatib, yangidan yangi tanishlar orttirish, samimiy chehralarni ko‘proq ko‘rish orzusida oldinga qarab boraveribdi.



1. Sichqonchaga onasi odobli bo‘lish haqida nima deb nasihat qildi?
2. Shum baroq bilan Echkivoylar Sichqonchani nima uchun maqtab qo‘ydi?



II

Makkapoya tugab, uvatdagi o‘tloqqa chiqib kelganida o‘siq sho‘ralar orasida kosasiga berkinvolib uxlayotgan Toshbaqaga ko‘zi tushibdi. Sichqoncha zarracha

ikkilanmay, o‘sha shirali ovozda: «Assalomu alaykum, Toshbaqa tog‘a!» – debdi. Toshbaqa esa uyg‘onmabdi. Sichqoncha Toshbaqaning boshi qaysi tomondaligini bilolmay, kosaning tevaragida uch-to‘rt marta aylanib chiqibdi. Oxiri tavakkaliga bir tarafda turib olib: «Assalomu alayku-u-m, Toshbaqa tog‘a! Qachon alik olasiz? Yuragim g‘ash bo‘p ketyapti, tog‘ajon!» – deya xuddi eshikni qoqqandek Toshbaqaning kosasini taqira-tuqur mushtlab javrayveribdi. Bir payt Toshbaqa kosaning narigi yog‘idan boshini chiqarib, uyqusiraganicha vaysab beribdi:

– Obbo-o, bu dunyoda tinchroq joy qolmabdi shekilli... Hov, kim u hadeb salom berayotgan?

Sho‘rlik Sichqoncha xijolat bo‘lib, lip etganicha o‘zini o‘tlarning bag‘riga uribdi. Yalanglikka yetib boriboq, zo‘r tomoshaning ustidan chiqib qolibdi. Shu hovlida yashovchi To‘rtko‘z qo‘shni Olapar bilan suyak uchun jang olib borayotgan ekan.


Sichqoncha ularga yaqinroq borib, yoqimtoy tovushda: «Assalomu alaykum, pahlavon To‘rtko‘z!» – debdi. Itlar unga parvo qilmay, jangni davom ettirishibdi. Sichqoncha ham bo‘sh kelmabdi, changga belangan ko‘yi ularning atrofida pirillab, goh u yoqdan, goh bu yoqdan baqirib-chaqirib salom beraveribdi.

Shunda To‘rtko‘z Olaparning yelkasidan tishlab uzoqroqqa otib yuboribdi-da, to dushmani o‘zini o‘nglab olguncha, orada Sichqonchaga o‘qrayib: «Vov alaykum! Ko‘ngling tinchidimi? Qutuldimmi? Bor, yo‘qol endi», – deb irillabdi, so‘ng qaytadan olishuvga kirishibdi.

Kutilmagan bunday sovuq muomaladan Sichqoncha dong qotib qolibdi, keyin to‘satdan xo‘rligi kelib, yuragi to‘liqib ketibdi. Yum-yum yig‘laganicha ortga qaytibdi.

Yarim yo‘lda yana Echkiga to‘qnash kelibdi. Echki bu yig‘i-sig‘ining sababini eshitgach debdi:

– Xafa bo‘lma, bo‘tam. Keyingi safar qulayroq vaqtda uchrashib qolsang, ular salomingga albatta alik olishadi, sendan xursand bo‘lishadi, maqtashadi. O‘zgalarga birinchi bo‘lib salom berish juda xosiyatli narsa. Ammo salomlashish shart bo‘lmagan vaziyatlar ham uchrab turadi. Ota-onang yumushlardan bo‘shab, xotirjamroq turgan chog‘da, buni sekin so‘rab bilib olsang zarar qilmaydi.



«O‘zgalarga salom berish shart bo‘lmagan holatlar ham bo‘lar ekanmi?» – deb o‘ylab qolibdi Sichqoncha.

1. Matndan Sichqonchaning salomiga Toshbaqa va To‘rtko‘zlarning javobini topib o‘qing.
2. Qari Echki salomlashish odobi to‘g‘risida Sichqonchaga qanday maslahat berdi?

QODIR BILAN SOBIR

Hakim Nazir

Ba’zi o‘rtoqlari Qodirni «zo‘ravon» desa, ba’zilari «do‘mbirachi» deydi. Nega desangiz, unda har ikki «hunar»dan ham oz-moz bor. «Zo‘ravon»ligi shuki, u yurgan yo‘lida va o‘tirgan yerida yon-veridagilarni turtib-netib, tegajog‘lik qilaveradi. «Do‘mbirachi»ligi shuki, agar sinfda biron bola xiyol yanglishsa, u lunjini pufak qilib olib, ikki barmog‘i bilan «taka-tum»ni chalib yuboradi. O‘zi yanglishganda-chi, biron kishining kulishga haddi bormi? Zo‘ravonligini ko‘rsatib qo‘yadi-ku...



Kunlarning birida Qodir sinfdoshi Sobir bilan ko‘chada keta turib, chiranib qoldi:

– Men hech narsadan qo‘rqmayman! – dedi. – Akam bilan dalaga borganimizda kattakon Salorda cho‘milganmiz. Innaykeyinchi, odamday-odamday baliqlarni tutib olganmiz, tirikligicha.

– Baliq nima bo‘pti! – dedi unga Sobir. – Biz dadam bilan g‘oz ovlaganmiz. Patillab uchib ketayotgan g‘ozning qoq tumshug‘iga tushirganmiz. Ha, qoq tumshug‘iga!

– Siz tushiribsizmi, dadangiz tushirganlar-da!

– Men ham! Men nishonni ko‘rsatib turganman. Bizning dada zo‘r mergan. Ikkita ordeni bor.

– Bizning aka-chi, nomi chiqqan komandir! Ikki yuzta askarga boshliq bo‘lgan. Men ham katta bo‘lganimda komandir bo‘laman.

– Bo‘lib bo‘psan, – dedi Sobir. – Komandir bo‘lishga yurak kerak. O‘zing sal narsadan qo‘rqasan-ku.

– O‘zing-chi, ha, bir marta shifokor ukol qilgani kelganda, tomga qochib chiqqaning esingdami?

– U vaqtda kichkina edim-da.

– Nima bo‘pti, o‘quvchi bo‘lib darrov katta bo‘lib qoldingmi?

Shu vaqt birdan itning hurgani eshitilib qoldi. Qarasalar, bir darvoza yonida bo‘rsiqday it ularga qarab vovullayapti. Quloqlari dikkaygan, tumshug‘i buzoqnikiday yalpoq, dumi tulkinikiday uzun. Qodir yo qo‘rqib, yo zo‘ravonligi qistab papkasini shartta yerga qo‘ydi. Ariq bo‘yidagi toldan bitta novdani uzib oldi-da,

uning uchiga bitta toshni bog‘lab turib itga uloqtirdi. It-ning fe’li aynidi. Qodirga qarab yugurdi. Qodir papkasini qoldirib tiraqaylaganicha orqasiga qarab qochdi. Sobir esa o‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, indamay turar edi. It yuz qadam joyga borganda Sobir: «To‘xta, Arslon, to‘xta!» deb uni to‘xtatdi, so‘ngra papkasidan bir burda non chiqarib berdi. Arslonning boshini silab aldadi-da, darvoza tomon jo‘natdi. Yerda yotgan papkani ko‘tarib olib, Qodir-ni chaqira boshladi. Qodir xiyla uzoqqa borib, birovning yo‘lagiga o‘zini urgan edi. It ko‘zdan uzoqlashgandan keyin u asta-sekin ko‘chaning bir chetidan kela boshladi.

– Hali hech narsadan qo‘rqmayman demaganmiding? – dedi unga Sobir. – It bilan o‘chakishib bo‘ladimi? Tosh otgandan keyin har qanday yuvosh bo‘lsa ham, jahli chiqadi-da.

Qodir churq etmadi. Yuzini ter bosgan, rangi quv o‘chgan, zo‘r berib halloslar edi. Qodir papkani nari-beri artib, Sobirning ketidan sekin sinf eshigini ochdi.

– Sen nega kechikding? – deb so‘radi doska oldida turgan o‘qituvchi Fotima opa. Qodir peshanasidagi terni arta turib: – Dalada edim, – dedi ming‘illab. Orqadagi partaga endigina o‘tirgan Sobir o‘rtog‘iga jiddiy tikilib:

– Nega yolg‘on gapirasan? – dedi va ko‘chada bo‘lgan voqeani aytib berdi.

– Shunaqami, Qodirjon? – dedi o‘qituvchi odatda-gicha muloyimlik bilan va bolalarga qaradi. – Zo‘r odam kuchini o‘qishda ko‘rsatadi. To‘g‘rimi, bolalar?

– To‘g‘ri, to‘g‘ri! – deyishdi bolalar.



1. Qodir o‘zini qanday so‘zlar bilan ta’rifladi? Uni maqtan-choq deyish mumkinmi? Sobirni-chi? Nima uchun?
2. Sobir o‘qishdan kechikishlarining sababini aytib to‘g‘ri qildimi? Uning o‘rnida bo‘lganingizda siz nima qilardingiz?

XATOSINI TUSHUNGAN BOLA

Xudoyberdi To‘xtaboyev

I

Qosimjon ochiq deraza oldida bog‘ tomonga tikilganicha o‘yga tolib o‘tiribdi. Bog‘da esa o‘riklar oppoq bo‘lib gullagan, asalarilar gul atrofida viz-vizlashadi, qayerdadir qushlar sayraydi, ariqchadagi suvning bir me’yorda jildirab oqishi quloqqa chalinadi.

Qosimjon bo‘lsa bularning hech biriga parvo qilmaydi, xafa, ko‘ksida allaqanday dard... Axir sinfdoshi Muhabbat tug‘ilgan kuniga butun sinfni taklif etsa-yu, uni loaqal yur ham demasa, alam qilmaydimi?! To‘g‘ri, Qosimjon butun o‘quvchilar bilan, yaqin sinfdoshi Muhabbat bilan ham arazlashib qolgan.

Bir kuni sinfda o‘tirgan edi. Tohir hovliqib kirdi:

– Sherik, qani, bir o‘ynab yubor-chi!

– Nima gap o‘zi? – hayron qoldi Qosimjon.

– Avval o‘yinga tush, keyin bilasan...

Qosimjon qo‘llarini ko‘tarib o‘ynagan bo‘ldi. Do‘sti xatni uzatdi. Bundoq o‘qib qarashsa, xat Toshkentdan, tahririyatdan ekan. Xatda Qosimjon yozgan «Men ekkan nihol» she’ri olinganligi, uni gazetaning kelgusi sonlarida bosib chiqarilishi, yana she’rlar yozib turishi, ko‘p mashq qilishi kerakligi aytilgandi...

O‘sha kuni xatni o‘qimagan o‘quvchi qolmadi, hatto sinf rahbari Abdullayev ham o‘qib, Qosimjonni maqtab qo‘ydi. Uning o‘zi bo‘lsa, bosar joyini bilmay qolgan edi. Darsga quloq solgisi kelmadi. «Zo‘r shoir bo‘lib ketsam, Tohirni haydovchilikka olaymi, shlapaning qaysi rangidan kiysam ekan», degan o‘y-xayollar bilan butun kunni o‘tkazdi. Dars tugagach, devoriy gazeta muharri-

ri Muhabbat uning yoniga kelib: «She’rni qachon yozib berasan», – deb qistab qoldi.

– Sening devoriy gazetangga she’r yozishga vaqtim yo‘q.

– Nega vaqting bo‘lmas ekan?

– Yo‘q, vassalom, men Toshkentga yozishim kerak. Mendan she’r so‘rashyapti... Tushundingmi?

– Voy-bo‘y, shunaqa katta odam bo‘lib ketdim, degin hali.

Qosimjon javob o‘rniga kulib qo‘ya qoldi. Muhabbat ertasiga she’rni yana qistab, «qo‘lingdan kelsa, o‘zing yozib ol», degan javob oldi. «Men ekkan nihol» sarlavhali she’r bosilib chiqqan kuni gazeta maktabda qo‘lma-qo‘l bo‘ldi. Hamma: «Bu o‘zimizning Qosimjonmi, voy qurmagur-ey. Bundan tuzuk odam chiqadiganga o‘xshab qoldi-ku!» – degan gaplarni aytishdi. Qosimjon kun bo‘yi, hatto darsda o‘tirib ham she’r yozdi, o‘chirdi, yana yozdi. Tarix darsida qo‘lga ham tushib qoldi.

– Barmoqlaring bilan nimani sanayapsan? – so‘radi Abdullayev.

– Yetti bo‘g‘in, – dedi Qosimjon shoshib-pishib. Keyin o‘quvchilar «gur» etib kulib yuborishdi. U noto‘g‘ri javob berganini sezib o‘zidan o‘zi uyalib ketdi. O‘qituvchi uning she’r yozib o‘tirganini ko‘rib she’rni darsdan keyin yozasan, deb ogohlantirdi. Qosimjon bo‘lsa, xuddi eshitmagandek, uning ko‘zlariga tikilgancha jim turaverdi.

– Sen manman bo‘lib ketyapsan, – dedi-da, o‘qituvchi darsini davom ettirdi.



1. Qosimjonning manmanlikka berilishi sababini izohlang.
2. O‘qituvchi unga nima uchun tanbeh berdi?



II

Ertasiga devoriy gazeta chiqdi. Unda Qosimjonning rasmini boplab chizishgan edi. Yuzi osmonga qaragan, bo‘yni olmaning bandidek, burnini shunaqangi uzun cho‘zishibdiki, naq devoriy gazetadan chiqib ketay deb turibdi, rasmning ostiga «yosh shoir» deb yozib qo‘yilgan.

Qosimjon shunaqangi achchiqlandiki, ancha mahalgacha tili so‘zga kelmay duduqlanib qoldi.

– Kim chizdi? – dedi u nihoyat.

– Men, – dedi o‘tirgan o‘rnida Muhabbat.

– Nega chizding?

– Chizdim...

– Mana senga! – Qosimjon urmoqchi bo‘lib qo‘l ko‘targan edi, qizning yonida o‘tirgan Odil chaqqonlik bilan ushlab qoldi.

– Hozir kechirim so‘ra! – dedi u qaltirab.

– Sen mening shaxsiy ishimga aralashma! – deb Qosimjon Odilning qo‘lini siltab tashladi.

Bu voqea bir nafasda sinf rahbarining qulog‘iga borib yetdi. Darsdan so‘ng Qosimjonni o‘quvchilar o‘rtasida muhokama qiladigan bo‘lishdi. Lekin sinf majlisi endigina boshlanay deb turganda, Qosimjon payt poylab derazadan oshib tushdi-da, Tohirni ergashtirib uyiga jo‘nab qoldi.

– Qani bittasi g‘ing deb ko‘rsin-chi, gazetaga yozaman, – dedi u achchiqlanib.

– Albatta, sen qayoqda-yu, ular qayoqda, – dedi Tohir.

Keyin ikkovlari ham ancha mahalgacha so‘zlashmasdan jim ketdilar. Tohir do‘stining ortidan soyadek ergashib borarkan, eng og‘ir paytda uni yolg‘izlatib qo‘ymaganidan mamnun edi. Qosimjon bo‘lsa butun

sinfni, o‘rtoqlarini, undan keyin o‘qituvchisini ham aldab, ularning yuziga oyoq bosganiga yuragining allaqayeri achishib turgan bo‘lsa-da: «Barcha shoirlar ham qiyinchilik bilan shoir bo‘lishgan. Men ham hozir qiynalyapman. Keyinchalik hammasi ham uyalib qoladi», – deb o‘ziga o‘zi tasalli berardi. Ertasiga uni sinf rahbari direktor xonasiga chaqirtirdi.

– Sendan yaxshi yigit chiqadi, deb yurardim, – gap boshladi Abdullayev, – sen bo‘lsang, hech kimni hurmat qilmay qo‘yibsan.

Qosimjon boshini quyi solgancha jim turaverdi.

– Nega majlisdan qochding? O‘rtoqlaringni kuttirib qo‘yishga uyalmadingmi?

Qosimjonning ko‘zlarida yiltirab yosh tomchilari ko‘rindi. Abdullayev: «U o‘z qilmishiga pushaymon bo‘ldi», – deb o‘yladi shekilli: «Bor, o‘rtoqlaringdan kechirim so‘ra», – dedi-da, ketishga ijozat berdi.

Lekin Qosimjon kechirim so‘ramadi. Shu sabab bo‘ldi-yu, kundan kunga o‘rtoqlaridan uzoqlashib, oxiri Tohirdan boshqa hech kim u bilan gaplashmay qo‘ydi.

...Kimdir ko‘cha eshikni ustma-ust ikki marta qoqqan edi, o‘yga tolgan Qosimjon bir cho‘chib tushdi-yu, o‘ziga keldi. Keyin bir xo‘rsindi-da, borib eshikni ochdi. Tohir ekan.

– Muhabbat seni tug‘ilgan kuniga aytdimi? – uning birinchi gapi shu bo‘ldi.

– Aytgani yo‘q... – ma’yus javob berdi Qosimjon.

– Bizni aytmadi-ya, – xo‘rsinib qo‘ydi Tohir. Ular uzoq o‘tirishdi. Bir mahal Qosimjon o‘rnidan turib yuzlarini sovuq suv bilan yuvdi, sochlarini yaxshilab taradi, sovg‘a uchun jildining ichki tomoniga she’r yozilgan albomni qo‘liga oldi.

– Qani, yur!

– Sherik, aytilmagan joyga boryapmiz-da, qalay bo‘larkin? – dedi Tohir asta. Qosimjon negadir sal yumshadi:

– Qiziq ekansan-da, biz begona joyga boryapmizmi? Sinf rahbarimizning so‘zi yodingdan chiqdimi, xatosini tushunib, kechirim so‘ragan kishini hamma hurmat qiladi, degan edilar-ku... Boraveramiz.

1. Qosimjonni manmanligi uchun o‘rtoqlari qanday jazolashdi?
2. Hikoyaning «Xatosini tushungan bola» deb nomlanishini izohlang.

NURXON BILAN BURHON

Miraziz A’zam

Nurxon qiz munkidi-yu,
Savati uchib ketdi.
Qulupnayi sochilib
Har yoqqa qochib ketdi.
Burhon xaxolab kulib,
O‘zi ham qoqildi-ku!
Kesilgan daraxt kabi
Gursillab yiqildi-ku!
Nurxon unga kulmadi,
Do‘ppisin qoqib berdi.
«Yomon yiqilmadingmi,
Qursin, falokat», – dedi.
Burhon qattiq uyaldi,
«Zararsiz», – dedi Nurxon.
Qulupnayni «puf-puflab»
Savatga terdi Burhon.
Chirandi-yu, odobda,
Nurxonga yutqazdi u.
...Qulupnayday qizarib,
Savatni tutqazdi u.



1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Burhon nima uchun uyalganini izohlang.

QO‘RQOQ

Sunnatulla Anorboyev

I



Bolalar Bahromga «Qo‘rqoq, qo‘rqoq!» deb ozor berishardi. To‘g‘ri, u kechasi eshikka yolg‘iz chiqishdan qo‘rqardi. Agar qorong‘i tushganda yotoqxonadan chiqmoqchi bo‘lsa, birorta o‘rtog‘iga «yurgin», deb yalinar, ba’zan esa yon-veridagilarning o‘rnidan turishini poylab, ko‘zini mo‘ltillatib yotaverardi. Goho bolalar jo‘rttaga uni mazax qilish uchun to‘satdan: «Ana, bo‘ri!» deb yotoqqa qarab yugurib qolishardi. Bahrom ham ularning ketidan ura qochardi. Nima qilsin, ayb Bahromdami? Dadasi yo‘qolgan otini qidirib kechasi tog‘da yurganida, uni och bo‘rilar yeb ketgan. O‘shandan keyin oyisi yurak oldirib, Bahromni kechasi eshikka yolg‘iz chiqarmaydigan bo‘lgan. O‘tgan yili ferma qishlovidagi boshlang‘ich maktabni tamomlab, qishloq markazidagi yotib o‘qiydigan maktabga ketayotganida ham oyisi: «Kechalari yolg‘iz yura ko‘rma!» deb qattiq tayinlagan. Mana, hozirgacha oyisining gapidan chiqmaydi. Uchinchi fermadan kelib, birga yotib o‘qiydigan bolalar bugun uni bekordan bekorga xafa qilishdi: «Qo‘rqoq» deb masxaralab tashlab ketishdi. Bahrom noiloj yotoqqa qaytib kirdi. Xona huvullab tu-

ribdi. Ertaga yakshanba – hamma uy-uyiga ketgan. Nazarida Qoravoyning achchiq pichingi qulog‘ining tagida hamon jaranglayotganday tuyuldi. To‘satdan u:

– Bekorlarni aytibsan! Qo‘rqmayman! – deb baqirib yubordi. Shu payt burunlarini jiyirib, tirjayib turgan bolalar ko‘z oldiga keldi. Ular go‘yo: «Qo‘rqoq, qo‘rqoq», – deb masxara qilayotganday tuyuldi-yu, velosipedga irg‘ib minib, orqasiga qaramay g‘izillagancha ketdi...



1. Bolalar nima uchun Bahromni «qo‘rqoq» deb atashardi?
2. Uning o‘rtoqlari ketidan yo‘lga otlanishining sababini ayting.



II

To‘satdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburladi. Bahrom osmon qars yorilib, bosib tushadiganday bo‘ynini qisdi. Tomchilayotgan yomg‘ir sharros quyib yubordi. Yo‘l birpasda loy bo‘ldi. Yurish og‘irlashdi. Sirg‘anib ketib ag‘anab tushsa bormi... Bahrom pastga qaradi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi: payqamagan ekan, kuchli sel kelibdi!.. Sel ovozi, momaqaldiroq guldirashi orasida Bahromning qulog‘iga qo‘y ma’ragani chalinganday bo‘ldi. Saldan keyin yana eshitildi. Bu safar qo‘y ovoziga qo‘zichoqning zorli ma’ragani ham ulanib ketdi. Ana o‘zi! Katta sovliq qorong‘i tun ichidan sho‘ng‘ib chiqdi. U suv yoqalab yelib kelardi. «Jalada suruvdan ayrilib qolib ketgan, jonivor!» – degan fikr ko‘nglidan o‘tdi Bahromning. U qo‘yni ko‘rgan zahoti xuddi yo‘ldosh topilganday qo‘rquvni unutdi. Yashin yalt etganda, sel betida qalqib oqib borayotgan qo‘zichoqqa ko‘zi tushib qoldi. Sovliqning buncha-lik telbalanib chopishiga endi tushundi.

Bahrom o‘ylab-netmay velosipedini yerga yotqizib, kiyimlarini shartta yechdi-da, qo‘zichoqqa intildi. Shu payt uzoqdan kimdir baqirdi: – Qur-ey, qur-ey!

U suv kechib, qo‘zichoqning ketidan borardi. Sel to‘pig‘iga, tizzasiga, soniga chiqdi. Qo‘zichoqqa yetib qo‘l cho‘zganida esa belidan oshib qolgandi. Hali oqim bo‘ylab yurgani uchunmi, suvning kuchini sezmagan ekan. Endi oyog‘ini yerga tirab selga qarshilik ko‘rsatgan ham ediki, suv chalqancha ag‘dardi-yu, oqizib ketdi. Sayozroq joyga yetganida oyog‘ini yerga tiramoqchi bo‘lgandi, suv zo‘rlik qilib surib ketdi. Yaxshiyam Bahrom qo‘li bilan xarsangtoshni ushlab qolgani, bo‘lmasa... U shu ahvolda qancha vaqt tosh ustida yotganini bilmaydi. Qirg‘oqqa qanday chiqib qolgani ham esida yo‘q. Faqat uyqudan uyg‘onganday ko‘zini ochsa, kimdir uni chakmonga o‘rayotgan ekan.

– Balli, ota o‘g‘il! – dedi u kishi. Bahrom chakmonni egnidan tushirib yubormaslik uchun yaxshiroq yopinib, o‘rnidan turdi.

– Sovuq qotyapsanmi? – deb so‘radi chakmonga o‘ragan kishi. Bahrom uni endi tanidi. Jumanazarning dadasi Ollonazar amaki-ku. U sevinib ketdi va junjikayotgan bo‘lsa-da, bosh chayqab «yo‘q» dedi. U olazarak bo‘lib qo‘zichoqni qidirdi. Nahotki, oqib ketgan bo‘lsa?!

Endi so‘ramoqchi bo‘lib turganida, Ollonazar amaki qo‘llari bilan uni dast ko‘tardi-yu, eshakka mindirdi.

Shundagina u eshakning panasida turgan qo‘yga ko‘zi tushdi. Qo‘zichoq bo‘lsa onasining bag‘riga suqilib, miriqib emmoqda edi...

Ollonazar amaki «hayt» deb qo‘zichoqning tinchligini buzdi. Sovliq oldinga qarab yurdi, qo‘zichoq orqasidan

yugurdi. Eshak ham yo‘rg‘alab ketdi. Yo‘lda Bahromning kiyim-kechagini, velosipedini qidirib topishdi...

Peshindan keyin Bahrom fermadan davlat xo‘jaligi markaziga ketayotgan mashinaga o‘tirib maktabiga jo‘nadi. U kechki g‘ira-shirada maktabga yetib keldi. O‘rtoqlarining hammasi yotoqda ekan. Lekin qiziq bo‘ldi. Odatda, «o‘rtoq» o‘rniga «qo‘rqoq» so‘zini qo‘shib: «Bahrom qo‘rqoq keldi» deb qarshi oladigan bolalar bugun negadir:

– Ana, Bahrom keldi! – deb o‘rinlaridan gurra turib, uni o‘rab olishdi.



1. Bahromni o‘rtoqlarining hurmat bilan kutib olishining sababini izohlang.
2. «Bahrom – g‘ururli bola» mavzusida insho yozing.





YAXSHI BO‘LDI

Nosir Fozilov

Ko‘cha yuziga katta, dang‘illama uy tushgan-u, hali bitmagan edi. Ko‘chadan o‘tganlar: «Yaxshi uy bo‘larkan-u...» deyishar, uning ko‘pdan beri chala yotganini ko‘rib: «Biroq ko‘chaning husnini buzib turgani yomon bo‘libdi-da», – deb achinardilar.

Bilmasangiz bilib oling, ko‘cha husnini buzib turgan bu uy Husanlarniki edi. Mana, bugun uyning kamko‘stini tuzatish uchun hasharchilar kelishgan. Ular orasida kechagina Husanning o‘zi borib chaqirib kelgan Iso bobo ham bor. Iso bobo shu qishloqda imorat ustasi. U kamgap, o‘nta gapirganingda zo‘rg‘a bitta og‘iz ochib javob qaytaradi. Hushi kelib tursa, juda sergap bo‘lib ketadigan odati ham bor. Boshqa hasharchilar tomda o‘zlari bilan o‘zlari ovora. Ular deyarli yoshlar edi. Nima

ham bo‘ldi-yu, hasharchilar o‘z o‘g‘illarini maqtay ketishdi. Biri o‘g‘lini odobli desa, biri o‘g‘lini qo‘rqmas, kuchli deb maqtar edi. Ba’zan ular tomdan:

– Nima deysiz, Iso bobo, shundaymi? – deyishsa, Iso bobo hech mulohazaga bormay, ensasi qotib:

– Shunday! – deb qo‘ya qolardi.



– Mening o‘g‘lim axir bir ishning boshini tutadi-da, – dedi Husanning dadasi, – qo‘lidan kitob tushmaydi, o‘qigani-o‘qigan. Nima deysiz, Iso bobo?

Iso bobo shu mahal narvonda turib, uyning bo‘g‘otini tuzatayotgan edi. Bitta g‘isht kerak bo‘lib qoldi: narvondan tushib, engashib zo‘rg‘a oldi. Olib chiqib, o‘rniga yaxshilab qo‘ydi. Shundan keyingina javob berdi: – Shunday!

U yana bir nima demoqchi bo‘lib og‘zini juftladi-yu, aytmoqchi bo‘lgan gapini ichiga yutdi... Shu payt Husan o‘z o‘rtoqlari Safar, G‘ani bilan ko‘chadan kirib keldi. Safar bilan G‘ani ustalarga salom berishdi. Husan bo‘lsa hech narsa demay, qo‘ltig‘ida qandaydir bir kitob bilan uyga kirib ketdi. Shu mahal Iso boboga yana g‘isht kerak bo‘lib qoldi. U pastga tushmoqchi bo‘layotganda Safar payqab qolib, bitta g‘ishtni ko‘tardi: – Tushmay qo‘ya qoling, bobo, mana, oling. Yana kerakmi?

– Ha, barakalla, o‘g‘lim, baraka top, katta yigit bo‘l...

Husan uydan chiqib, G‘anining oldiga keldi. Ikkalasi ham tomdagi ustalarning ishini tomosha qilishardi.

– Iso bobo, gapimiz chala qoldi-ku, shunday qilib, o‘g‘ilchalarning qaysi biri yaxshi bola bo‘ladi? – dedi tomdagi hasharchilardan biri. Iso bobo indamadi.

– Qaysinisi bo‘lardi, ko‘rib turibsan-ku, mana bunisi yaxshi-da, – dedi hasharchilardan biri pildirab g‘isht tashiyotgan Safarni ko‘rsatib. – Bobosiga yordam berayotgan o‘g‘il yaxshi bo‘lmay, belini ushlab, tomosha qilib turgan o‘g‘il yaxshi bo‘larmidi?..



1. Hasharchilar o‘g‘illarini nima deb maqtashdi? Husanning dadasi-chi?
2. Iso bobo Safarni nima uchun maqtadi?





SHARQ HIKOYASI

Abdulla Oripov

Aniq yili esimda yo‘q,
Allaqaysi zamonda,
Bir qishloqda ota-o‘g‘il
Yashar ekan omonda.
Bir kuni deng shu ikkovlon
Qaygadir yo‘l olishdi.
Minay desa ot-ulov yo‘q,
O‘ylanishib qolishdi.
Qurib ketsin yo‘qchilik ham
Kim nelarga zor edi.
Ikkovining o‘rtasida
Bitta eshak bor edi.
Garchi u ham biroz yag‘ir,
Garchi andak bedarmon.
Shu eshakni minsakmi deb,
O‘ylab qoldi ikkovlon.
Ota dedi: – O‘g‘lim, bundan
Na sen, na men tingaymiz.
O‘g‘il dedi: – Ota, buni
Galma-galdan mingaymiz.
Ota doim ota axir,
Ya’ni, mudom izzatda.
Eshakka u mindi dastlab
O‘g‘il yayov, albatta.
Bir qishloqdan o‘tdilar
Ikkov sekin tiqirlab.
Ortlaridan to‘rt-besh odam
Kulib qoldi piqirlab.
– Ahmoq ekan manavi chol,
Ahmoq haddan ziyoda.
O‘zi ulov minib olgan,
O‘g‘li esa piyoda.
G‘alati bir hisni tuyib
Shartta pastga tushdi chol.
– Kelaqolgin, o‘g‘lim,– dedi,
Eshakka sen minaqol!

Endi o‘g‘il to‘qimda-yu,
Ota yayov ketardi.
Endi ular boshqa qishloq
Ko‘chasidan o‘tardi.
Borardilar so‘zsiz, sekin
Asta-asta tiqirlab.
Ortlaridan to‘rt-besh odam
Yana kuldi piqirlab.
– Ahmoq ekan manav bola
Ahmoq haddan ziyoda.
O‘zi ulov minib olgan,
Otasi-chi piyoda.
Yosh emasmi, birdan uning,
Oriyati qo‘zg‘aldi.
Shartta pastga tushdi u ham,
U ham yayov yo‘l oldi.
Yurib-yurib ikkalasi
Necha adir, qir oshdi.
– Bor-e, – deya so‘ng eshakka
Ikkovi ham mingashdi.
Ammo tag‘in bir manzildan
O‘tar bo‘ldi ikkovlon.
Ne kulfatki, bu joyda ham
Tinch qo‘ymadi olomon.
– Ahmoq ekan bular rosa,
Insofi yo‘q, lavanglar,
Ikki odam bir eshakni
Minib opti, qaranglar.
Malomatdan ota-o‘g‘il
Tamom horib-toldilar.
G‘azab bilan bir-biriga
Termilishib qoldilar.



– Aytmabmidim, – dedi ota, –
Gap uqmading tirrancha,
El-u yurtning o‘rtasida
Bo‘ldik rosa bo‘lgancha.
Qo‘l siltashdi bir-biriga
Qoldi foyda-ziyon ham.

Ota u yon ketib qoldi,
Bu yon ketdi o‘g‘lon ham.
Qondoshlikning million yillik
Rishtalari uzildi.
O‘rtaga bir eshak tushib
Oralari buzildi.



1. Ota eshakka minib, o‘g‘il piyoda borishayotganda odamlar ularning ustidan nima deb kulishdi? Ikkinchi, uchinchi qishloqda-chi?





SAXIY

Muhammad Avfiy

Hotamtoydan:

– O‘zingizdan ham saxiyroq odamni uchratganmisiz? – deb so‘rabdilar.

Hotamtoy:

– Ha, ko‘rganman, – deb javob beribdi.

– Qayerda ko‘rgansiz?

– Cho‘lda ketayotganimda uzoqdan ko‘zimga ikki xonadan iborat ko‘rimsizgina bir kulba, kulbaning oldida bog‘lab qo‘yilgan bir echki ko‘rindi. U yerga yetib borganimda ot dukurini eshitib, ichkaridan bir mo‘ysafid menga peshvoz chiqdi va otdan tushishimga yordam qildi. Birozdan keyin uning o‘g‘li kelib ochiq chehra bilan salomlashib, hol-ahvol so‘radi. Mo‘ysafid o‘g‘liga qarab:

– Bolam, o‘sha echkini so‘yib taom hozirla, mehmonni ziyofat qilish kerak, – dedi.

O‘g‘li:

– Ijozat bering, avval borib o‘tin terib kelay, – dedi.

Mo‘ysafid:

– Sen cho‘lga borib, o‘tin olib kelguningcha vaqt ketadi. Mehmonni och olib o‘tirish odobdan emas, – dedi.

Mo‘ysafidning ikkita nayzasi bor ekan. O‘sha nayzasini tizzasiga bir urib sindirdi. Echkini so‘ydi va birpasda ovqat tayyorlab dasturxonga olib kelib qo‘ydi.

Uyning u yoq-bu yog‘iga razm solib qaradim. Uning butun bor-yo‘g‘i shu nayzagina ekan. Uni ham mehmonning poyqadamiga ishlatdi.

Choldan so‘radim:

– Meni taniysizmi?

Chol:

– Yo‘q, tanimayman, – dedi.

– Men Hotamtoy bo‘laman, saroyimga keling, bu qilgan yaxshiliklaringizning hissasini chiqaray, – dedim.

Bunga javoban chol:

– Biz mehmondan ziyofat pul olmaymiz, – dedi va hech qanday hadya qabul qilmadi.

Men mana shu mo‘ysafidni o‘zimdan saxiyroq deb bilaman.



1. Hotamtoy o‘zini mehmon qilgan mo‘ysafidni nima uchun o‘zidan saxiyroq ataydi?





CHUMCHUQ BILAN CHUMOLI

Aziz Abdurazzoq

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qishloqda kattakon tepalik bor ekan. Tepalik yonida bir tup tut bor ekan.

Tutning quyuq, chayir shoxlarida chumchuqlar chug‘ullashar ekan. Chumchuqlar chumolilarning har kuni tinimsiz yuk tashib yurishlari haqida gaplashib, ularni mazax qilib kulishar ekan. Chumolilar bo‘lsa ularga parvo ham qilmay, indamasdan ishlab yuraverishar ekan.



Bir kuni qoq tush paytida bitta Chumchuq pirillab yerga tushibdi. Bitta bug‘doyni tishlab ketayotgan bir Chumolining yoniga qo‘nibdi.

– Bug‘doyni menga ber, – debdi Chumchuq.

– Nega? – debdi Chumoli. – Kap-katta bo‘lib mendan bug‘doy so‘ragani uyalmaysanmi? O‘zing topib yesang bo‘lmaydimi? Shu bitta bug‘doyga to‘yasanmi?

– Kun isib ketdi, – debdi Chumchuq. – Hech qayerga borgim kelmayapti.

– Shuni ertalab salqinda o‘ylamadingmi? – debdi Chumoli. – Don kerak bo‘lsa, izlab top. Axir qanoting bor. Agar mening qanotim bo‘lganida ming chaqirim joyga ham erinmay borib kelar edim.

– Qanot menga don izlash uchun berilgan emas, – debdi Chumchuq. – Mushukdan saqlanish uchun berilgan. Bo‘lmasa xirmonga borib to‘yib kelardim. Lekin u yerda Mushuk bor. Qo‘rqaman, meni yeb qo‘yadi.

– Nega Mushuk seni yeydi-yu, meni yemaydi? – debdi Chumoli.

Chumchuq chirillab kulib yuboribdi:

– Gapingni qara-yu, Mushuk seni boshiga uradimi? Sening go‘shting oz. Buning ustiga achchiqsan.

– Menga o‘xshab mehnat qilsang, sen ham terlab achchiq bo‘lib qolar eding, – debdi Chumoli. – Sen bo‘lsang doim tekin ovqat qidirasan. Sen achchiqsan, men shirinman deb maqtanmay qo‘ya qol. Aslida sening o‘zing shirin emassan, joning shirin. Joningni koyitging kelmaydi.

– Mayli, nima desang ham deyaver, lekin mana shu bug‘doyingni menga beraqol, – deb yalinibdi Chumchuq.

Shu payt qayoqdandir paydo bo‘lib qolgan olg‘ir Mushuk bir hamla qilib, Chumchuqni tappa bosibdi.

– Voy, Chumolijon, meni qutqar, Mushukni chaqib ol! – deb chirillabdi Chumchuq. Shunda Mushuk Chumchuqni tishlab, yugurganicha tepalikning narigi tomoniga o‘tib ketibdi.



1. Chumchuq Chumoli bilan nima to‘g‘risida suhbatlashdi?
2. Siz ulardan qaysi birining fikrini ma’qullaysiz? Nima uchun?
3. Tekinxo‘rlik bilan mehnatsevarlik tushunchalarini solishtiring.





YOLG‘ONCHINING IZZA BO‘LISHI

Kunlardan bir kuni bir kishi Mirzo Ulug‘bek huzuriga kelib arz qilibdi:

– Ey, podshohi olam! Men Samarqanddan Buxoroga safarga chiqqanimda hamyon-xaltamda ming tanga pulim bor edi. Shahardan chiqib bir daraxt soyasiga – suv bo‘yiga dam olgani o‘tirdim. Men endi ovqatlanayotgan edim, shaharga ketayotgan bir do‘stim paydo bo‘lib qoldi. Uni dasturxonga taklif etdim. Birga ovqat-

landik. Hamyonni haligi do‘stimga berib, shaharga borgach, uyga eltib berishni iltimos qildim. Safardan qaytib kelgach bilsam, o‘sha do‘stim hamyonni uyimga olib bormabdi. Uning oldiga borib omonatimni so‘rasam, u:

– Jinni bo‘ldingmi?! Men seni ham, hech qanaqa daraxt-paraxtni ham ko‘rgan emasman, – deb javob berdi.

Mirzo Ulug‘bek o‘sha odamni chaqirib keltiribdi. Ikki do‘st shoh huzurida ro‘baro‘ bo‘lishibdi. O‘sha odam: «Men u daraxtni ham, bu odamni ham ko‘rmaganman», – deb so‘zida qat’iy turib olibdi.



Mirzo Ulug‘bek da’vogarga: «O‘sha daraxtdan uch-to‘rt barg keltirgin, men uning vositasida haqiqatni aniqlayman», – debdi. Da’vogar yo‘lga tushishi bilan shoh uning sherigiga bir hikoyatni ayta boshlabdi. Voqeaning eng qiziq joyiga borganda shoh:

– Da’vogar o‘sha daraxtning oldiga yetib bordimikan? – deb savol tashlabdi.

Hikoyani zavq bilan tinglayotib, g‘aflatda qolgan haligi kishi bexosdan:

– U daraxt shahardan ancha uzoqda, hali yetib bormagan bo‘lishi kerak, – debdi.

Mirzo Ulug‘bek kulib yuboribdi va:

– Axir sen: «Men bu odamni ham, daraxtni ham ko‘rmaganman», – demabmiding, qanday qilib do‘stingning u yerga yetib bormaganini bilding! Yaxshisi yolg‘on gapirmay, omonatni egasiga topshir, – debdi.

U kishi aybiga iqror bo‘libdi va pulni egasiga qaytarib beribdi.

1. Da’vogar Mirzo Ulug‘bekdan nimani iltimos qildi?
2. Mirzo Ulug‘bek haqiqatni qanday aniqladi? Uning qaysi fazilati haqiqatni anglashga yordam berdi?
3. Rivoyatni yana qanday nomlash mumkin?

QUSH TILI

Mirtemir

Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo‘ymayman sizga tuzoq.
Bo‘zto‘rg‘ay, bo‘zlashaylik.
Turumtoy, so‘zlashaylik.
Qaldirg‘och, quvlashaylik.
Betilmoch, quvnashaylik.
Sa’vaoy, sayrashaylik.
Soyma-soy yayrashaylik.
Qushlar, hey, ketmang uzoq,
Qo‘ymayman sizga tuzoq.
Cho‘chimang, hoy chumchuqlar,
Laylag-u chug‘urchuqlar,
Ko‘kqarg‘a-yu, zarg‘aldoq,
Bulduruq ham tuvaloq,
Suqsur, oqqush, tustovuq,
Sayranglar menga yovuq.
Mendan qochma, hoy burgut,
Do‘stlashaylik, qarchig‘ay,
Kaklik, to‘ti, bedana,
Sepay tariq, sedana.
Keling, ha, sirlashaylik,
Keling, ha, tillashaylik.









1. She’rda qaysi qushlarga murojaat qilinadi?
2. Qaysi qushlarning hayotini bilasiz?

YOMG‘IR

Farhod Musajonov

Yomg‘ir yog‘ayotganda odam qattiq uxlaydi degan-lari rost ekanmi, Halima opa bugun o‘g‘li Erkinjonni uyg‘otaverib charchab ketdi. Oxiri Erkinjon onasining qistovi kor qilib zo‘rg‘a ko‘zini ochdi. Nomiga chala-chulpa yuvingan bo‘ldi.

Qaytib uyga kirdi-da, yana karavotiga o‘tirdi. Ko‘zini lo‘q qilib derazaga tikildi. Tashqarida yomg‘ir shig‘illab quyar, osmonni esa qop-qora bulut qoplab olgan edi.

Halima opa derazaning darchasini ochdi, xo-naga zax va nam havo urdi. Erkinjon junjikib o‘zini ko‘rpaning tagiga oldi.

– Kiyinmaysanmi tezroq, Erkinjon, choying sovib qoladi, – dedi Halima opa.

Erkinjon indamadi. Shu havoda yomg‘irda ivib mak-tabga borishga sira oyog‘i tortmadi. Qani endi issiqqina uyda maza qilib derazadan ko‘chani tomosha qilib o‘tirsa!

– Ha, nima bo‘ldi senga, kasal bo‘lib qolmadingmi? – Halima opa o‘g‘li indamaganiga hayron bo‘ldi, pesha-nasini ushlab ko‘rdi. – Ozgina issig‘ing bor shekilli?

Erkinjon yana indamadi. Onasining gaplaridan keyin o‘ziga-o‘zi kasaldek tuyulib ketdi.

– Boshim og‘riyapti, – deb ko‘zini yumib oldi. Nega shunday dedi, o‘zi ham bilmaydi. Qo‘rqib ketgan Hali-ma opa darrov uning atrofida girdikapalak bo‘lib qoldi.

Ko‘rpasini, yostig‘ini to‘g‘rilab, yaxshilab yotqizib qo‘ydi.

Karavotining oldiga stul surib, nonushtani o‘shaning ustiga olib kelib qo‘ydi. Lekin Erkinjon nonushtaga qay-

rilib ham qaramadi. Hozir u bitta ortiqcha harakat qilishga, qimirlashga erinardi.

Halima opaning ishga ketadigan vaqti bo‘ldi.

– Qimirlamay yotgin, men shifokor chaqirib ketaman, – dedi u.

Peshin bo‘ldi. Derazadan ko‘chaga mo‘ralab o‘tirgan Erkinjon maktabdan qaytayotgan o‘rtoqlarini ko‘rdi. Nima uchundir yuragi orziqib, xo‘rsinib qo‘ydi. Bora-bora xursandligi yo‘qolib, o‘rnini xomushlik, g‘ashlik egalladi.

Shu payt eshik taqillab qoldi. Erkinjon borib ochdi. Qarshisida sochlariga oq oralagan, qotmadan kelgan kishi turardi.


– Men shifokorman, kasal Erkinjon Madrahimov shu yerda turadimi? – deb so‘radi u.

– Ha, shu yerda, – Erkinjonning ovozi zo‘rg‘a eshitildi.

– Bo‘lmasa, yigitcha, ruxsat etasiz, bir tekshirib ko‘ramiz, qayeringiz og‘riyotganikin. Durustmi? – shifokor juda shoshilardi.

Erkinjonning nafasi ichiga tushib ketdi. Shifokor uni karavotga o‘tqazib isitmasini o‘lchadi, og‘zini ochib tomog‘ini ko‘rdi, rezinka naychasining uchini ko‘kragiga qo‘yib, nafas olishini eshitdi.

– Qayering og‘riyapti? – deb so‘radi Erkinning ko‘ziga tikilib.



Shifokor go‘yo ichingdagi bor gapni bilib turgan sehrgarga o‘xshardi. Erkinjon indolmadi.

– Ha, mayli, – dedi shifokor muloyimlik bilan, – mana shu dorini ichsang, tuzalib ketasan.

Shifokor dori qog‘ozini yozib to‘ldirdi-da, Erkinjonning yostig‘i tagiga qo‘ydi.

– Oying kelganlarida bergin. Dorini, albatta, topsinlar, – dedi shifokor, – kasaling xavotirli, oldini olmasa, oqibati yomon bo‘ladi.

«Dovdirroq» shifokor qanday shoshib kelgan bo‘lsa, shunday shoshib chiqib ketdi.

Erkinjon sal yengil tortdi, peshanasidan chiqib ketgan terni artdi. Ammo g‘ashligi tarqalmadi, zerika-zerika bir amallab kunni kech qildi.

Halima opa ishdan sal barvaqt qaytdi. U eshikdan kira solib o‘g‘lidan hol-ahvol so‘radi.

– Tuzuk bo‘lib qoldim, ertaga maktabga boraman, – dedi Erkinjon va shifokor tashlab ketgan dori qog‘ozini olib onasiga berdi. – Ammo shifokor hovliqmaroq ekan, kasaling og‘ir, oldini olmasang, ishing chatoq, deb vahima qilib ketdi.

Halima opa qog‘ozni olib o‘qidi, birdan o‘zgardi, qo‘llari bilan ikkala chakkasini qisib o‘tirib qoldi.

– Nima bo‘ldi, oyijon? – Erkinjon qo‘rqib ketdi. Halima opa indamasdan qog‘ozni Erkinjonga uzatdi:

– O‘qi!

Erkinjon qog‘ozni oldi, hijjalab o‘qidi: «Ehtiyot bo‘ling, o‘g‘lingizda mug‘ambirlik va yalqovlik kasalining alomatlari paydo bo‘lyapti».



1. Hikoyani o‘qing. Erkinjonning maktabga bormaganligi sababini izohlang.
2. Uni qanday kasallikka yo‘liqqan deb o‘ylaysiz?



IKKI IRMOQ

Habib Po‘latov

Baland tog‘ etagida paydo bo‘lgan ikkita katta-kichik qo‘shni buloqdan yonma-yon ikki irmoq oqib chiqdi. Katta buloqning irmog‘i kichik buloqnikiga qaraganda kuchliroq edi. Yana «tole»ni qarang! U oqib borayotgan yo‘lda hech qanday to‘siq uchramadi. Kichik irmoqning yo‘li sermashaqqat ekan. Biroz yurganidan keyin kattakon xarsangtoshga duch kelib qoldi. Shunda ham noumid bo‘lmadi. Yeng shimarib ishga tushdi. Uning tirishqoqlik bilan o‘ziga yo‘l axtarayotganini ko‘rgan katta irmoq:

– Ey, bechora, shunchalik nimjonsan-u, yo‘lga chiqib nima qilar eding, – dedi.

– Og‘ayni, bunday gaplarni qo‘y, – dedi kichik irmoq. – Undan ko‘ra o‘ng tomoningdan ozroq joyni o‘pirib yubor. Menga ham yo‘l ochilsin.

– Ho, tirrancha. Hali sen boshqalarning mehnati hisobiga yashashni ham bilasanmi? Bor, bor, toshingni ter! – dedi-da, katta irmoq o‘pkasini qo‘ltiqlab uzoqlarga yugurib ketdi. Bir-biridan yoqimli, bir-biridan chiroyli daraxtlar uning yo‘liga peshvoz chiqib:

– Biz tomondan yur, – deb iltimos qildilar.

– Bilaman, sizlar hammangiz tekinxo‘rsizlar, yaqiningizga borsam, bas, ildizingiz bilan suvimni shimirib, tinkamni quritasiz, – dedi-da, katta irmoq yo‘lni chap solib jo‘nab qoldi. Oxiri cho‘l-u biyobonda qumlikning bag‘riga bosh qo‘ydi-da, holdan ketdi.

Kichik irmoq kecha-kunduz mehnat qildi, nihoyat, xarsangtoshning bir yonboshidan yemirib o‘tib yana

yo‘lga tushdi. U yo‘l-yo‘lakay daraxtlar bilan do‘stlashdi. Ularning ildizlari irmoq suvining yer ostiga singib ketishiga yo‘l qo‘ymadilar. Yaproqlari quyosh nurini to‘sib, bug‘lanishdan saqladilar. Kichik irmoq ham, o‘z navbatida, yashil do‘stlarini qondirib sug‘ordi. Shunda o‘zining yo‘lda boshidan o‘tkazgan hamma mashaqqatlarini tamomila unutib, o‘ziga o‘zi:

– Bunday yashash juda soz bo‘lar ekan, – dedi.

Kichik irmoq quvona-quvona yo‘l bosib, azim daryo bo‘yiga qanday yetib kelganini ham sezmay qoldi.

– Behuda tentirab yurma, – dedi unga daryo. – Bironta ko‘lmakka tushib qolsang, suvingni sasitadi. Bordi-yu, qumlik cho‘lga chiqib qolsang, o‘z qa’riga yutib halok qiladi. Kel, bizga qo‘shil!



Irmoq bu so‘zni eshitib o‘zini daryo bag‘riga otdi. Uning suvi tezda daryo suvi bilan bir jon-bir tan bo‘lib ketdi. Irmoq qo‘shilganidan keyin daryo yanada kuchliroq bo‘lib oldi. Dasht-biyobonlarga oqib, bironta ham giyoh unmagan taqir yerni bog‘-bo‘stonga aylantirdi. Shunda kichik irmoq o‘ziga o‘zi:

– Ko‘pchilik bilan birgalikda mehnat qilib yashash juda ham soz bo‘lar ekan, – dedi.

1. Nima uchun kichik irmoqning yo‘li sermashaqqat bo‘ldi?
2. Kichik irmoq va uning do‘stlari bir-biriga qanday yordam ko‘rsatdi?



MO‘JIZA

Rahim Bekniyoz

O‘lib tirilgan, ya’ni avvalo o‘lib, so‘ngra tirilgan quyonni ko‘rganmisiz? Albatta, ko‘rgan emassiz bunday «mo‘jiza»ni.

Men-chi? Ko‘rdim ham gapmi? Xo‘p dog‘da qoldirib ketgan kaminalarini shalpangquloq desangiz. Shuning uchun hech vaqt esimdan chiqmaydi bu voqea.

Quyonlar serob kuz yemishlaridan semirib, rosa jir boylagan paytda ovga chiqdim. Velosipedimni tanish cho‘pon qo‘rasida qoldirdim-da, miltiqni kiftimga ilib, ro‘parada ko‘rinib turgan qamishzor tomon ketdim. Mo‘ljallab chiqqan «ovxonam» o‘sha. Men o‘tib borayotgan dala bu yil to‘qaydan yangi ochilib ekilgani uchun paxta bitmagan, boriyam barvaqt yig‘ib-terib olingan, endilikda unda g‘o‘zadan ko‘ra yaxshiroq yetilgan yovvoyi o‘t-xashaklar oyoq ostida qovjirab yotardi. Bunday sero‘t maydonda quyon o‘tlashini bilardim, lekin yotoq qiladi, deb o‘ylamagan edim. Qarasam, mendan atigi uch qadam narida shalpangquloqlarini kiftiga bosgan holda, ko‘rpaday ajriqqa burkanib, bemalol uxlab yotibdi u. Qo‘llarim beixtiyor miltiqqa yugurdi. «Yotgan joyida otaveraymi yoki qochirib otsammikin?» Miyamda yilt etgan bu savolga javob pishib yetilmay, miltiqning tepkisini bosganimni bilmay qoldim. O‘q quyondan bir qarich nariga tegib, yerni o‘pirib yubordi. Quyon seskanib boshini ko‘tardi-yu, badani dir-dir titrab, joyidan qo‘zg‘almadi.

Miltiqning uchini tekkizganimda, birdan sapchib o‘rnidan turdi. Biroq gandiraklab kelib, o‘zini oyoqlarim ostiga urdi. Oyog‘im bilan bosib olgach, yana hayron qoldim.



Biron yerida o‘q izi ham, tiriklik alomati ham ko‘rinmasdi. Qo‘limga olganimda, u shalpayib qolgandi. G‘alati o‘ljani xaltamga joylab, qamishzor sari ravona bo‘ldim. U yerda chiy qamish o‘rib yurgan cholga ro‘para keldim.

– Charchagandirsiz, ukam. Keling endi, birpas o‘tirib nafas rostlang, – deb taklif qildi u. Xaltani yelkamdan olib, yerga qo‘ydim-da, o‘rilgan qamish ustiga o‘tirdim.

Chol xurjunni ochib oldimga dasturxon yoydi, qovun so‘ydi. Dasturxon atrofida gurung quyuqlashdi. Chol ham yoshligida ovchilik qilgan ekan.

– U zamonlar ovchilik alomat edi, ukam. Shu desangiz, bir safar...

Chol birdan hikoyasini kesib, ko‘zlari olazarak bo‘ldiyu, apil-tapil yonimda yotgan miltiqqa intildi:

– Quyon! Quyon qochdi!

O‘rnimdan sakrab turib miltiqni qo‘limga oldim. Biroq kechikkan edim. Quyon yilt etib o‘zini qamishzorga urib ketganini ko‘rib qoldim, xolos.

– Xaltangizdan chiqib qochdi, chamamda.

Ha, xaltam bo‘m-bo‘sh, og‘zi ochiq yotardi. Quyonning bu qilmishi meni battar tang qoldirdi.

– Bir gal menam shunday bo‘lganman, – deb miyig‘ida jilmayib hikoya qila ketdi chol. – Quyonni otgach, so‘ygin, deb yo‘ldoshimga uzatdim.

U bir qo‘li bilan pichog‘ini qinidan sug‘urishga tutindi. Shu topda birdan quyonga jon kirsa bo‘ladimi? Ha, xoh ishoning, xoh ishonmang, o‘lik quyonga jon kirdi! Jon-jahdi bilan tipirchilab, bir harakat qildi – quyonni qo‘lidan qo‘yvordi boyagi sherigim.

Quyonning ikkala orqa oyog‘ida bir arslonning kuchi bor, deyishadi. O‘shanday oyoqlar sharofati bilan arslondan ham qochib qutuladi jonivor. Bizam o‘shanda sizga o‘xshab orqasidan serrayib qolaverganmiz.

Keksa ovchining hikoyasi taskin berdi dilimga. Quyon otgan o‘qimdan faqat behush bo‘lib, xaltada hushiga kelganini payqadim.



1. Ovchi quyonni qanday qilib tutib oldi?
2. Keksa ovchi yoshligida bo‘lgan voqea haqida nimalarni gapirib berdi?





XATARLI UCHRASHUV

Pirimqul Qodirov

Urush vaqti edi. Biz Turkiston tizma tog‘ining etagida, shahardan yigirma besh chaqirim naridagi kichkina qishloqda turar edik. Harbiy xizmatdagi akamning xotini qish kunlarida qattiq betob bo‘lib qoldi-yu, shahardan oyimni chaqirib keling, deb iltimos qildi.

U vaqtlarda mashina juda kam, ot-ulov xo‘jalik ishi bilan band edi. Men piyoda yo‘lga chiqdim.

Ancha yo‘l yurdim. Yog‘ib turgan qor pardasi ortidan uch-to‘rt g‘amgin chordevorlar ko‘rindi. Ulardan narida qurib qolgan bir hovuz ham bor. Shunga yetsam yo‘lning yarmi qoladi.

Atrof biyday dala. Bir vaqt yo‘lning chap tomonida qandaydir sharpa sezganday bo‘ldim. Durustroq qarasam, mendan yuz qadamcha narida ikkita kulrang jonivor turibdi. Men avval ularni it deb o‘yladim. Shu atrofda yoyilib yurgan qo‘y qo‘rasi bordir deb, yon-verimga alangladim. Lekin ko‘z ilg‘aydigan joyda bironta qo‘y yoki poda ko‘rinmas edi. Meni sergaklanib kuzatayotgan haligi kulrang jonivorlar it emas edi. Men ularning bo‘ri ekanligini tushundim-u, etim junjikib ketdi. Bir lahza o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim. Keyin sal hushimni yig‘ishtirib qarasam, oyoqlarim go‘yo o‘zidan o‘zi yurib ketyapti. To‘xtashga ham, jadallashga ham, avzoyimni o‘zgartirishga ham, hatto bo‘rilarga yana bir qarashga ham jur’at yo‘q. To‘g‘riga qarab avvalgiday yurib ketyapman-u, butun vujudim bilan bo‘rilar tomonga quloq solaman. Menga qarab kelishsa, shitiri eshitiladi-ku, deyman.

Kishining qo‘rqqanini sezsa, jur’atsiz kuchuk ham hujum qiladi, men buni yaxshi bilar edim. Shuning uchun yuragim vahimadan uvushib ketayotgan bo‘lsa ham boyagiday shoshilmay, bo‘rilarni ko‘rmaganday bir maromda yurib borardim. Bir jihatdan hozir menga osonrog‘i shu edi.

Chunki avzoyimni o‘zgartirsam, masalan, chopsam, bo‘rilar ham orqamdan chopadiganday tuyular edi. Men esa hammadan ham shuni istamas edim.

Avvalgiday shoshilmay yurib ketyapman. Yo‘l keng, oyog‘im tagidagi qor juda mayin. Biroq men o‘tkir qilichning ensiz tig‘ida yurib borayotgandayman. Yuragimni hovuchlab nuqul ortga quloq solaman.

Shu ahvolda qancha yo‘l bosganimni bilmayman. Shunda: «Qochsam, quvadi!» – degan vahimali o‘y meni yana qochishdan tutib qoldi...

Narigi qishloqqa yetib, endi qutuldim deganda birdan bo‘shashib ketdim. Xuddi o‘n kun yo‘l yurganday charchab, qorga o‘tirib qoldim. Ichim kuyib, og‘zim qaqrab, taxir bo‘lib ketgan edi...

Kelinoyim tuzalib ketdi. Keyin akam urushdan yaradorbo‘lib qaytib keldi. Biz sirdosh aka-ukalardan edik. Bir kun men yerga qarab, uyalib bo‘rilar bilan qanday uchrashganimni akamga aytib berdim. Akam mendan kuladi, deb o‘ylagan edim. Yo‘q, sekin boshimni ko‘tarib qarasam, menga jim tikilib turibdi. Ko‘zlari zavqlanganday yonyapti.

– Qo‘rqoq bo‘lganingda, aqlingni yo‘qotib qochar eding. Ana unda bo‘rilar seni sog‘ qo‘ymas edi. Urushda ham kim aqlini yo‘qotib qochsa, o‘q avval o‘shanga tegadi. Hamma gap aql bilan irodada, – dedi akam.



1. Bola bo‘rilardan nima uchun qochmadi?
2. Akasining: «Hamma gap aql bilan irodada» degan gapini siz qanday tushunasiz?
3. Hikoyaning «Xatarli uchrashuv» deb nomlanishini izohlang.





OLA BUZOQ

G‘afur G‘ulom

Uy ichimiz bilan shu kecha
Uxlamadik oppoq tonggacha.
Bizda qo‘ng‘ir sigir bor edi,
Sog‘-salomat ko‘zi yoridi.
Ola buzoq, qashqasi ham bor,
Usti qora, bag‘ri oppoq qor.
Tili xuddi lola yaprog‘i,
Safsargulday tikka qulog‘i.
Dumi gajak, qo‘ng‘ir-qo‘ng‘iroq,
Sadaf munchoq tishi yaltiroq.
Olxo‘riday quralay ko‘zi,
Bosvoldiday cho‘zinchoq yuzi.
Baqbaqasi marjon osganday,
Tumshug‘iga chakich bosganday.
Xiyol o‘tmay burni terlaydi,
Nafasidan kelar sut hidi.

Burun uchi dona-dona ter,
Mo‘lab-mo‘lab allanima der.
Qamchindasta har bir oyog‘i,
Biram jajji silliq tuyog‘i.

Ola buzoq tug‘ilib oldi,
Og‘zimiz ham oqarib qoldi...
Katta bo‘lsin ola buzog‘im,
Ovunchog‘im, erkam, ma’rog‘im!



1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Ola buzoqning nimalarga o‘xshatilishini ayting.





TUSHOVLI TOY

Nosir Fozilov

Shu hafta ichi to‘xtamay yog‘gan yomg‘ir tinib, havo sal yorishdi, ufqqa tutash quyuq qora bulutlar tarqala boshladi.

Keyin yalt etib quyosh chiqdi. Yaylovda yoyilib yurgan qo‘y, sigir podalari, uyur-uyur yilqilar quyosh nurlarida dalaning husniga-husn qo‘shdi. Yaylovga qarasang bahri diling ochiladi.

...Tushdan keyin bulut tarqalib, quyosh chiqqan bo‘lsa ham, kechasi shamol turib, kun ancha sovuq bo‘ldi.

Oldingi oyoqlaridan ingichka, lekin pishiq jun chilvir bilan tushovlangan Saman toy, zimiston kechada o‘t-o‘lan topib yeyish u yoqda tursin, qo‘rquv bosib, sarosimada qoldi.

Shu payt qayoqdandir bo‘rining cho‘zib-cho‘zib uvullagani eshitildi. Saman yana kuchining boricha oldinga harakat qilib ko‘rdi. Lekin tezda charchab qoldi. Agar oyog‘ida tushovi bo‘lmasa, yilqilar yoyilib yurgan tomonga qarab uchar edi.

Ana, yana bo‘ri tovushi... Bu gal juda yaqin joydan eshitildi. Saman qo‘rquv ichida butun kuchini to‘plab yana oldinga sakradi. Qattiq kishnadi. Uzoqdan qandaydir bir ot ham kishnab javob qaytardi. Bu – yilqidagi Ko‘kqashqa edi...

Saman endi o‘sha Ko‘kqashqaning tovushi chiqqan tomonni mo‘ljallab, jon-jahdi bilan sakrab, kuchining boricha ustma-ust kishnab yubordi. Ko‘kqashqa yaqin bir joydan javob qaytardi. Shu mahal qorong‘i kechada Samanning oldidan ikkita bo‘ri chiqib qoldi. Ko‘zlari olovdek chaqnagan yirtqichlar Samanga tashlandi. Saman chinqiriq aralash kishnab, osmonga sapchidi. Vahshiy bo‘ri uning barra o‘mroviga og‘iz soldi. Shu zahoti qayoqdandir Ko‘kqashqa paydo bo‘ldi. U quyundek uchib kelib, bo‘riga tashlandi. Esxonasi chiqib ketgan bo‘rilar Ko‘kqashqaning oldiga tushib qochib qolishdi.

Ko‘kqashqa quloqlarini chimirgancha bo‘rilarni ancha joygacha quvlab, yana Samanning oldiga qaytib keldi.



Shunda yaqin joydan qandaydir bir tanish kishining:

– Beh, beh, beh... – degani eshitildi.

Sal o‘tmay chopib kelayotgan otning dupur-dupuri eshitilib qoldi. Bu kelayotgan Qudrat aka edi. Tajribali yilqichi ko‘k ayg‘irning bekorga chopib ketmaganini sezib, uning iziga tushgan edi.

Qudrat aka ot ustidan sakrab tushib, Ko‘kqashqaning oldiga keldi. U to‘satdan ayg‘irning narigi tomonida turgan yana bir otni ko‘rdi-yu:

«Iye, Saman-ku? Bemahalda bu yerda nima qilib yuribdi? Yo Qo‘chqorni yiqitib qochdimikin?» – deb o‘yladi o‘zicha. Keyin Samanga yaqinroq borib, uning u yoq-bu yog‘ini silab ko‘rgan edi, Saman xo‘rs-xo‘rs qilib osmonga sakradi. Qudrat aka yaqinroq borib yana uni erkalab silagan edi, qo‘li bir narsaga tegib ketdi:

«Qon?!» – dedi u hayron bo‘lib, keyin qo‘lini otning yoliga artdi-da, cho‘ntagidan gugurt olib yoqdi. – «Eh, attang!»

Toyning o‘mrovidan qon sizib oqardi. U tuzukroq ko‘ray deb, yana gugurt chaqqanda, Samanning oyog‘idagi tushovga ko‘zi tushdi. Qudrat aka bu dahshatli voqeaning sababiga tushundi.

«Bolaga ish buyur, ketidan o‘zing yugur, deb shuni aytar ekanlar-da! Saroydan beda olib kelib solishga eringan-u, tushovlab qo‘yib yuborgan. Mana endi...»

...Qo‘chqor ertalab shosha-pisha kiyindi-da, dadasi kelib qolmasdan avval Samanni olib kelmoqchi bo‘lib tashqariga chiqdi.

Etigini qayta paytavalab kiymoqchi bo‘lib, orqasiga qaytgan edi, uy orqasida bog‘log‘liq turgan Samanga ko‘zi tushdi.

– Iye, kim olib keldi seni? – deb Samanga yaqinlashdi. Shu payt uning ko‘zi toyning o‘mroviga tushib, yuragi shig‘ etib ketdi. – Bechora toychog‘im...

U shundan boshqa so‘z ayta olmadi. Ko‘zidan munchoq yosh dumaladi.

1. Saman toy tunda nima uchun kishnadi?
2. Ko‘kqashqa unga qanday yordam berdi?

JO‘JA

Anvar Obidjon

Yorib chiqdim tuxumni,
Shunday shovvoz jo‘jaman.
Tanib oldim buvimni,
Ko‘zi charos jo‘jaman.

Qarang, dunyo yop-yorug‘,
Opalarim sap-sariq,
Men qoraman va oriq,
O‘ziga xos jo‘jaman.

Chigirtkani qiraman,
Goh pashsha yeb ko‘raman.
Nima topsam «uraman»,
Asl xo‘roz jo‘jaman.

Goh cho‘qiyman dumbuldan,
Kamchilik yo‘q ul-buldan.
Qolishmayman bulbuldan,
Shirin ovoz jo‘jaman.



1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Jo‘jadagi qaysi xislatlar insonlarda ham bo‘ladi?

AYIQNI YENGGAN CHO‘PON

Pirimqul Qodirov

I

Tog‘ yonbag‘riga qo‘ylarni Suyun otaning sherigi yoyib ketdi. Suyun ota o‘g‘li bilan nevarasini chodirga boshlab kirdi-da, og‘zi bog‘lab qo‘yilgan meshdan piyolaga ayron quyib berdi.

– Qo‘yning ayroni dori-da, – deb qo‘ydi Suyun ota.

– Bu ayron emas, dada, buni qo‘yning qimizi deyish kerak.

– E, bu qimizdan ham yaxshi, – dedi Suyun ota.

– Men shu ayrondan ichaversam, yigit yoshimga qaytganday bo‘laveraman.

Akrom bobosining yigitligida ayiq bilan olishganini eshitgan edi.

– Ayiq bilan shu tog‘da olishganmisiz, bobo? – deb so‘radi...

Suyun ota oq oralagan qo‘ng‘ir soqolini barmog‘i bilan tarab, chigalini yozdi. U so‘kishni va qarg‘ashni bilmaydigan odam edi, birovni qattiq urishganda «He, bolang yig‘lagur» deb qo‘yardi. Hozir ham u:

– Bolang yig‘lagur ayiq, – deb so‘zida davom etdi, – itlarimizni oldiga solib vang‘illatib quvadi... Birinchi kelgan kuni qarasam, semiz bir qo‘yni g‘ijimlab otyapti. Dumbalik qo‘y kamida besh pud keladi. Bolang yig‘lagur ayiq uni oldingi ikki oyog‘i bilan g‘ijimlab turib otganda, o‘n qadamcha nariga borib gursillab tushadi. Itlar akillab kelsa, bo‘kirib shunday panja soladiki, ular g‘ingshib qochib qoladi. Mening qo‘limda tayoqdan boshqa narsa yo‘q.

– Miltig‘ingiz qayerda edi? – dedi Sanjar aka.

– E, u paytlarda miltiq kamchil edi-da. Bizda miltiq yo‘q edi. Bolang yig‘lagur ayiq haligi qo‘yni otib-otib, qo‘tondan jilg‘aga olib tushib ketdi. O‘choqda o‘t yonib turgan edi. Men ayiq o‘tdan qo‘rqadi deb eshitgan edim. Eski ko‘ylagimni tayoqqa bog‘lab, ustidan moy sepib yondirdim. Keyin ayiq tushgan jilg‘aga qarab qiyqirib chopdim. Qarasam, qo‘y do‘mpayib yotibdi. Bolang yig‘lagur ayiq, uning dumba tomonidan ancha joyini yebdi-yu, ketib qolibdi. Jonivor qo‘y bir tipirchiladi. Hali jon bermagan ekan. Darrov belimdan pichog‘imni olib, uni halolladim... Oradan bir kun o‘tgandan keyin ayiq qo‘shni suruvga hujum qilibdi.



1. Hikoyani ifodali o‘qing va mazmunini qisqartirib takrorlang.



II



U suruvni Chaqmoq degan bir cho‘pon boqar edi. Kiyikdek kelishgan yigit edi. Ayiq bir qo‘yni bosgandan keyin yugurib borib ayiqni tayog‘i bilan ura ketibdi. Bolang yig‘lagur tayoqni pisand qiladimi? Terisining qalinligi ikki enli keladi. Chaqmoq bir-ikki tayoq urgandan keyin ayiq unga hamla qilibdi. Chaqqon yigit edi, qochibdi. Lekin ayiqning bir panjasi yelkasiga tegib ketibdi. Biz keyin ko‘rdik, ko‘ylagi yelkasidan yirtilgan. Ayiqning tirnog‘i badaniga biroz botgan.

Unchalik qattiq yarador bo‘lgan emas. Ayiqdan qochib qutulib ketibdi. Lekin yelkasiga ayiqning panjasi tekkanda yomon qo‘rqqan ekanmi, yo ayiq quturgan bo‘lsa, kasali yigitga yuqdimi, xullas, bechora Chaqmoq og‘ir kasal bo‘lib, qazo qildi. Chaqmoq nobud bo‘lgandan keyin bizning juda g‘azabimiz keldi. Atrofdagi cho‘ponlar hammamiz yig‘ilib: «Buni bir yoqlik qilmasak, ertaga yana birortamizni o‘ldirib ketadi», – dedik. Qo‘shni qishloqdan bitta miltiq topildi. Lekin uning ikkitagina o‘qi bor ekan. Aksiga hech birimiz mergan emasmiz. Bu bilan ish bitmaydi, deb o‘yladim-u, qo‘y qirqimidan qolgan qirqliklarni oldim.

– Qirqlik deganingiz nima, bobo? – so‘radi Akrom.

Suyun ota chodirning bir chetida yotgan uchlari nayzasimon uzun qaychini ko‘rsatdi: – Mana shu nayzalarni baquvvat tayoqlarning uchiga mahkam

bog‘ladim. Qo‘shni cho‘ponlardan biri miltiqni o‘qlab qo‘ydi. Ayiqning kelishini kutdik. Bolang yig‘lagurning quturganini qarangki, bir kun qo‘tonga qorong‘i tushmasdan keldi. Bitta qo‘yga hamla qilib borayotganda, qo‘shni cho‘ponga: «Ot!» – dedim. Qo‘li qaltirab mo‘ljalni yaxshi ololmagan ekan. O‘q ayiq o‘tgan joydan besh-o‘n qadam beriga tushib, yerni bir changitdi.

Ikkinchi o‘q ayiqning tepasidan o‘tib borib, toshga tegdi. Lekin miltiq ustma-ust gumburlaganidan ayiq harqalay qo‘rqdi. Orqasiga burilib qochdi.

Biz qiyqirib ketidan quvdik. Nariyoqdan besh-oltita bo‘ribosar itlar shovqin solib chiqdi. Bu gal ayiq itlarning ustiga bosib borolmadi-yu, o‘ng tomonga burildi. O‘ng tomondan biz qirqlik bog‘lagan tayoqlarimizni ko‘tarib chiqdik. Ayiq shoshib qoldi. Chap tomonda tirik jon chiqolmaydigan toshjar bor edi. Biz bunday toshjarni zov deymiz. Shu zovning tagida – kun tegmaydigan chuqur jilg‘ada ichi kovak bo‘lib qolgan muz aralash qor bor edi. Ayiq qochib borib, ana shu muzning kovagiga kirdi. Kovakning muzi erib, teshilib qolgan joylari bor edi. Qirqlikni shu teshikka to‘g‘riladim-u, ayiqning biqinini mo‘ljallab, bor kuchim bilan sanchdim.

Kovakning ichidan ayiqning bo‘kirgani eshitildi. Mo‘ljalni durust olganimni shundan sezdim. Nayzani tortib olib, yana bir sanchdim. Ayiq bir gandirakladi-yu, orqasiga tisarildi, keyin muz ustiga ag‘anab tushdi...



1. Cho‘ponlar ayiqdan qanday qilib qutulishdi?
2. «Suyun otaning hikoyasi» mavzusida insho yozing.



KO‘KYOL

Nosir Fozilov

I

Ko‘klam nafasi esib, qatqaloq qorlar eriy boshlagan payt. Har yilgidek, bu paytda jamoa xo‘jaligimiz cho‘ponlari Sirdaryo bo‘yidagi yassi yaylovga o‘tov tikib, ko‘chib chiqishadi. Yaylov bilan qishlog‘imiz orasi unchalik olis ham emas. Juda ko‘p deganda o‘n chaqirim kelsa keladi, kelmasa yo‘q. Men bu joylarga Pachchaxon amakim bilan kuniga bo‘lmasa ham, kunora ovga chiqib turaman. Ko‘klam!

Albatta, bu paytda Sirdaryoning suvi toshib, yonveridagi to‘qayzorlarga, ko‘l-ko‘lmaklarga chiqadi. O‘rdak, g‘ozlar «g‘ag‘a»lashib bu joylarni qushlar bozoriga aylantirib yuboradi.

Bugun ham amakim ikkalamiz ikki otda, yo‘ldamiz. Bo‘rijar soydan o‘tib, yassi yaylovga boraverishda oldimizdan ikki kishi chiqdi: biri eshakda, ikkinchisi otliq.

Yaqinlashganda tanidim, ot mingani jamoa xo‘jaligining mol doktori – Qo‘chqor aka, eshakdagisi – bosh cho‘pon Iso bobo ekan.

– Assalomu alayko‘-o‘m, – dedi Pachchaxon amakim cho‘zib.

– Vaalaykum... – dedi Iso bobo qisqa qilib. – Yaxshi kelding, uka. Qani yur!

– Nima gap?

Qo‘chqor aka «yuravering» deganday o‘ng ko‘zini qisib qo‘ydi. Bir gap bo‘lsa kerak, deb amakim ik-

kalamiz otlarimizning boshini orqaga burdik. Qo‘chqor akam, amakim uchovimiz yonma-yon ketib boryapmiz. Iso bobo ancha oldinda.

– Samanga bo‘ri tashlanibdi, – dedi Qo‘chqor akam asta. Men angrayib qoldim. Samanni o‘tgan kuni o‘tov oldida ko‘rgan edim. Gijinglab turuvdi.

Iso bobo sal yurgandan so‘ng eshagini o‘ngga burib, butalar orasiga kirib ketdi. Biz yetib borgunimizcha, u kishi eshakdan tushib, nobud bo‘lgan saman jasadi yonida qaqqayib turar edi.

– Yo‘q, bunga ortiq chidab bo‘lmaydi. Chorasini ko‘rish kerak!

– Bitta bo‘rining ishi emasga o‘xshaydi-yov.

– E, to‘rtta. Eng zo‘ri Ko‘kyol, – dedi Iso bobo bo‘g‘ilib. – Qo‘lga tushirolmay dog‘daman. Qani ovchilar, qani miltig‘i bor azamatlar!

Bu gap Pachchaxon amakimga sal tegib ketdi shekilli, quloqchinini peshanasiga surib, yelkasini qashidi. Qo‘chqor akam indamay, egarining qoshiga osig‘liq xaltachasini olib, cho‘qqayib o‘tirib yecha boshladi. Undan bir shisha olib yerga qo‘ydi. Ichida qoramtir suyuqlik. Shishaning sirtiga yopishtirilgan oq qog‘ozga odamning bosh suyagi, uning tagida ikkita ilik suyagining ayqashib turgan surati solingan.

Keyin Qo‘chqor akam men ko‘rib yurgandan ikki-uch marta kattaroq bir shprisga haligi doridan to‘ldirib oldi-da, saman toy jasadining besh-olti joyiga ukol qildi.

– Ana, endi ertalab ko‘ramiz, – dedi Qo‘chqor akam qo‘llarini paxta bilan artayotib. – Bo‘ri bu

o‘limtikka kechasi tag‘in keladi. Yesa bas, qotadi. Ko‘ramiz-da, – dedi yana u bamaylixotir. – Qani, ketdik. Ertaga shu paytda kelamiz.

...Kechagi va’dalashgan joyimizga Pachchaxon amakim ikkovimiz vaqtliroq yetib keldik. Kechasi yerga bir qarich qalinlikda qor yog‘gan. Butalarning shox-shabbalari qordan egilib turibdi. Momiq qor usti qim-qiyg‘os ov izi... Ana, itnikidan kattaroq uchto‘rttacha iz, bo‘riniki bo‘lsa kerak.

Kechagi toy jasadi yotgan joyga kelsak, g‘alati voqeaning ustidan chiqib qoldik: Samanning jasadi qor tagida qolibdi.

Ustida bo‘rilar rosa dumalagan ko‘rinadi, o‘limtik atrofidagi qorlar payhon bo‘lib ketibdi. Toy bechorani tortqilashaverib tilka-pora qilib yuborishibdi. O‘n metrcha narida ikkita bo‘ri birining ustiga biri mingashib, shamday qotib qolibdi. Yana nariroq yurgan edik, bir butaning tagida uchinchisi yer tishlaganicha mukkasidan tushibdi...

Iso bobo aylanib, uchala bo‘rini ko‘rib keldi-da:

– Ana, aytmadimmi? Ko‘kyol dori isini biladi deb. Ko‘kyol yo‘q. U makkor shu yerda ham ayyorlik qilibdi. Endi nima qildik?

– Shu bugunoq iziga tushish kerak, – dedi Pachchaxon amakim. – Qopqonga chap bersa, miltiq bor joyga yo‘lamasa, dorining hidini olsa, buning yo‘li bor. Iziga tozi solamiz... Mansur, sen qishloqqa borib Oqshunqorni olib kel!..

1. Ovchilar nima uchun bo‘rilarning ketiga tushishdi? Bo‘rilar qanday vahshiylik qilishgan edi?
2. Ovchilar qanday hiyla ishlatishdi?

II

Oqshunqorni olib kelganimda quyosh ikki terak bo‘yi ko‘tarilib qolgan edi. Bo‘rijarga yetib borishim bilan meni Iso bobo, Qo‘chqor akam bilan Pachchaxon amakimlar kutib olishdi. Pachchaxon amakim tozining bo‘yinbog‘ini qo‘limdan olib, Iso boboga tutqazdi:

– Gap shunday, oqsoqol, – dedi Pachchaxon amakim. U shunday dedi-da, yelkasidagi qo‘shog‘iz miltig‘ini Iso boboga berdi. Keyin otiga sakrab mindi. – Mendan ishora bo‘lganda Oqshunqorni qo‘yib yuborasiz.

Pachchaxon amakim bilan Qo‘chqor akam otlarni yeldirishib Bo‘rijar tomonga ketishdi: qo‘llarida bittadan cho‘qmor. Iso bobo bilan men haligi joyda qoldik. Bizlar ham borsak bo‘laverar edi-ku, biroq hech zamonda eshak bilan bo‘ri quvlabdi, degan gapni eshitganmisiz? Tozini keltirish uchun borganimda otimni qoldirib, eshakda kelganimga achindim...

Iso boboning ko‘zi Bo‘rijar tomonda. Bir mahal birdan hayt-haytlagan, qiyqirgan ovozlar eshitildi. Naq yuragim qinidan chiqib ketayozdi, Iso bobo negadir tozining bo‘yinbog‘ini qo‘liga mahkam o‘radi. Oqshunqor bo‘lsa hamon yer tirnab, g‘ingshib, oldinga intilardi.

Birdan Bo‘rijarning yonginasidagi qalin changalzordan bo‘ri otilib chiqib, biz tomonga kela boshla-

di. Qo‘chqor akam bilan Pachchaxon amakim ancha orqada qolib ketibdi. Bo‘ri shunday yonginamizga kelib qolganida Iso bobo birdan ovozining boricha hayt-haytlab qoldi. Bo‘ri bo‘lsa boboning tovushini eshitib, yassi yaylovga qarab burildi. Orqada quvib kelayotganlar ham birpasda oldimizga yetib kelishdi.

– Aylantirib quvinglar! Bir tomonidan...

Otliqlar quvlab ketishdi.

– Aylantirib quvilsa nima bo‘ladi, bobo?

– Shunda uzoqlashib, yo‘l adashtirib ketolmaydi, – dedi bobo qo‘lini peshanasiga soyabon qilib. – Ko‘zim qurg‘ur o‘tmay qoldi... Ko‘rinadimi? Qara-chi?

– Huv ana, otliqlardan biri bo‘rining ro‘parasidan kesib chiqdi.

– Ha barakalla, ish bundoq bo‘pti, – dedi Iso bobo. Bo‘ri uchinchi bor aylanib kelishida Pachchaxon amakim bizga qarab qalpog‘ini ko‘tardi. Iso bobo bo‘yinbog‘ning bir tomonini bo‘shatib yubordi. Bo‘yinbog‘ tozining bo‘ynidagi mis halqadan «shir-r» etib chiqdi-yu, boboning qo‘lida qoldi. Hash-pash deguncha tozi Ko‘kyolga yetib borib, orqasidan bir yulqib qoldi. Bo‘ri orqasiga qarab tishlarini irjaytirdi-yu, yana hech narsa bo‘lmagandek, chopishda davom etdi. Iso bobo bilan men ham eshaklarimizni niqtashib, ularning ketidan baqirishib borardik.

– Endi chap tomoniga o‘tinglar! Bo‘yni qayishib qoldi, – deb qichqirdi bobo yo‘l-yo‘lakay eshagini battar niqtab.

Boboning maqsadiga tushundim. Bo‘ri doim bir tomonga qarab chopaversa, bo‘yni qayishib qoladi, deyishardi kattalar. Keyin chap tomonga o‘tib quvlaganda, u o‘ng tomonga qaragancha ketaverar ekan-u, orqasidan quvlab ketayotganlarga burilib qarolmas ekan.

Shu xayol bilan bobo ikkalamiz changalzordan jadallab o‘tsak, Qo‘chqor akam bilan Pachchaxon amakim ot ustida bir tup jing‘ilga tikilishgancha turishibdi. Oqshunqor bo‘lsa g‘ingshib jing‘il tupidan gir-gir aylanadi, biroq yaqinlasha olmaydi. Borsak, Ko‘kyol bo‘ri orqa tomonini jing‘ilga berib, cho‘qqayib o‘tirar, negadir orqa oyoqlarini ko‘tara olmasdi.

O‘zi ham rosa charchabdi.

– Ehtiyot bo‘linglar, qochib ketmasin, – dedi Iso bobo kelishi bilan. – Bu la’nati juda ayyor.

– Qochib bo‘pti! Oqshunqor orqa oyog‘ining paylarini qirqib yubordi.

– Endi buning jazosini miltiq bersin. Qani, oqsoqol, miltiqni bering-chi!

Iso bobo miltiqni olib Pachchaxon amakimga berdi. Amakim bo‘rini nishonga olganda men beixtiyor ko‘zlarimni yumdim. Birdan qarsillab ketma-ket o‘q uzildi. Bo‘ri qisqagina g‘ingshib, ovozi o‘chdi. Ko‘zimni ochganimda Ko‘kyol jing‘il tagida cho‘zilib yotardi...

1. Ovchilar Ko‘kyolni qanday qilib qo‘lga tushirishdi?
2. Itlarga, otlarga qo‘yiladigan qanday nomlarni bilasiz?

BAHOR

Qudrat Hikmat



Uchib yurar mayin shamollar
Yelpib-yelpib anhor yuzini.
Qirg‘oqlarda soyabon tollar
Oyna – suvda ko‘rar o‘zini.
Tong yellari o‘ynoqlab sekin,
Jiydazorga kirib yo‘qolar.
Maysa o‘tlar tebranib sekin,
Orqasidan kuzatib qolar.
Chumchuqlarning og‘zida cho‘p-xas,
In qo‘yishar tutlar ustiga.
Ko‘kni quchgan teraklar tinmas,
Oro berar kulrang po‘stiga,
Bedapoya yam-yashil o‘tloq,
Chinorlarda qushlar chug‘urlar.
Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq,
Chamanzordek hammayoq gullar.



1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Bahor tabiatini «mayin shamollar», «soyabon tollar», «tong yellari», «o‘tlar tebranib», «ko‘kni quchgan teraklar» iboralaridan foydalanib, qayta hikoya qiling.

BAHOR TA’RIFIDA

Yusuf Xos Hojib

Sharqdan bahor nasimi esib keldi, olamni bezamoq uchun firdavs yo‘lini ochdi.

Oq rang ketib, bo‘z yerni alvon rang qopladi, olam o‘ziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi.

Zerikarli qishni bahor nafasi haydadi, musaffo bahor yana o‘z hukmiga kirdi. Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to‘n kiydi, oq, sariq, ko‘k, qizil rangli harir yopinchiqlar bilan bezandi.

Bo‘z yer yuziga yashil parda tortdi, go‘yo Xitoy karvoni ipak matolarini har tomonga yoydi. Dala-tuz, tog‘, o‘nqir, past baland qirlar ko‘k va alvon rangga ko‘milib burkandi. Turli-tuman chechaklar qiyg‘os ochildi, olam ichi ifor va kofur isi bilan to‘ldi. Dimog‘larni chog‘ qiluvchi sabo yeli ko‘tarildi, butun olamga mushk-anbar hidi taraldi.

G‘oz, o‘rdak, oqqush, qilquyruqlar osmonni to‘ldirib qag‘illashib yuqori-quyi uchmoqda. Mag‘rur turnalar ko‘kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuya karvonidek uchmoqda.

Kaklik xushovoz bilan sayrab, qah-qah urib kulmoqda, uning tumshug‘i qon kabi qizil, qoshi esa qop-qora.

Qora qarg‘a tumshug‘ini ko‘pirtirib qag‘illaydi, uning ovozi tantiq qizning ovozi kabi yoqimsizdir.

Gulzorda bulbul ming ohangda navo qilmoqda, tun-kun tinmasdan yoqimli sayramoqda...

Osmonni bulut qoplagan, yomg‘ir yog‘moqda, gullar yuz ochib qah-qah urib kulmoqda.

1. O‘lkamizga bahor kelganini qayerdan bilamiz?
2. Matndan qushlar hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bahorda janubdan qanday qushlar uchib keladi?

JALA DARAKCHISI

Habib Rahmat

Bahor chog‘i osmonda
Shunday hol bo‘lar goho:
Gumburlab momaqaldiroq,
Berar xunuk bir sado.
Gumbur-gumbur,
gum, gumbur,
Gumbur-gumbur,
gum, gumbur.
Go‘yo toshlar sharaqlab,
Tusha boshlar yer sari.
Birdan chaqmoq charaqlab,
Porlar olov singari.
Gumbur-gumbur,
gum, gumbur,
Gumbur-gumbur,
gum, gumbur.

Menga esa tomosha,
Qo‘rqib, rangim o‘chmaydi.
Bilaman bu toshlarning
Bittasi ham tushmaydi.
Bu guldirak, guldirak,
Jaladan berar darak.



1. She‘rda momaqaldiroq nimaga o‘xshatilgan?
2. Qaysi faslda momaqaldiroq gumburlaydi? U nimadan darak beradi?

ERKACHOLNING O‘RIGI

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imga borib, qarindosh-urug‘lar huzurida bir necha kun mehmonda bo‘ldim. Tengqurlarim, yoshlar davrasida ishtirok etib, goh qizg‘in suhbatlarga qo‘shildim, goh aytilayotgan fikrlarning

«mazasini» shimayotgandek jimgina o‘tirdim. Yoshlar orasida ko‘proq bo‘ldim desam ham bo‘ladi, ularning beg‘ubor suhbatini yoqtiraman. Bir galgi suhbatda yigitchalardan biri: «Amaki, o‘rikdan yeng, og‘zingizda erib ketadi. «Qoraqandak» deyishadi bu navni, Erkacholning o‘rigidan», – deb qoldi. Yuragim xapriqib ketdi.

Shirin-shirin entika boshladim. Suhbatdoshlarimga qayta-qayta tikilaman, yuz-u ko‘zlarida yeyayotgan o‘riklaridan olayotgan huzurdan o‘zga ifodani sezmayman. Erkacholning kimligini ham, u kishi menga bobo bo‘lishini ham bilishmaydi, deb o‘ylayman. Axir u zotning olamdan o‘tganiga necha-necha yillar bo‘ldi-ku...

Otam olamdan o‘tgach, yigirma yoshida beva qolgan onam ikki-uch yildan so‘ng turmushga chiqib, mening tarbiyam bobomning ixtiyorida qolgan edi... Sutga to‘ymagan qo‘zi onasining orqasidan qolmaganidek, erta-yu kech bobomning ortidan ergashib yurardim. Hatto tunda ham bir o‘rinda yotardik. Yotishim bilan barmoqlarim bilan soqollarini tarab, ertak aytib berasiz deya, qiyin-qistovga olardim.

Bir kuni ertalab katta ko‘k eshagimizni yetaklab chiqib:

– Qani, orqamga mingash-chi, – deb qoldilar.

– Qayoqqa boramiz? – deya so‘rayman sevinib.

– Qashqar qishloqdan o‘rik ko‘chati olib kelamiz.

– O‘rik ko‘chati o‘zimizda bor-ku?

– U boshqasi, o‘g‘lim.

– Qanaqasi?

– Bas endi, jim ket.

– Yo‘q, oldin qanaqaligini ayting, keyin jim ketaman. Bo‘lmasa eshakning junidan tortaman.



– Qo‘y, bolam, junidan torta ko‘rma, yana yiqitsa, ishimiz bitmay qoladi... Qashqarda «Qoraqandak» degan o‘rik bor, faqat o‘sha yerda o‘sadi u. Quruq, suvsiz yerni xohlaydi, shekilli. Mevasi, hay-hay, biram shirin bo‘ladiki, tog‘alaringnikiga borganda yegansan-ku.

– Yeganim yo‘q, – deyman.

– Yegansan, cho‘ntagingni to‘ldirib solib berishardi-ku!

– Bobojon, nega «Qoraqandak» deyishadi?

– Quriganda shirasi ko‘p bo‘lgani sabab rangi qorayib qoladi-da.

Shu yo‘sin Qashqarga borib bir quchoq mayda ko‘chat olib qaytdik.

Hali-hali esimda, erta bahor, yerdan nam ketib ulgurmagan, tuproq ham xamirdek ko‘pchib turibdi. Tepalikning kungay tomonida chuchmomalar yerni yorib chiqa boshlagan, havo ham xiyla ayoz bir palla edi. Bobom bir hafta davomida tepalikni gir aylantirib, orasida besh-olti gaz joy qoldirib, chuqurchalar kovladilar. Men esa goh o‘tgan yilgi xas-xashaklardan yig‘ib, guldiratib olov yoqib yuboraman, goh katta qumg‘onni toshdan yasagan o‘chog‘imizga qo‘yib, varaqlatib choy qaynataman, goho nima maqsaddaligiga o‘zim ham tushunmagan holda yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga halloslab yugurib terga botaman.

– Kel endi, mana bu ko‘chatni ushlab tur, – deydilar ba’zan bobom. – Angrayma, nihol qiyshayib qolyapti.

– Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘ya qolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim.

– Yo‘q, bo‘talog‘im, hammasini ekib ketganimiz yaxshi. Katta bo‘lsa, mevasini odamlar yeb sen bilan meni duo qilishadi.

Shu yo‘sin nihollarni ekib tugatdik. Rahmatli bobom o‘sha yili ham, keyingi paytlarda ham xurjunning ikki ko‘ziga ikki ko‘zani solib, tepalikka suv tashiganlari-tashigan edi. Meni qanchalik suyib erkalasalar, nihollarni ham to hosilga kirguncha ana shunday erkalaganlari hali-hali esimda.



1. Erkacholning o‘rigi haqida gap ketganida nima uchun yozuvchi: «Yuragim xapriqib ketdi. Shirin-shirin entika boshladim», – deb yozadi?
2. «Yaxshidan bog‘ qoladi» maqolining hikoyaga qanday aloqasi bor? O‘z so‘zlaringiz bilan izohlang.





NAVRO‘Z – BAHOR BAYRAMI

Muzayyana Alaviya

Bahor! Hali yerlarda qor ko‘p. Qor kunduzlari quyosh nurida eriydi, yerga singiydi, kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib, undan bo‘z momiq g‘unchalar chiqadi. Bo‘g‘otda sap-sariq bo‘lib osilib yotgan sumalaklar quyosh shu’lasiga chidayolmay yosh to‘kmoqdalar. Tomchilar mart... mart... mart... deganday bo‘layotirlar.

O‘lkamizda bahor... Yilimiz o‘z umrini yangidan boshlayapti: jamiki mavjudod o‘z umrini shu bahordan boshlaydi. Shuning uchun ham qadimda yilning boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan hisoblaganlar va uni katta bayram qilganlar. Bu bayram – Navro‘z, ya’ni yangi kun deb atalgan...

Inson, eng avvalo, mehnat bilan sharaf qozonadi, shuning uchun ham dehqon ahlining qadimiy bayrami

– Navro‘zni har yili zo‘r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo‘lib qolgan.

Dehqonlar Navro‘zda dala ishlariga kirishganlar, ish hayvonlarini, asboblarini olib chiqib, yer hayday boshlaganlar.

Yurt soya-salqin bo‘lsin, o‘tgan-ketganlar rohatlansin deb, Navro‘zgacha yo‘llarga ko‘chat, bolalarga atab hovli va bog‘larga meva nihollari ekiladi. Ko‘chalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hammayoq supurib-sidiriladi. Uylar «ko‘tarilib», idish-tovoqlar yuvilib pokizalanadi.

Navro‘zga atab yoshlar rang-barang kiyimlar tikti-radilar. Qariyalarga sarpo tayyorlanadi, Navro‘z uchun uzum, qovun, olma kabi yoz mevalari saqlangan bo‘ladi. Shinni, qiyomlardan tashqari, turli qandolatlar, sumalak pishiriladi.

Navro‘z kirar kuni qo‘g‘irmoch qovurilib, turshak qaynatiladi. Moy, qaymoq, jizza, yong‘oq solib cho‘zma, chalpag-u kulcha, patir, lochiralar pishiriladi. Yalpiz, ismaloq kabi ko‘katlardan somsalar tayyorlanadi. Navro‘zda tug‘ilgan o‘g‘il bolaga Navro‘z, Murod kabi ism qo‘yilsa, qizlarning ismiga gul qo‘shilib aytiladi. Masalan, Gulasal, Gulbahor, Gulzamon kabi.

Navro‘z kunlari yoshlar keksalar oldiga navro‘zlik ko‘tarib salomga borishadi. Yalpiz, binafsha kabi xushbo‘y narsalarni olib borsalar, qariyalar qo‘llariga olib, «Esonlik-omonlik, hech ko‘rmaylik yomonlik, yanagi oylar-yillarga o‘ynab-kulib yetaylik», deb tilak bildirishadi.



1. Erta bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
2. Navro‘zgacha va Navro‘z kunlari qanday ishlar qilinadi?

BAYRAM URF-ODATLARI

- Navro‘zda uy-joyni tozalaydilar.
- Navro‘zga qadar daraxtlar tanasini oqlaydilar.
- Navro‘zda bug‘doy undirib, sumalak pishiradilar.
- Navro‘zda yaxshi niyatlar qiladilar.
- Navro‘zda Navro‘z taomlari pishiradilar.
- Navro‘zda araz-ginalarni unutadilar.
- Navro‘zda qarindosh-urug‘larnikiga boradilar.
- Navro‘zda g‘iybat qilmaydilar.



1. Siz Navro‘z bayramida qanday niyatlar qilasiz?
2. Oilangizda bayram urf-odatlaridan qaysi birlariga amal qilinadi?





YAXSHIDAN BOG‘ QOLADI

Ko‘klam kunlarining birida Sulton Husayn saroyda yolg‘iz o‘tiraverib, zerikib ketibdi. «Ancha vaqtdan beri Mir Alisherdan darak bo‘lmadi, borib holidan bir xabar olib kelay», deb, do‘sti yashaydigan mahallaga yo‘l olibdi.

Borib qarasa, Mir Alisher yeng shimarib bog‘ida ishlayotgan ekan. Buni ko‘rgan Sulton Husayn otidan tushib, do‘sti bilan so‘rashgach:

– Hormang, do‘stim! Nega shoirlar majlisida ko‘rinmay qoldingiz desam, bog‘bonlikni pesh qilibsiz-da! – debdi.

Mir Alisher ham belbog‘i bilan peshanasidagi terini artar ekan:

– Ko‘klam kelsa ko‘chat ek, degan ekan mashoyixlar. Shu bog‘dagi qurigan olmalarning o‘rniga uch-to‘rt tup yong‘oq ekayapman, – deb javob beribdi.

– Ey do‘stim-ey, qarigan chog‘ingizda bog‘ qilishning sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo‘lsak, bu yong‘oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz? Oxir umringizda mana shu bog‘dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqinda tinchgina g‘azal bitib o‘tiravermaysizmi?

– Do‘stim, yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko‘chatlarni o‘zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko‘chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekyapman. Bir kun kelib, shu ko‘chatlarning har biri azim daraxt bo‘ladi. Hosil bera boshlaydi. Shunda odamlar uning mevasidan totib: «Bu bog‘ Mir Alisherdan qolgan!» – deyishadi. Shuning o‘zi menga har qanday ne’matdan lazzatliroqdur, – deb javob beribdi.

Bu gaplarni eshitgan Sulton Husayn Mir Alisherning saxovatiga qoyil qolib, unga hamyon to‘la tilla chiqarib beribdi. Mir Alisher tillaga qarab turib:

– Ana ko‘rdingizmi, do‘stim! Ekayotgan ko‘chatlarim hozirdanoq hosil bera boshladi, – deya kulib qo‘yibdi.

Sulton Husayn Mir Alisherning hozirjavobligiga yana bir bor qoyil qolgan ekan.



1. Mir Alisher va Sulton Husayn o‘rtasidagi suhbatni rollarga bo‘lib, rivoyatni ifodali o‘qing.
2. «Yaxshidan bog‘ qoladi» degan hikmatning ma’nosini izohlang.



SO‘ZLOVCHI YOMG‘IR

Abdurahmon Akbar



Ishim o‘zi shunaqa:
Hamma joyga yog‘aman.
Qarindoshman qor bilan,
Shudringvoyga tog‘aman.

Yaylovdagi suruvdek
Ko‘kda kezib yursak ham,
Bizlar asli Yerlikmiz, –
Deydilar Bulut onam.

– Vatan yashnasin desang,
Bo‘lsin desang chaman, bog‘,
Bolam, unga kuzdamas,
Ko‘proq ko‘klam chog‘i yog‘.

Onajonim so‘zidan
Kayfiyatim chog‘ bo‘lib,
Shoshilaman zaminga
Bahor kelganda kulib.

Hazillashib tortqilab
Maysalar qulog‘idan,
G‘ubor-changni yuvaman
Gullarning yaprog‘idan.

1. She’rga nima uchun «So‘zlovchi yomg‘ir» deb nom qo‘yilgan?
2. Yomg‘irga onasining aytgan maslahatlarini o‘z so‘zlaringiz bilan gapirib bering.

DANAK ICHIDAGI DARAXT

Aziz Abdurazzoq

I

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan,
Bir yo‘q ekan, bir bor ekan.
Shahrimizda chaqqon, dono
Ra’no degan qiz bor ekan.
U yashagan hovli bog‘day,

Daraxtlari ko‘p-ko‘p ekan,
Yoz kelganda ko‘m-ko‘k ekan.
Hovlidagi bir tup o‘rik
Sara ekan, zotli ekan,
Asaldan ham totli ekan.

O‘sha o‘rik pishganida, Ra’no uni maza qilib yeb, ortiqchasini oftobga yoyib quritar ekan. O‘rik qurib, turshak bo‘lganida, oyisi uni xaltalarga solib, tikib qo‘yar ekan. Bir kuni Ra’no oyisi bilan birgalashib xaltalarga turshak solayotganida, turshak orasidagi bitta danak yerga tushibdi. Ra’no uni olib, osmonga otib o‘ynay boshlabdi. U danakni osmonga otar ekan-da, pastga tushayotganida kafti bilan ilib olar ekan. Har safar danak Ra’noning kaftiga tushganida, «shiq-shiq» degan tovush eshitilar ekan. «Iya, bu nima?» deb o‘ylabdi Ra’no. Shunda danakning ichida kimdir ingichka ovoz bilan gapiribdi:

– Bu men – daraxtman, – debdi haligi ovoz.

– Iya, daraxt ham danakning ichida bo‘ladimi? – debdi Ra’no hayron bo‘lib. – Daraxt bo‘lsang, qanaqa qilib danakning ichiga kirib olding?

Ra’no danakni chaqib ko‘rmoqchi bo‘libdi.

– Qani, ko‘ray-chi, qanaqa daraxt ekansan? – debdi u.

U shunday deb, danakni kattakon, sip-silliq toshning ustiga qo‘yibdi. Keyin uni bolg‘a bilan urgan ekan, sirg‘alib uchib ketibdi. Ra’no uni qidiribdi-qidiribdi, topolmabdi.

– Hay, mitti daraxt, qayoqqa qochding? – deb chaqiribdi.

Danak javob bermabdi.



1. Ertakda Ra’nolarning hovlisi nima uchun bog‘ga o‘xshatilishini izohlang.
2. Ra’no danakning ichidagi daraxt bilan nima haqida gaplashdi?



II

Shunday qilib, danak yo‘qolibdi. Bora-bora, Ra’no uni esidan chiqarib yuboribdi. Chunki uning ishi ko‘payib ketibdi. U har kuni dadasining yonida yurib gullarga suv quyibdi, oyisining aytganini qilib hovli supuribdi, tovuqlariga don beribdi. Xullas, ishdan qo‘li bo‘shamabdi. Shunday qilib, yoz o‘tib, kuz kelibdi, kuz o‘tib, qish kelibdi.

Bir kuni oyisi xaltalardan bittasini ochib, undagi turshakdan kompot tayyorlayotganida Ra’no o‘sha yo‘qolgan danakni eslabdi. O‘sha danak turshak tamom bo‘lgunicha Ra’noning esidan chiqmabdi. Turshak tamom bo‘lganida qish ketib, bahor kelibdi. Ra’no yana hovlida goh o‘ynab, goh dadasiga, oyisiga qarashibdi. Ular gul ekishibdi, daraxtlarning tagini chopib yumshatishibdi, eski xazonlarni tozalashibdi. Shunday kunlardan birida Ra’no ekin ekiladigan joyda o‘ynab yurib, yerdan kichkinagina nihol o‘sib chiqqanini ko‘ribdi. Tepasiga borib tomosha qilibdi. «Bu nima ekan?» deb o‘ziga o‘zi gapirgan ekan, nihol yosh bolaga o‘xshab ingichka ovoz bilan:

– Men daraxtman, – debdi.

Ra’no uni ovozidan tanibdi. U o‘sha – Ra’noning bolg‘asidan qochib qutulgan daraxt ekan.

– Men yo‘qotgan danak senmisan? – debdi Ra’no.

– Danak emasman, daraxtman, – debdi nihol. – Ko‘rmayapsanmi?

– Ko‘rib turibman, daraxtsan, – debdi Ra’no. – Danakning ichiga qanaqa qilib sig‘ding?

– Danakning ichida mag‘iz edim, – debdi nihol. – Yerda, qor tagida uxlab yotib, uyg‘ondim, keyin nihol

bo‘lib o‘sib chiqdim. Agar meni chaqib yeb qo‘ysang, hozir bunaqa daraxt bo‘lib o‘sib chiqmagan bo‘lardim.

Endi meni yulib tashlamasang, o‘sib, katta o‘rik daraxti bo‘laman.

O‘sha kundan boshlab Ra’no niholni qo‘riqlaydigan bo‘libdi. Hozir ham uni parvarishlab yurganmish. Kimki uni ko‘rmoqchi bo‘lsa, uch yildan keyin bahorda Ra’nolarnikiga borsin. O‘shanda danakdan chiqqan mitti o‘rik gullab turgan bo‘ladi.



1. Ertakning nima uchun «Danak ichidagi daraxt» deb nomlanishini tushuntiring.
2. Nima uchun Ra’nolarning hovlisidagi o‘rik daraxtini ko‘rmoqchi bo‘lganlarning uch yildan keyin kelib ko‘rishi aytilgan?





BAHOR

Dilshod Rajab

Qish qahrini so‘ndirib,
Ayozdan g‘olib kelgan.
Osmonlarni to‘ldirib,
G‘ildirak chalib kelgan.
Kamalak olib kelgan,
Kapalak olib kelgan.
Qozonlarni to‘latib,
Sumalak solib kelgan.
Ko‘klamoyim, marhabo,
Ko‘rkam oyim, marhabo.

Qarang, uchar varraklar,
Baland uchar varraklar.
Oppoq orzular kabi
Ko‘kni quchar varraklar.
Mahliyo boqar bizga,
Hatto osmon falaklar.
Bolalar – sheryuraklar,
Qizaloqlar – malaklar.
Ko‘klamoyim, marhabo,
Ko‘rkam oyim, marhabo.



1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Bahor shodligining sababini izohlang.



YASHASIN TINCHLIK,
BOR BO‘LSIN DO‘STLIK

TINCHLIK QUSHI HAQIDA MEN O‘QIGAN SHE’R

Shukur Sa’dulla



Erta bilan turaman,
Salqin shabada esar,
Keng yurtimni ko‘raman,
Ko‘nglimda quvonch kezar.
Kaptarlarimni ko‘ray, –
Deb boraman ohista.
Ozroq bo‘lsa ham, qo‘shay –
Tinchlik ishiga hissa.



Uchiraman,
Oq kaptar –
Intiladi ilgari.
Yarqiraydi qanotlar
Oq samolyot singari.
Ko‘z solaman:
Har uydan
Uchib chiqar oq kaptar,
Charx uradi osmonda,
Tinchlik! – deya solib jar:



Bilsin urishqoq, jallod,
Qotil, odamxo‘r, battol.
Tinchlik istar yosh avlod,
Katta-kichik, er-ayol!

Urush bo‘lmay jahonda
Tinchlik bo‘lsin barqaror!
Erkin uchsin osmonda
Tinchlik qushi – oq kaptar!..

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Shoir she’rda tinchlik ramzi bo‘lgan oq kaptarni nimaga o‘xshatadi?
3. «Qotil», «battol», «jallod», «odamxo‘r» so‘zlarining ma’nosini izohlang.

SHOIRA

Hakim Nazir

Shoiraning darsxonasida... chetlariga alvon hoshiya tortig‘liq sariq qog‘ozlar osib qo‘yilgan. Bular – «Maqtov yorliqlari».

Nima bo‘ldi-yu, keyingi paytda Shoiraning bahosi sal pasaydi. Oyisi Habiba opa bundan tashvishga tushdi. Oldinlari ham u qizining o‘qishini ko‘p o‘ylar, maktabdan tez-tez xabar olar, qizim darsiga qaray qolsin deb, uy yumushlariga ko‘pda alahsitmasdi. Shoira ikki fandan «uch», «to‘rt» baho olib kelgan kuni Habiba opa unga dedi:



– Endi, qizim, hamma ishdan butkul ozodsan. Maktabdan tashqari vaqtlar u yoq-bu yoqqa borishni ham qo‘y. Faqat darsingga qara.

Shoiraning dami ichiga tushdi. Qutbinikiga qandoq qilib borishni o‘yladi. «Ha, bo‘ldi, oyim yo‘g‘ida

boraman», – dedi ichida. Ertasiga o‘qishdan keyin, oyisi ishdaligida Qutbinikiga borib keldi. Indiniga ham shunday qildi. Ammo tezda bu sir ochildi.

Habiba opa bir kuni nima ham bo‘lib fabrikadan erta qaytdi. Qarasa, eshik qulf. Yon qo‘shnilardan so‘rasa, bilishmadi. Balki Qutbinikiga ketdimikin? Qutbiniki qayerda?

Habiba opa aniq bilmasdi. Avval maktabga borib, Qutbilar turadigan yangi uy manzilini aniqlab oldida, qo‘shni binoga qarab ketdi. Ikkinchi qavatga chiqdi. Qutbilarning uyini topdi. Eshikdan kirarkan, hang-u mang bo‘lib qoldi: egnida fartuk tutgan Shoira terlab-pishib kir chayib turibdi. Qutbi kirlarni ayvondagi arg‘amchiga yoyyapti, bir to‘da bolalar esa katta xonada chug‘urchiqday g‘ujg‘on o‘ynayapti...

Habiba opa birpas baqraygancha qarab qolgach:

– Voy, uyni yolg‘iz tashlab bu yoqda... nima qilyapsan? – dedi Shoiraga.

Shoira bir zum dong qotib turdi, keyin oyisiga yer tagidan qarab:

– Siz... ishdan qaytguncha... – dedi-yu, u yog‘ini aytolmadi.

Shu chog‘ Habiba opaning ko‘zi ro‘paradagi xonada cho‘zilib yotgan kampirga tushdi, unga yaqinlashib salomlashdi. Afti burishgan-qurishgan kampir arang qaddini ko‘tarib o‘tirdi-da, inqillagan ovozda:

– Iloyo baraka topsin qizingiz. Chaqqongina-lochinginа ekan. O‘rtog‘iga mehribonlik qilib, og‘irimizni yengillatyapti. Umri uzoq bo‘lsin. Siz ham maqsadingizga yeting, bolalaringizning rohatini ko‘ring, – deb qaltiragan qo‘llarini yuziga surtdi.

Habiba opa hech narsa tushuna olmasa ham hayronligini yashirdi, kampirdan hol-ahvol so‘radi. Kampir ko‘ngli bo‘shashib, hasratga tushdi: u yaqinda kelinidan ajralib, beshta go‘dak nevaralar bilan qolibdi, g‘amdan o‘zini oldirib qo‘yibdi. O‘g‘li esa ko‘proq safarda yurarkan.

Habiba opa ahvolni tushungandan keyin kampirni yupatgan bo‘ldi:

– Ko‘p g‘am yemang, buvijon. Birovning boshiga tashvish tushganda qarab turib bo‘ladimi!

Kutilmaganda u qizining yelkasini silab, dedi:

– Xafa bo‘lma, jon qizim. O‘rtog‘ingga qarashsang qarashgin-u, faqat darslardan orqada qolasanmi deb qo‘rqaman-da!

– Sira qo‘rqmang, oyijon! – dedi chehrasi ochilib Shoira va oyisini quchoqlab o‘pdi.



1. Shoira nima uchun o‘rtog‘inikiga borib, uy ishlariga yordam berishini oyisidan yashirdi?
2. Shoiraning qaysi fazilati sizga yoqdi? Hikoyadan Shoiraning fazilatlari tasvirlangan o‘rinlarni topib o‘qing.





DO‘STLIK

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Abduqodir Vovaga yozayotgan xatini boshidan o‘qib chiqqan edi, o‘ziga yoqmadi: nuqul keraksiz so‘zlarni yozibdi-yu, muhimlari qolib ketibdi. Yangitdan yozmoqchi bo‘lib, «Esingdami, Vova», deb boshladi. Boshladi-yu, yana yoza olmay, derazadan olmazorga tikilganicha, xayolidan o‘tgan davr kecha boshladi.

...Bir kuni kosadagi sutni to‘kib qo‘yib oyisidan qochib chiqqan edi. Ko‘chalarda bekor aylanish joniga tegdi. Keyin nima gaplar bo‘layotganini bilish uchun maktab hovlisiga kirgan edi, yangi ko‘chib kelgan rus tili o‘qituvchisining eshigi oldida loy qorib turgan malla sochli bolaga ko‘zi tushib qoldi. Abduqodir yaqinroq borib begona bolaning kurakchasini oldi-da, ura qochdi.

– Kerak bo‘lsa, olaver, – dedi to‘satdan o‘zbekchalab Vova, – menda ko‘p.

O‘sha kuni Abduqodir Vova bilan durustgina tanishib oldi. Ma’lum bo‘lishicha, Vovalar «Katta dovon» qishlog‘idan ko‘chib kelayotganlarida ularning yettita quyonlari o‘sha yerda qolib ketibdi. Bitta ona quyonni olib qaytishibdi. Hademay o‘qishlar ham boshlanib ketdi. Ikkovlari bir sinfda o‘qiy boshladilar. Endi ular birga dars tayyorlashar, birga o‘ynashar, bo‘sh vaqtlarida esa Vovaning quyonlariga o‘t keltirish uchun dalalarga chiqishar edi. Bir kun ikkovlari adir tomonda adashib ham qolishgan. Bu voqea 4-sinfda o‘qiyotganlarida yuz bergan edi. Ular olma keltirish uchun bog‘ga borishdi. Erta bahor, daraxtlar kurtak yoza boshlagan, hammayoqda o‘t-o‘lanlar ko‘karib, zilol suvli ariqlar bo‘yida chuchmomalar ochilgan payt... Ishlarini bitirib, endigina orqaga qaytamiz deb turganlarida, Vovaning yonginasida bir quyon bolasi sakrab, o‘ynoqlab qoldi:

– Quyon! – deya qichqirdi Vova va ortidan quvlay boshadi. Abduqodir ham yugurdi. Quyon bolasi o‘ynoqlab, oyoqlarini osmonga otib yugurar edi. Qorong‘i tushib, ko‘z ko‘rmay qolguncha quyonni quvlashdi.

Shu payt yaqinginada chiyabo‘rining chaqaloqning ingalashiga o‘xshash ovozi eshitilib, ikkovlarini ham cho‘chitib yubordi...

– Vova, – dedi Abduqodir o‘zidagi qo‘rquvni bosish uchun ataylab qattiq tovushda, – sen katta bo‘lsang quyonchi bo‘lmoqchimisan?

– Albatta, – dedi Vova tovushini undan ham baland qilib.

– Men bobomga o‘xshab bog‘bon bo‘lsam kerak, bobom: «Qarib qoldim, o‘rnimga seni qoldirmoqchiman», – deydilar.

...Bir nafasdan so‘ng xat ham tayyor bo‘lgan edi. Abduqodir pochta tomon yo‘l oldi.



1. Abduqodir xatida Vovaga nimalar haqida yozdi?
2. Daftaringizga do‘stlik haqidagi maqollarni yozing.





MANGU OLOV

Ravshan Isoqov

Mangu olov – yoniq xotira,
Yuraklardan o‘chmaydi sira.
O‘tar lip-lip ko‘z oldimizdan,
Goho tiniq, gohida xira.

Qadr nima, xotira nima?
Xotirasiz qadr bor, dema.
Shahidlarga el-yurt hurmati,
Ehtiromi, cheksiz himmati.

Jasorating abadiy, o‘g‘lon –
Sof oltinning baland qimmati.
Noming bugun zar varaqlarda,
Har bir yurak, qalb charoqlarda.

Mangu olov so‘nmagay toki,
Qalbimizda sen, ardoqlarda.



1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Mangu olov nimaning ramzi ekanligini ayting.
3. Shoir uni nima uchun «Yuraklardan o‘chmaydi sira» deb ta’riflaydi?



TO‘MARIS

Hamdam Sodiqov

Oks sohilida qo‘r tashlagan forslar hukmdori Kurush dala chodirida massagetlar huzuridan qaytgan elchining hikoyasini tinglar edi.

– Massagetlar g‘alati xalq ekan, shahanshohim. Kiyimlari juda oddiy. Ammo ularda oltin-kumush serob ekan.

Elchi shunday deganida sarkardalar o‘rtasida jonlanish boshlandi.

Axir ular shu oltin-kumush deya uzoq o‘lkalardan bu yerga kelishmaganmi?

– Oltin-kumush massagetlarda oddiy bir bezak, ro‘zg‘or buyumi qatorida ko‘rilar ekan. Men ko‘rgan hamma massagetning kiyimi-yu qurolida oltin bor.

– Oltin!

Lashkarboshi-yu mulozimlar ko‘zlarida yongan qiziqishdan ruhlangan elchi hikoyasini maroq ila davom ettirdi:

– Ammo bu sodda xalq sharob va may nimaligini bilishmas ekan. Ularda yigitlar qatori qizlar ham uloq chopisharkan. Qizlar chavandozlik va qilichbozlikda ulardan sira qolishmas ekanlar.



– Muddaomiz ne bo‘ldi? – sergak tortib so‘radi Kurush.

– Massagetlar malikasi taklifimizni juda ustalik bilan rad etdi. Shahanshohingizga men emas, yurtim kerak deb, endi hech qachon turmush qurmasligini aytdi. Sababi – o‘g‘li katta bo‘lib qolganmish.

– Necha yoshda ekan?

– O‘n sakkizda, shahanshohim. Uni ko‘rdim, juda kelishgan va bahodir yigit. Ismi Siparangiz.

Kurush atrofida o‘tirgan sarkardalar va mulozimlarga ko‘z yugurtirdi. Nigohi chekkada o‘tirgan mulozimga qadaldi.

– Sen nima maslahat berasan, Krez?

– Menga qolsa, bu xalq bilan yaxshi aloqa o‘rnatib, orqaga qaytaylik, shahanshohim! Massagetlar jangovar xalq ekanini bildik, ularning yigitlaridan yaxshi qo‘shin yollasa bo‘ladi. Agar ular bilan do‘st bo‘lsak...

Kurush Krezning gaplariga tan bersa-da, boshqa maslahatchilar fikrini ham bilishni istadi.

– Sen ne deysan, Artabaz?

Sarkarda Artabaz bosiqlik ila javob qildi.

– Yana bir elchi yuborib ko‘rsak. Taklifimiz yerda qolsa, urush bo‘lishini tushuntirsak, shahanshohim!

Kurush bu taklifni ma’qulladi.

Massagetlar malikasi To‘maris forslar yuborgan elchining so‘zlarini tinglab bo‘lgach, unga o‘z javobini aytdi.

– Biz urushdan qo‘rqmaymiz va o‘z ona yerimizni himoya qilamiz. Shohingga ayt.



1. Forslar hukmdori Kurushga massagetlar huzuridan qaytgan elchi nimalar haqida hikoya qilib berdi?
2. Forslar massagetlar yurtiga nima maqsadda hujum qilmoqchi bo‘lganini izohlang.





NAJMIDDIN KUBRO

Yo‘q emaskan, bor ekan. Och emaskan, to‘q ekan. Qadim zamonda, Amudaryo tomonda gul-u bo‘ston bir yurt bo‘lgan ekan. Tabiati g‘oyat so‘lim, eli halim ekan.

Tuprog‘i shu qadar hosildor ekanki, yolg‘ondan cho‘p qadasangiz, chindan daraxt bo‘lib o‘sarkan. Bu o‘lkaning donolari ham ko‘p ekan. Shayx Najmiddin Kubro donolar donosi sanalarkan. Xalq biror ishga qo‘l urmoqchi bo‘lsa, avvalo, u kishining maslahatini olarkan. Shuning uchun bu o‘lka urush-janjalga begona ekan. Yurtning nomi Xorazm ekan.

Xullas, bir kuni mo‘g‘ul degan bosqinchi Xorazmga yurish boshlabdi. Yo‘lida uchragan bog‘-u rog‘larni vayron qilibdi.

Uylarga o‘t qo‘yib, qo‘y-qo‘zilarni haydab ketib, shaharni o‘rab olibdi. Bosqinchilarning niyati bu go‘zal yurtga o‘zlari hukmron bo‘lib, uning xalqini qul qilib sotish ekan.

Ahli Xorazm qayg‘uga tushibdi. Botirlari jangga hozirlik ko‘ra boshlabdi. Shahar atrofida izg‘ib yurgan dushman esa qal’ani yorib kirish yo‘llarini izlarkan. Ayg‘oqchilardan biri mo‘g‘ullar sardoriga:

– Onhazrat, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, fikrimni ayturman, – deb ta’zim qilibdi.

– So‘yla!

– Shohim, bu yurtning donolari ko‘pdir. Donolar donosi shayx Najmiddin Kubro erur. Bu qonli jangda ul hazratning ko‘ngillari ozor topsa, zinhor g‘alabayi munavvarga yetmasmiz. Farmon bering, shayx biz tarafga o‘tsinlar. Ondin so‘ng biz yeng shimarib jang boshlaylik.

Shoh ko‘p o‘ylabdi. Nihoyat, taklifni qabul aylabdi.

– Maktub tayyorlang! Chopar yuboring! Shayx hazratlari biz tomonga o‘tsinlar!

Chopar maktubni olib, qal’a darvozalaridan ichkari kiribdi. Najmiddin Kubroga xatni tutqazibdi. Bir qancha muridlari bilan o‘tirgan shayx maktubni ovoz chiqarib o‘qibdilar:

«Shayx hazratlari, sizga bo‘lgan kamoli ehtiromimiz haqqi, oilangiz va yana o‘n kishi birla biz tarafga o‘ting! Osuda, farog‘atda umr ko‘rursiz!»

– Boring, yetkazing! Mening yaqinlarim o‘n kishidan ko‘pdur.

Ertasi kuni chopar yana xat keltiribdi: «Hazrat, mayli, yuz kishi birla o‘ting!» Shayx debdilar:

– Yetkazingkim, ular yuz kishidan ham ko‘pdur. Uchinchi kuni chopar yana maktub keltiribdi: «Mayli, ming kishi birla o‘ting», – deyilibdi xatda. Hazrat shunday debdilar:

– Mening yaqinlarim ming kishidan ham ko‘p erur. Butun xalq mening yaqinlarimdur.

To‘rtinchi kunning tongi otmabdi. El-u yurtning oromi yo‘q, yotmabdi. Quyosh hali boshin ko‘tarmay turib, dushman qal’a ichiga ot surib kiribdi. Kimning qo‘lida tayoq, kimning qo‘lida o‘roq, dushmanga hamla qilishibdi. Shayx Najmiddin Kubro ham qonli jangga kiribdilar. Dastlab bayroqqa tashlanibdilar. Zero, bayroqning egilgani – raqibning yengilgani.

Ana shunda shayx Kubro dushman bayrog‘ini pastga tortib turganlarida, bir bosqinchi shayxning o‘ng qo‘liga qilich solibdi. Qora qonga bo‘yalgan shayx ot ustidan qulab tushibdilar. Yov bayrog‘ida qolib ketgan o‘ng qo‘llari

esa hamon bayroqni changallab, pastga tortar ekan. Harchand urinmasin, yov shayxning qo‘llarida g‘ijimlanib turgan bayroqni sug‘urib ololmabdi. Dushman yengilibdi.

Shayx Najmiddin Kubro esa Vatan uchun bo‘lgan jangda shahid bo‘libdilar.

1. Bosqinchilar Xorazmga nima maqsadda yurish qildilar?
2. Dushman shayx Najmiddin Kubroga qanday maktublar yo‘llaydi?

SULTON MAHMUD VA BERUNIY

Nizomi Aruzi Samarqandiy

Bir kuni Sulton Mahmud G‘aznada Ming chinor bog‘idagi qasrining boloxonasida vazirlar, olimlar, shoirlar bilan o‘tirib, birdan Abu Rayhon Beruniyga nazari tushibdi va uni imtihon qilmoqchi bo‘libdi.

– Qani ayt-chi, munajjim, – debdi u Abu Rayhonga murojaat qilib, – men shu boloxona to‘rt eshigining qaysi biri orqali tashqariga chiqishim mumkin? Fikringni qog‘ozga yoz va shu yerdagilardan birontasiga, hatto o‘zimga ham ko‘rsatmay, men o‘tirgan ko‘rpachaning qatiga qistirib qo‘y!



Abu Rayhon usturlobni qo‘liga oldi, bo‘r va taxtacha keltirishlarini buyurdi. So‘ng oftobning balandligini o‘lchadi, jadval tuzdi, biroz o‘ylanib turib bir parcha qog‘ozga allanimalarni yozdi va uni to‘rt buklab sulton aytgan joyga yashirdi.

– Topdingmi? – deb so‘radi sulton.

– Topdim, – dedi Abu Rayhon qo‘l qovushtirib. Sulton qog‘ozga tegmadi, ustalarni chaqirtirib, boloxonaning kunchiqar tarafidagi devordan eshik ochishlarini buyurdi. So‘ng o‘sha eshikdan tashqariga chiqdi, hayal o‘tmay qaytib kirdi. O‘rniga o‘tirgandan keyin ko‘rpacha qatidagi qog‘ozni olib o‘qidi. Unda: «To‘rt eshikning birontasidan ham tashqariga chiqmaydilar, balki kunchiqar tarafdagi devordan yangi eshik ochtirib, o‘shandan chiqadilar», – degan so‘zlar yozilgan ekan. Sulton xunibiyron bo‘lib, g‘ulomini chaqirtirdi-da: «Abu Rayhonni qasr tomiga olib chiqib, yerga uloqtiringlar!» – deb amr qildi. Buyruq bajo etildi. Lekin u shu voqeadan sal ilgari sultonning ko‘rsatmasi bilan tortib qo‘yilgan soyabon ustiga tushdi.

Shuning uchun ham biron yeri lat yemadi. Sultonning amri bilan uni yana boloxonaga olib chiqdilar. Sulton unga mug‘ambirona boqib dedi:

– Ey, Abu Rayhon! Buni ham oldindan bilganmiding?

– Ha, bilgan edim, sultonim, – deb javob qildi Abu Rayhon.

– Buni nima bilan isbotlaysan? – Sulton unga o‘qday tikildi.

Abu Rayhon g‘ulomini chaqirtirdi. U xojasining daftarini keltirib berdi. Olim uning orasidan bir varaqni yirtib olib, sultonga tutdi. Sulton qog‘ozni o‘qib ko‘rib hayron bo‘ldi, boshini quyi solib sukutga ketdi. O‘sha varaqda:

«Meni falon kuni, falon joyda balandlikdan yerga uloqtirib yuboradilar. Lekin biron yerim lat yemay, sog‘-u salomat qolaman», – degan gaplar yozilgan ekan.

1. Sulton Mahmud Abu Rayhonning bilimdonligini qanday qilib sinab ko‘rdi?
2. Matndan Beruniyning o‘z taqdirini bashorat qilgan o‘rinlarni qayta o‘qing.

TANBEH

Xondamir

Amir Alisher 1488-yili Hirotning Jome masjidini ta’mirlashga urinayotgan edi. Binoning yozuvlarini yozib berish Mirak naqqosh taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Said Ruhulloga topshirilgan edi. U beparvolik qilib, ishga kechikibroq qo‘l urdi. Naqqoshlar unga qarab ish boshlolmay turdilar.

Ishboshilar Mirak naqqoshga nasihat ham, do‘q-po‘pisa ham qilib ko‘rdilar. Lekin foydasi bo‘lmadi. Ahvolni ulug‘ amirga arz qildilar. Amir qiziq bir tadbir ishlatdi. O‘sha paytda Mirak naqqosh Hirot atrofidagi Saidravon qishlog‘ida dam olayotgan edi. Amir Alisher Jaloliddin munshiyni chaqirtirib buyurdi:

– Said Ruhullo devoni oliyga besh ming dinor qaytarishi zarurligi haqida hujjat tayyorlang.

Maktub keltirilgach, amir Alisher Said Ruhullo tanimaydigan ikki navkarni chaqirtirib keltirdi. Hujjatni ularning qo‘liga topshirib buyurdi:

– Saidravon qishlog‘iga boringlar, Mirak naqqoshni topib, qayd etilgan mablag‘ni siyosat bilan talab qilinglar, o‘zlaringizni esa shahzoda Faridun Husayn mirzoning navkarlari deb tanishtiringiz.

Navkarlar Saidravon qishlog‘iga bordilar. Mirak naqqoshni topib, giribonidan oldilar va hujjatda ko‘rsatilgan mablag‘ni talab qildilar. Said Ruhullo hayrat dengiziga

cho‘mdi, so‘ng vaziyatni hisobga olib, yalinib-yolvorishga tushdi:

– Hoy birodarlar, meni masjidi jomega olib boringlar, agar hoziroq ishga tushmasam har narsa bo‘lay.

Navkarlar uning arz-dodini qabul qildilar. Said Ruhulloni Hirotga olib bordilar. Amir Alisher masjid qurilishi tepasida ekan. Naqqosh uning oyoqlariga yiqilib zorlandi:

– Kambag‘allik nihoyasiga yetgan shunday bir paytda besh ming dinorni bandaning zimmasiga yozibdilar. Bandaga rahm qilib, shu qog‘ozni qaytarib olish chorasini ko‘rsalar, abadul abad ota-bobomning rahmatiga musharraf bo‘lur edingiz.

Amir janoblari dedilar:

– Hujjatni qaytarish mushkul, shunday bo‘lsa ham bir qadar urinib ko‘rurmiz. Faqat shu shart bilanki, siz ham o‘n besh kun ichida ushbu muborak manzilning tashvishlaridan ko‘nglimizni tinchitib qo‘ysangiz.

Mirak naqqosh ulug‘ amirning shartini qabul qildi va mana bunday tilxat ham yozib berdi:

«Agar belgilangan muddatdan biror kun o‘tkunday bo‘lsa, banda mablag‘ xususida o‘zini uzrsiz javobgar hisoblaydi». Shundan keyin amir Alisher mulozimi Kamoliddin Husaynni chaqirtirib buyurdi:

– Mirak naqqoshni devonga olib boring, nima bo‘lsa ham uning nomiga yozilgan hujjatning bekor qilinishiga ko‘maklashing.

Said Ruhullo xursand bo‘ldi.



1. Alisher Navoiy Mirak naqqoshning yalqov va beparvoligiga qarshi qanday chora qo‘lladi?
2. Rivoyatdan Alisher Navoiyning qanday fazilatlarini bilib oldingiz?



NAVOIY BOBOMLAR

Tursunboy Adashboyev

Hirot tuprog‘ida voyaga yetgan,
«Qush tili» yo‘llarini munavvar etgan,
Yillar to‘zonidan sog‘-omon o‘tgan
Navoiy bobomlar
Buyuk odamlar.

«Xamsa»si ko‘ngilni shamdek yoritgan,
Tilimizni ko‘rkam, boy etgan,
Mag‘rib-u mashriq ham iftixor etgan
Alisher bobomlar
Qutlug‘ qadamlar.

Dostonlari chiqmagay yoddan,
So‘rang Majnun, Qaysdan, Farhoddan,
Layli, Shirin qaddi shamshoddan,
Navoiy bobomlar
Buyuk odamlar.

Mir Alisher otash zabondir,
Umri boqiy omon-omondir,
G‘azallari fidoyi – jondir,
Navoiy bobomlar
Qutlug‘ qadamlar.

Alisher Navoiyning xislatlari tilga olingan o‘rinlarni topib o‘qing va mazmunini so‘zlang.



HIDI, TILIMI VA MAZASIDAN

Falakning gardishi bilan Mirzo Bobur Hindiston degan yurtga borib qolib, u yerning sultoni bo‘libdi. Hindiston bog‘-rog‘i ko‘p, meva-chevaga boy yurt ekan. Bobur «mendan yodgorlik qolsin» deb, Hindistonning ko‘rkam joyiga bir bog‘ barpo ettiribdi. Dunyodagi eng katta bu bog‘ga turli yurtlardan nihollar keltirib ektiribdi. Xalq dunyoga dong‘i ketgan bu bog‘ga «Bog‘i Boburiy» deb nom qo‘yibdi.

Bog‘dagi daraxtlar hosilga kirib, biram meva beribdiki, ularni hech yerga sig‘dirib bo‘lmabdi. «Bog‘i Boburiy»ning bir chekkasi rezavor ekan. Unda piyoz, sabzi, bodring, tarvuz bitibdi. Ammo handalak bilan qovun bo‘lmabdi.

Shoh bir yil qovun ektiribdi, bitmabdi, ikkinchi yil ektiribdi, bitmabdi, uchinchi yil ham ektiribdi, baribir qovun bitmabdi.

Qovun bitishga bitibdi-yu, birinchi yili gulidayoq hosilini tashlab yuboribdi, ikkinchi yil palagi «o‘lib qolibdi», uchinchi yil pishib yetmay turib so‘lib qolibdi. Bobur shoh bo‘lsa qovun topishni talab qilaveribdi.

– Bu yil qovun ekib pishirmasanglar, hammangizni jazolayman, – deya g‘azablanibdi.

Bog‘bonlar nima qilishni bilmay rosayam boshlari qotibdi. Oxiri Bobur shohga bildirmay, uzoq Farg‘onadan qovun olib kelishga ahd qilishibdi. Bobur shoh bir necha oyga ovga ketib, qaytib kelgach, bog‘bondan qovun yo‘qlatibdi.

Bog‘bonlar Farg‘onadan keltirilgan qovunni olib borishibdi. Bobur shoh qovunni hidlab ko‘rib:



– Qayerda bitgan? – deb so‘rabdi.

– «Bog‘i Boburiy»da bitgan, – deb javob beribdi bog‘bon.

– Yo‘q, hidi boshqacha. Bunday hidli qovun bu yerlarda bitmaydi, faqat bir o‘lkada yetishadi, xolos. Sen meni aldayapsan, – debdi Bobur shoh.

– Aldagan bo‘lsam, bilganingizni qiling, shohim. Bu qovun «Bog‘i Boburiy»da bitgan, – debdi bog‘bon so‘zidan qaytmay. Bobur shoh qovunni hidlay-hidlay bo‘yiga mast bo‘lib, uni tilimlamoqchi bo‘libdi. Qovun pichoq tegar-tegmasdan tarsillab yorilib ketibdi.

Bobur shoh bog‘bonga qarab:

– Yolg‘on gapiribsan, qovunni qayerdan keltirganingni ochiq aytasan. Pichoq tegar-tegmay yorilib ketadigan qovun faqat men bilgan o‘lkadagina bitadi. Sen mening savolimga to‘g‘ri javob bermading, qahrim qattiqligidan qo‘rqmaysanmi? – debdi.

Bobur shohni aldab bo‘lmasligini bilgan bog‘bon rostini aytishga majbur bo‘libdi.

– Farg‘ona viloyatidan keltirdik, – debdi ko‘ziga jiqqa yosh olib.

Bog‘bonning gapidan Bobur shohning ko‘ngli buzilib, yig‘lab yuborishiga ozgina qolibdi.

1. Bobur shoh o‘zidan yodgorlik qoldirish uchun Hindistonda nima ishlar qildi?
2. Bog‘bonning gaplaridan nima uchun Bobur shohning ko‘ngli buzilganini ayting.

RIVOYAT

Naim Karimov

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda, Farg‘ona-yu Qo‘qon degan tomonlarda Usmon Nosir degan mashhur shoir maktabni bitirib: «Endi qaysi hunarning etagidan ushlasam? Qayerga borib o‘qisam-u, qaysi sohani tanlasam?» – deb kecha-yu kunduz o‘ylab yurgan ekan.



Kunlarning birida u soy bo‘yida xayol surib suvning jimir-jimir to‘lqinlariga qarab o‘tirgan ekan, shu payt osmondan tushibdimi yo suvdan chiqibdimi, uning yonida oppoq soqolli, uzun hassali bir nuroniy kishi paydo bo‘libdi.

– Nimani o‘ylayapsan, o‘g‘lim? – so‘rabdi u.

Usmon Nosir bir qarasa, tanish, bir qarasa, notanish odam. Ovozi ham goh tanish ovozga o‘xshasa, goh notanish kishining ovozi. Balki meni bo‘lmasa – otamni, otamni bo‘lmasa – onamni tanuvchi kishi bo‘lsa kerak, deb ochig‘ini aytibdi:

– Maktabni tugatyapman, ammo qayerga borib o‘qisam, kim bo‘lsam ekan, deb o‘ylanib turibman.

Shunda boyagi kishi so‘rabdi:

– O‘zing qaysi hunarni yaxshi ko‘rasan? Qaysi muallimning saboqlari senga ko‘proq ma’qul bo‘lgan?

– Men hamma darslarga qiziqqanman. Hamma hunar menga yoqadi. Ammo hamma narsadan ko‘ra ko‘proq kitob o‘qishni yaxshi ko‘raman, – debdi Usmonjon.

– Kitob o‘qish – hunar emas. Kitob o‘qish bilan tirikchilik o‘tmaydi. Lekin shunisi ham borki, kitob

o‘qishni juda yaxshi ko‘rgan odamlar borib-borib, o‘zlari ham kitob yozganlar.

– Men ham kitob yozsam deyman, – debdi Usmonjon.

– Niyating chakki emas. Lekin dunyoda kim ko‘p – shoir ko‘p, yozuvchi ko‘p. Ammo ularning hammasidan ham Navoiy chiqmagan. Agar sen yozgan kitoblarni o‘qib, odamlarning ko‘zi o‘tkir, qo‘li chaqqon, yo‘li ravon bo‘lishiga ishonsang, niyating ushalsin.

– Odamlar kitobni ko‘zlari o‘tkir bo‘lishi uchun emas, huzur-halovat topish, dardlariga malham olish uchun o‘qimaydilarmi, otaxon? – so‘rabdi Usmonjon. – Men shunday kitoblar yozayki, uni o‘qib, odamlarning bir-birlariga bo‘lgan mehri oshsin, xayollarida faqat bir-birlariga yaxshilik qilish istagi bo‘lsin.

– Aytganing kelsin, o‘g‘lim. Shunday kitoblar kerak. Faqat shuni yodda tutki, sen yashayotgan dunyo – shafqatsiz dunyo. Bilasanmi, o‘g‘lim, har bir kishining orqasidan uning soyasi yuradi. Bu soya emas. Bir kun bo‘lmasa, bir kun u shu odamning boshini yeydi. Ba’zan bitta soya ikkita, hatto uchta va undan ham ko‘p bo‘ladi.

Ular seni jar yoqasiga olib borib, tubsiz chuqurlikka otib yubormasin desang, hamisha oftobga qarab yur!

Shunday qilib, marhum otaning ruhi Usmon Nosirning shoirlik hunarini tanlab olishiga rizolik va fotiha bergan ekan.



1. Usmon Nosir otasining ruhi bilan nima haqda suhbatlashadi?
2. Ota ruhi bo‘lajak shoirga qanday maslahat berdi?





BOLALAR GURUNGI

Hans Kristian Andersen

I

Bir badavlat savdogar bolalarga ziyofat berdi. Ziyofat kechasiga boy va dongdor xonadonlarning bolalarini taklif qildi. Savdogarning ishlari yurishib turgan, o‘zi ham o‘qimishli odam edi.

Uning «aslzodalar» va «ulug‘vor boyonlar»dan tanish-bilishlari ko‘p edi. Shuningdek, na u va na bu mo‘tabar toifaga aloqasi bo‘lmagan kishilar bilan ham muomala qilar, tanish-bilish orttirar edi.

Xullas, uning uyida kattagina yig‘in bo‘ldi, lekin yig‘ilganlar faqat bolalar edi. Ular tinimsiz javrashar, tillariga kelganini qaytarmay gapirishar edi. Bolalar orasida g‘oyat chiroyli, lekin o‘taketgan dimog‘dor bir qizcha ham bor ekan.

Qizchaning jismiga kibr-havo ataylab kiritilmagan, balki maqtov-e’zozlar bilan singdirilgan ekan. Yana kimlar deng, qizchaning ota-onasi emas, unga qaraydigan xizmatkorlar uni shunday «kasal»ga chalintirib qo‘yishgan ekan.

Qizchaning otasi kamer-yunker bo‘lgan ekan. Qizchaning tasavvurida bu «favqulodda muhim» unvon bo‘lib tuyulgan.

– Men kamer-yunker qiziman! – derdi u.

Qizcha boshqa bolalarga o‘zining «aslzoda»lardan ekanini, oqsuyaklar nasabidanligini uqtirib, kimki oddiy toifadan bo‘lsa, undan biror e’tiborli odam chiqmaydi, derdi. Har qancha o‘qima, intilma, o‘rganma – baribir

qoning toza bo‘lmasa, aslzoda bo‘lmasang, hech narsaga erisha olmaysan, derdi.

– Familiyasi «sen» bilan tamomlanadigan kishilarni tilga olmasa ham bo‘laveradi – ulardan odam chiqmaydi! Biz – aslzodalar har qanday «sen»lardan nariroqda, qo‘lni belga qo‘yib, ularga qiyo boqmay turishimiz lozim.

Biroq savdogarning qizi undan ranjib qoldi, nega desangiz, uning otasining familiyasi Massen edi. Mana shu zahoti u boshini ko‘tardi-da, shunday dedi:

– Mening otamni bilasanmi, otam yuzta bolaning hammasiga novvot sotib olishi yoki uni sochib tashlab yuborishi mumkin. Sening otang shunaqa qila oladimi?

– Mana, mening otam esa, – dedi bir yozuvchining qizchasi, – sening otang haqida, hozirgi dunyodagi hamma otalar haqida ham gazetaga yozishi mumkin. Oyim: «Hamma otangdan qo‘rqadi», – deydi. Axir gazeta uning aytganini qilar ekan-da.

Shu so‘zlardan so‘ng qizcha takabburona kekkaygancha turib oldi, uning kibr-havosiga go‘yo olam torlik qilardi.



1. Bolalar o‘rtasida nima haqda munozara bo‘ldi?
2. Qaysi bolaning gapi sizga yoqmadi? Nima uchun?



II

Devor orqasida kambag‘al bir bola turgan ekan, u qiya ochiq turgan eshikdan astagina mo‘ralab bolalarga qaradi. Yumushini tugatgach, bolaga qiya ochiq eshikdan yasanib-tusanib olib, o‘yin-kulgi qilayotgan bolalarni tomosha qilishga ruxsat berildi. Shuning o‘zi ham kambag‘al bola uchun katta baxt edi.

– Qani endi men shularning o‘rnida bo‘lsam! – dedi o‘zicha havasi kelib, biroq shu paytda u mahmadonalik

qilayotgan qizchalarning gap-so‘zlarini eshitib qoldi. Bola ularning gapidan o‘sal bo‘lib, umidsizlikka tushishi mumkin edi. Nega desangiz, bu bolaning ota-onasida ortiqcha qora chaqa ham yo‘q edi-da, gazetaga obuna bo‘lishga kelganda, hech imkoni yo‘q edi. Bunday odamlar gazeta nashr etishni loaqal xayoliga keltira olarmidi?! Lekin eng yomoni shundaki, otasining familiyasi, demak uning o‘z familiyasi ham «sen» bilan tamom bo‘lardi. «Xullas, mendan hech qachon biror durust odam chiqmaydi! – deb o‘yladi kambag‘al bola. – Mana, baxtsizlik. Lekin mening tomirimdan chinakam toza qon aylanyapti! Bu haqda tortishib o‘tirishga o‘rin ham yo‘q!»

O‘sha kuni kechqurun bolalar gurungida mana shunday gap-so‘zlar bo‘lib o‘tgan edi. Oradan ko‘p yillar o‘tib ketdi, o‘sha bolalar allaqachon ulg‘ayib, katta bo‘lishdi. Bu vaqtda o‘sha shaharda xazinalar liq to‘la bir uy paydo bo‘ldi. Hamma shu uyga kirishni, undagi mo‘jizalarni tomosha qilishni istardi, hatto bu yerga o‘zga shaharlardan ham odamlar kelishardi.

Xo‘sh, savdogar uyiga yig‘ilishgan o‘sha bolalardan qaysinisi endi bu mening uyim der ekan-a? Bunday qaraganda «falonchi aslzodaniki bo‘lishi mumkin», deb aytish turgan gap, lekin bunday emas. Ha, bu uy o‘sha kuni kechqurun oshxonada xizmat qilib, eshikdan mahmadonalik qilayotgan bolalarga qarayotgan kambag‘al bolaniki!

Ana o‘sha bolaning familiyasi «sen» bilan tamom bo‘lsa-da, lekin undan katta odam chiqdi.



1. Siz bolalarning o‘zaro suhbatidan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Kambag‘al bolaning orzu-umidlari haqida gapiring.



BIR XURMACHA SHAVLA

Aka-uka Grimmlar

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir qizcha yashar ekan. Qizcha bir kuni o‘rmonga maymunjon olib kelish uchun boribdi. U yerda bir kampirni uchratib qolibdi va unga salom beribdi.

– Vaalaykum assalom, – debdi kampir qizchaga. – Menga maymunjoningdan bersang-chi!

– Marhamat, – debdi qizcha.

Kampir maymunjonni yeb bo‘lib:

– Sen menga maymunjon berding, men senga biron narsa sovg‘a qilaman. Mana senga xurmacha, sen faqat shuni aytishing kerak: «Bir, ikki, uch, xurmachada shavla pish». Shunda u shirin, mazali shavla pishira boshlaydi. Shundan so‘ng aytasanki: «Bir, ikki, uch, pishirishdan kech». Shundan so‘ng xurmacha shavla pishirishdan to‘xtaydi.

– Rahmat, buvi, – debdi qizcha va xurmachani olib, uyiga – onasining oldiga ketibdi.

Onasi bu xurmachani ko‘rib juda suyunibdi. Bir kuni qiz uydan qayoqqadir ketibdi. Onasi bo‘lsa xurmachani o‘z oldiga qo‘yib: «Bir, ikki, uch, Xurmachada shavla pish», – debdi. Xurmacha shavla pishira boshlabdi. Ko‘p shavla pishiribdi. Onasi to‘yib-to‘yib yebdi. Ammo u xurmachani shavla pishirishdan to‘xtatadigan sehrli so‘zni unutib qo‘yibdi. Xurmacha esa shavlani hadeb pishiraveribdi. Uy ham shavlaga to‘libdi, uyning tomi, hovli, hatto ko‘chalar ham



shavlaga to‘lib ketibdi, u hamon to‘xtamay shavla pishiraveribdi. Onasi juda ham qo‘rqib ketib, qizchasi huzuriga yugurib ketibdi. Lekin yo‘lda issiq shavla daryo bo‘lib oqqani uchun o‘tish juda qiyin ekan. Yaxshiyam qizchasi uydan uzoqda emas ekan. Qizcha ko‘chadagi voqeadan xabardor bo‘lib, darrov uyga yuguribdi. Juda qiyinchilik bilan kelib, eshikni ochibdi va: «Bir, ikki, uch, pishirishdan kech», – deb qichqiribdi.

Shunda xurmacha shavla pishirishdan to‘xtabdi. Ammo xurmacha shunday shavla pishiribdiki, kimning qishloqdan shaharga borishiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, unga shaharga yetguncha bu shavla kifoya qilar ekan. Hech kim bundan shikoyat qilmabdi. Chunki shavla juda shirin va mazali ekan.



1. Kampir nima uchun qizchaga xurmacha sovg‘a qildi?
2. Qizning onasi sehrli so‘zlarni unutib qo‘yishi qanday oqibatlarga olib keldi?





RUSTAM

Faxri Erdinch

I

Bozorga ketayotgan edim, ro‘paramdan yetti-sakkiz yoshlardagi oyoqyalang, chuvrindi bola chiqib qoldi. Yelkasiga o‘zidan ham katta savat osib olgan. U: «Meni yollang», – deb yalina boshladi. Ko‘p narsa xarid qilmoqchi emasdim, shuning uchun uni rad etdim. To‘g‘risini aytsam, yoshgina bolaga yukimni ko‘tartirib yurishdan nomus qildim. Biroq u yalinaverdi:

– Men ko‘p haq so‘ramayman, amaki, besh qurush bersangiz bas. Bugun meni hali hech kim yollamadi,

pakana bo‘lganim uchun yollashmayapti. Lekin baquvvatman!

Unga achinib ketdim. Cho‘ntagimdan besh qurush olib bolakayga uzatdim:

– Olaqol!

U burnini tortib qo‘ydi-da, hayron bo‘lib menga qaradi.

– Yukingizni olib borib qo‘yganimdan keyin berasiz.

– Olaver, men senga shundoq beryapman.

Bolakay xuddi ozor chekkan qush kabi hurpayib menga tikilib qoldi.

– Tilanchi emasman! – dedi u to‘satdan. – Yukingizni tashimasam, pulingizning nima keragi bor?

Nima deb javob qilishni ham bilmay qoldim.

– Uyim ancha olisda, – dedim nihoyat. – Ko‘p narsa xarid ham qilmayman. O‘zim olib ketaveraman.

– Mayli, olis bo‘laversin. Qancha xarid qilsangiz ham baribir. Nima sotib olsangiz, shuni ko‘tarib ketaveraman.

Endi ko‘nmaslikning iloji qolmagandi.

– Mayli, – dedim unga, – qani, ketdik.

U bilan suhbatlashgim keldi. Bozorda ko‘p yurmadik. Xarid qilgan narsalarimni uning yarim ham bo‘lmagan savatiga solib, uyga qaytdik. U boshini tik tutib (yuki uncha og‘ir emasdi), o‘ng tomondan yurib, katta, hashamdor uylarni, baland daraxtlarni va uzoqdagi qor bilan qoplangan tog‘larni tomosha qilib borardi.

– Isming nima? – deb so‘radim undan.

– Rustam. Qiziljahoman yaqinidagi qishloqdan kelganman. Yoshim to‘qqizda. Onam o‘tgan yili qazo qilganlar. Qishloqda amakim qolgan, lekin u menga yordam bermaydi. Shu sababli ham Anqaraga keldim, – dedi u bidirlab.

– Shoshma, shoshma, – deya gapini bo‘ldim, – buni sendan so‘rayotganim yo‘q.

– Bilaman, – deb javob berdi u. – Lekin baribir, so‘ragan bo‘lardingiz. Yaxshisi, birdaniga javob berib qutulganim ma’qul.

U bilan gaplashish qiyin ekan. Har bir so‘zida bolalarga xos bo‘lmagan tadbirkorlik sezilib turardi. Indamay qolganimni ko‘rib so‘zida davom etdi:

– Hamma surishtiraveradi, hammasiga gapirib beraveraman-u, baribir hech kimdan biror naf ko‘rmayman. Ha, mayli, bu yerda yana biroz chidasam bas! Besh-olti yil...

– Keyin nima bo‘ladi?

U mening yuzimga diqqat bilan tikilib so‘radi:

– Siz politsiyada ishlaysizmi?

– Nimalar deyapsan! Qo‘rqma, qani menga ayt-chi, besh yildan keyin nima qilmoqchisan?

– Turmaga o‘t qo‘yaman!

– Nega?

– Otamni qamab qo‘yishgan, uni ozod qilaman!

Kulgidan o‘zimni zo‘rg‘a tiyib qoldim. Ancha joygacha indamay bordik. Keyin so‘radim:

– Otangni nega qamab qo‘yishdi?

– Jandarmlar bilan olishgandi. Bittasini qishloqning naq o‘rtasida yerga qulatdi. Otam zo‘r mergan-da! Jandarmning qoq peshanasiga tekkizibdi. O‘n sakkiz yilga hukm qilishdi. Hali ikki yil ham o‘tgani yo‘q.

– Otang nega jandarmlar bilan olishdi?

– Soliq to‘lamagani uchun-da. Otamning puli yo‘q edi. Ular kelib ko‘rpalarni, qozonni, yopqini olib ketmoqchi bo‘lishdi. Shunda otam qo‘liga miltig‘ini olgandi, jandarmlar tiraqaylab qochib qolishdi. Otam, mana senlarga ko‘rpa,

deb bitta o‘q uzdi! Mana senlarga qozon, deb yana otdi! Mana senlarga yopqi, deb uchinchi marta o‘q uzdi!

Jandarmlardan biri dodlab yubordi-yu, ko‘chaning qoq o‘rtasida yerga qulab tushdi...



1. Rustam «xuddi ozor chekkan qush kabi» hurpayishi sababini izohlang.
2. U otasi haqida nimalarni gapirib berdi?



II

Uyga yaqinlashib qoldik. Yana nima deyishini kutib, Rustamga diqqat bilan tikildim.

– Menga bunaqa qilib qaramang, amaki. Biz qashshoq odamlarmiz, yuzlarimiz ham kir-chir.

Muyulishdan o‘tdik. To‘satdan bu bolani savati bilan qo‘shib bag‘rimga bosgim keldi. Lekin botinolmadim. Faqat iyagidan tutib ko‘zlariga tikilib qaradim.

– Rustam, sening yuzing hecham iflos emas, o‘g‘lim, – dedim unga. – Anqarada, butun Turkiyada senga o‘xshagan minglab shunaqa bolalar bor. Hammalaring aqli raso, sofdil, halol kishilarsiz. Kel, seni bir o‘pay.

Rustam sal jilmayib qo‘ydi:

– Qo‘ysangiz-chi, afandim! Bezgak kasalim bor. Yana sizga yuqib qolmasin!

– Bezgak yuqumli emas.

– Yo‘q, yuqumli. Menga onamdan yuqqan. Juda yomon kasallik. Bezgagim tutsa bormi, xuddi laylak tumshug‘ini taqillatgandek, tishim-tishimga tegmay qoladi...

Rustam go‘yo buning hech qanday qayg‘uli tomoni yo‘qdek kulib qo‘ydi.

– Rustam, otangni ko‘rgani boryapsanmi? – deb so‘radim undan.



– Har hafta boryapman. Unga sigaret eltib beraman. Qancha pul ishlasam, hammasiga sotib olyapman. O‘tgan haftada ishlarim yurishib ketib, ikki quti sigaret sotib oldim.

Uyga kirganimizdan keyin xotinim dasturxon yozdi. Rustamning yelkasidan savatni tushirib, ichidagi narsalarni oldik. Unga o‘n qurushli tanga uzatdim.

– Uyingiz yaqin ekan, yukingiz ham oz, – dedi u besh qurush qaytimni uzatib. Yana: «Tilanchi emasman», deyishidan cho‘chib qaytimini oldim. U ketishga hozirlandi.

– Kel, birga tushlik qilaqolaylik, Rustam! – dedim yelkasidan quchib.

– Mumkin emas, – deb javob berdi Rustam, – bugun bozor. Yana ikki-uch marta yuk tashishga ulgurishim kerak. Oppoq dasturxon yopilgan stol yonida o‘tirishga odatlanmaganman. Sanchqi bilan ovqat yeyishni ham bilmayman.

– Yaxshi bola ekansan, – dedim u bilan xayrlashayotib. – Lekin o‘ylab qo‘ygan ishing menga yoqmayapti.

– Qanaqa ishim?

– Axir sen turmaga o‘t qo‘ymoqchisan-a?

Rustam yana jilmayib qo‘ydi.

– Eh, amakijon-ey, shunga ishonib o‘tiribsizmi? Otamga dalda berish uchun buni o‘ylab topgandim. Unga shuni aytganimda, otam panjara ortida ham yig‘lab, ham kulib yubordi!..

Ko‘zim yoshlanib ketdi. Javondan ikki quti olib, unga uzatdim:

– Bu senga emas, otangga. Uni ko‘rgani borganingda, mendan salom aytib qo‘y...

– Amakijon, siz yaxshi odam ekansiz, – dedi u ko‘chaga chiqar ekan. U juda och qolsa, biznikiga kelishga va’da berdi.



1. Rustamning qaysi gap-so‘zlaridan uning qanaqa bola ekanini aniqladingiz?
2. U ortiqcha pulni olmay to‘g‘ri qildimi?





GULLIVERNING SAYOHATLARI

Jonatan Svift

Gulliver uyg‘onganida hammayoq yop-yorug‘ edi. U chalqanchasiga yotgani uchun oftob uning yuziga tushib turardi. U ko‘zini uqalamoqchi bo‘lgan edi, qo‘llarini ko‘tara olmadi, turib o‘tirmoqchi bo‘lgan edi, qimirlay olmadi. Uning qo‘ltiqlaridan ikkala tizzasigacha butun badani chilvirlar bilan chandilgan, qo‘l-oyoqlari ustiga esa chilvirdan qilingan to‘r tarang tortilgan, har bir barmog‘i chilvirlar bilan mahkam bog‘langan edi. Gulliverning uzun va quyuq sochlari ham yerga qoqilgan qoziqchalarga bog‘lab qo‘yilgan va chilvirlar bilan chandib tashlangan edi. Gulliver xuddi to‘rga tushgan baliqqa o‘xshardi. «Hali ham uyquda ekanman», – deb o‘yladi u.

Shu choq oyog‘i ustida allanima xuddi sichqon singari pildirab yura boshladi. Hash-pash deguncha bu narsa Gulliverning qorniga chiqib olib, undan ko‘kragida sekin-sekin emaklab yurdi va iyagiga chiqa boshladi. Gulliver «Bu nima ekan?» degandek, ko‘z

qirini soldi. Ajabo, bu nima o‘zi? Uning xuddi iyagi oldida kichkinagina odamcha, qo‘l-oyoqli chinakam odamcha turibdi! Boshida yaltiroq qalpog‘i, qo‘lida kamalagi bilan o‘qi, orqasida sadog‘i bor. Lekin bu odamcha bodringdan katta emasdi. Bundaylarning beshtasi Gulliverning kaftiga bemalol joylasha olardi. Birinchi odamcha ketidan yana shunaqa jimit merganchalardan qirqtachasi Gulliverning ustiga chiqib oldi. Gulliver hayronlikdan qichqirib yubordi. Odamchalar hovliqib-oshiqib, tum-taraqay qochishdi. Ular qochib ketayotganlarida qoqilib yiqildilar va o‘rinlaridan turib, o‘zlarini birin-ketin yerga otdilar.



Ikki-uch daqiqa hech kim Gulliverga yaqin kelmadi. Faqatgina uning qulog‘iga xuddi chigirtkalarning chirillashiga o‘xshash tovush eshitilib turdi. Lekin odamchalar tezda yana dadillanib, Gulliverning oyoqlariga o‘rmalab chiqa boshladilar. Ulardan eng jasuri esa Gulliverning betiga tirmashib chiqib, uning iyagiga nayza bilan bir turtdi hamda ingichka va aniq ovoz bilan:

– Gekina degul! – deb qichqirdi.

– Gekina degul! Gekina degul! – degan ingichka tovushlar har tomondan eshitila boshladi.

Gulliver ko‘pgina chet tillarni bilardi, lekin bu so‘zlarning ma’nosiga tushunolmadi.

Gulliver dastavval elchidan ovqat berib to‘yg‘azishini iltimos qilmoqchi bo‘ldi. Panjasini ko‘tarib, qayta-qayta lablariga tegizdi.

Oradan chorak soat ham o‘tmay, yuzlarcha hammol oziq-ovqat solingan savatchalarni narvonlar bilan Gulliver yoniga olib chiqib uyishdi.

U qovurilgan beshta ho‘kiz go‘shti, oftobda qoqlangan sakkizta qo‘y, to‘qqizta dudlangan cho‘chqa va ikki yuzdan ortiq g‘oz va jojalarni yedi. Savatchalar birpasda bo‘shab qoldi. Shu paytda odamchalar Gulliver qo‘liga ikki bochka vinoni yumalatib keltirdilar. Bochkalar juda katta bo‘lib, har biri stakandek edi.

Hash-pash deguncha Gulliver bir bochkaning, so‘ngra ikkinchisining qopqog‘ini ko‘chirib tashlab, bir-ikki qultum yutish bilan ikkala bochkani ham bo‘shatdi. Odamchalar hayron bo‘lib, barmoqlarini tishladilar. So‘ngra ular Gulliverdan bo‘shagan bochkalarni pastga tashlashini imo-ishoralar bilan so‘radilar. Gulliver ikkala bochkani birdaniga pastga tashladi.

Vinodan so‘ng Gulliverni uyqu bosdi. U uyqu aralash yon-veridagi odamchalarning o‘z ustidan u yoq-bu yoqqa chopib yurishlarini, tog‘dan tushgandek, uning ustidan umbaloq oshib tushishlarini, tayoqlar va nayzalar bilan qitiqlashlarini va uning u barmog‘idan bu barmog‘iga sakrashlarini sezib yotardi.

Gulliver ularga parvo qilmay yotaverdi va o‘tkir vinoning kayfi bilan tezda uxlab qoldi. Odamchalar xuddi shu paytni kutgan edilar. Ular ulkan mehmonni uxlatish uchun vinoga ataylab uxlatadigan dori qo‘shgan edilar.

1. Gulliver och qolganini odamchalarga qanday tushuntirdi?
2. Odamchalar Gulliverni nimalar bilan ovqatlantirishdi?

JIMJILOQ

Chingiz Aytmatov



Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir kampir bilan cholning bo‘yi jimjiloqday keladigan o‘g‘li bo‘lgan ekan. Oti ham Jimjiloq ekan. Jimjiloq otquloq bargining soyasida uxlab yotgan ekan, o‘sha yerda o‘tlab yurgan tuya bolani bargga qo‘shib yamlab yuboribdi. «Tuya yutganini bilmaydi, kavshaganini biladi», degan matal o‘shandan qolgan ekan.

Jimjiloq tuyaning qornida yotib bor ovozi bilan chinqirib yordam so‘rabdi. Chol bilan kampir bu ovozni eshitib qolib, tuyani so‘yishibdi-da, qornidan Jimjiloqni chiqarib olishibdi.

Bir kuni och bo‘ri Jimjiloqni uchratib qolibdi.

– Zig‘irday bo‘lib olib, buncha likillaysan, kimsan o‘zi? Ikki yamlab bir yutaymi? – debdi bo‘ri.

– Yo‘q, menga tegma, – debdi Jimjiloq, – o‘zingga qiyin bo‘ladi, it qilib qo‘yaman seni.

– Gaping buncha betayin, bo‘rining it bo‘lganini kim aytdi senga o‘zi? Mana shu gaping uchun seni yeyman, – debdi-da, bo‘ri bolani yutib yuboribdi. Jimjiloq bo‘rining chap ichagiga ham yuq bo‘lmabdi. Keyin nima yegani esidan chiqib ketibdi. Shu-shu bo‘ri bo‘ri bo‘lganiga pushaymon bo‘la boshlabdi. Qorni ochib otarga yaqinlashishi bilanoq Jimjiloq bo‘ri qornida turib, bor ovozi bilan «Ey, cho‘pon, uxlama! Men o‘g‘ri bo‘riman, qo‘ylaringni qiyratgani kelyapman!» – deb jar solar ekan.

Holdan toygan bo‘ri yerga ag‘anabdi, o‘zining qorin-biqinini jahl bilan uqalay boshlabdi. Jimjiloqqa nima?! Qaytanga undan battar avjiga chiqarmish:

– Ey, qo‘ychivonlar, chopinglar bu tomonga, meni savalanglar!

Cho‘ponlar bo‘rining oldida hozir-u nozir bo‘libdi. Bo‘rining esa dumini qisib qochib qolishdan boshqa iloji qolmabdi.

Hamma hayronmish. Bu qanday sir bo‘ldi o‘zi? Chunki qochib ketayotgan bo‘ri hadeb: «Meni quvib yetinglar», – deb baqirarmish.

Bo‘ri bir amallab qutulishga qutulibdi-yu, lekin qornini hech narsa bilan to‘ydira olmabdi.

Shunday qilib, bo‘ri qayerga bormasin, Jimjiloq hammani ogoh qilaveribdi. Bo‘rining toqati toq bo‘libdi. Ozib ketganidan eti borib ustixoniga yopishibdi. «Endi nima qilsam ekan, o‘z boshimga falokatni sotib oldim-ku, qayga bormay, endi menga tinchlik yo‘q», – deb yig‘lamoqdan beri bo‘libdi.

Jimjiloq bo‘lsa sekingina uning qornidan: «Toshmatga bor, qo‘ylari semiz! Boymatga bor, itlari qari! Ermatga bor, qo‘ychivonlari uyquchi», – deb ovoz chiqarib qo‘yarmish! Oxiri hiqillab yig‘lab: «Gaplaringga kirib bo‘pman, undan ko‘ra biron odamga boraman-da, it bo‘lganim yaxshi», – debdi.

Shunday qilib, bo‘ri it bo‘lib qolgan ekan.



1. Jimjiloq tuyaning qornidan qanday qutuldi?
2. U bo‘rini qanday jazoladi?



YOZ O‘TADI SOZ

YOZ

Shukur Sa’dulla

Keldi ko‘klam kabi soz,
Bizlar sevgan issiq yoz.
Ekin o‘sdi yerlarda,
Bug‘doy pishdi qirlarda.
Qip-qizardi olchalar,
Uzar yosh bolachalar.
Poliz to‘la bodring,
– Dehqon, tez uzib bering!
– Sabr qiling siz andak,
So‘yib beray handalak.
Quyosh ko‘kda nur sochar,
Yangi dunyolar ochar.
O‘rik yetilib pishar,
Yerlarga to‘p-to‘p tushar.
Olma, anor, nok, bodom,
To‘ymaydi yeb hech odam.

Yoz bo‘yi bizda har xil
Meva pishar to‘qson xil.

1. She‘rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Bolalar yoz faslini nima uchun sevishini izohlang.
3. Yozda qanday mevalar pishadi? Kuzda-chi?

NON QAYERDAN KELADI?

Qambar O‘tayev

Uyga kelganda mehmon
Oyim yozar dasturxon.
Oldiga non qo‘yishar,
Eng avval non yeyishar.
Mehmon uyga yo‘l olar,
To‘g‘ram-to‘g‘ram non qolar...
Yuz yoshdan oshgan bobom
Dadamlarga der:
– Bolam,
Non qayerdan keladi,
Bular qaydan biladi?
Qurit, qopga solib qo‘y,
Nobud qilma, olib qo‘y.
Bolalar ko‘chamizda
Qish, bahor, yoz-u kuzda
Non yeb yurishar gohi,

Tushar yerga ushog‘i.
O‘yga tolib qolar jim
To‘qsonga kirgan buvim,
Ko‘ziga yosh oladi:
– Non qayerdan keladi,
Bular qaydan biladi?
Bobomlar qotgan nonni
Boqsam, qiynalib joni
Hovonchalarda tuyar,
Ushog‘in o‘pib qo‘yar.



1. Bobo bilan buvi nevarasiga nimalarni gapirib berdi?
2. Nonni nima uchun qadrlash kerakligini tushuntiring.



OYDIN KECHA



Murod Xidir

I

Haligina olamni charog‘on qilib turgan quyoshni tog‘ning orti «yutib» yuboradi. Osmon avval qoramtir kul tusiga kirib, so‘ng asta-sekin yorisha boshladi.

Ozod bilan Nosirning ko‘nglini vahima xuddi oqshom g‘ira-shirasi singari bilinar-bilinmas bosib kela boshladi.

Ular tarbiyachilarining qanchadan qancha uqtirishlariga qaramay, tushdan so‘ng g‘oyib bo‘lishgandi. Rosti, tog‘ning so‘lim tabiati ularni bezovta qilib qo‘ydi. Ozod bilan Nosir hamqishloq emasmi, darhol til biriktirib sayrga chiqib ketishdi. Soylikdan o‘tib, to‘g‘ri qirdagi chakalakzorga yo‘l oldilar. Hilvirab pishgan yoki endi yetilib kelayotgan olma-yu o‘riklarning xushbo‘y hidi anqiydi. Yana anglab bo‘lmas, hidining o‘xshovi yo‘q mevalar juda ko‘p. Ozod yo‘lda o‘zining sinchkov va topqirligini namoyish qilardi:

– Manavi ko‘ksultonni qara-ya, salkam olxo‘ridek keladi.

– Sen oyog‘ing ostidagi yertutni ko‘rmapsan-a? – Nosir ham Ozod bilan «bellashadi». O‘zi tez payqab qolgan narsalarini bir-bir sanab, g‘ururlanadi: – Qara-chi, tuproqdagi manavi iz xuddi chaqaloqnikiga o‘xshaydi. Bilasanmi, bu kirpining izi...

O‘ngir o‘rmoni tugay boshladi. Endi qovjiragan maysa qoplangan qir boshlandi.

– Dam olamizmi? – dedi Ozod. Nosir bo‘lsa e’tiroz bildirdi:

– Dam oldingmi, tamom, bo‘shashasan.

Har ikkovini cho‘qqi chorlayotganga o‘xshaydi. Eh-he, quyidan – oromgoh tarafdan bu cho‘qqi shunchalar serviqor ko‘rinadiki... U go‘yo bulutlarga nish urib turibdi. Do‘stlarning yurgan sari cho‘qqiga havaslari ortadi, shu havas, istak ularning oyoqlariga mador indiradi.

Yo‘lda zerikmaslik uchun Nosir vaj izladi. U Ozodni gapga tutdi:

– Ozod, echkemardan qo‘rqasanmi? Yo‘qsa, nega uni ko‘rganingda qichqirib yubording?

Shu mahal ularning yo‘lini ko‘ndalang kesib, qariyb ikki gazcha olachipor ilon o‘tib qoladi. Ozod sal orqaga tisarilib:

– Nosir, to‘xtab tur! – dedi sekin. Ilon xas-xa-shakka aylanib qolgan maysalarni shitirlatib, zumda g‘oyib bo‘ldi.

Nosir o‘zining eti jimirlashib ketgan bo‘lsa ham Ozodga dalda bergisi keladi.

– Ilon bekordan bekorga yomonlik qilavermaydi. Ko‘pam qo‘rqib o‘tirma...

– Ehtiyotlik yaxshi-da, – garchi Nosirning gapiga ich ichidan g‘ashi kelayotgan bo‘lsa ham, Ozod be-parvolik bilan shunday dedi.

Nihoyat, cho‘qqiga o‘n-o‘n besh odim chamasi qolganda do‘stlar yugurib qolishdi. Ular marraga yetgach, o‘zlarini qushdek yengil sezishdi. Quyida yotgan soylik, bog‘lar ancha yaqinga – oyoq ostiga kelib qolibdi. Do‘stlar birpasdan so‘ng tosh ustiga cho‘nqayib o‘tirishdi. Xuddi tuya o‘rkachiga minib olgan kabi toliqqan oyoqlari orom oldi.

Ular quyoshni shu yuksaklikdan kuzatib qoldilar. Quyosh avval cho‘g‘lanib, gardishi aniq ko‘rindi. Bora-bora tunning qora yopinchig‘i uni ham to‘sib qo‘ydi.

– Endi qorong‘ida adashib ketamiz-ku!

Do‘stlarning har ikkalasida ham shu tahlika bor edi.

– Kel, qo‘l ushlashib yuraylik! – iltimos qilib qoldi Nosir. Ozod chap qo‘li bilan Nosirning o‘ng qo‘lini mahkam tutib oldi. Bo‘sh qo‘llarini peshanalariga to‘sib, shox-shabbadan himoya qilganlaricha, birmuncha yo‘l yurishdi.

Tunda qushlarning qichqirig‘i, hasharotlarning chirillashi, yana allanimalarning ahyon-ahyon shitirlatishlari do‘stlarni dahshatga soldi.

– Endi yurish befoyda, – dedi Nosir xo‘rsinib. – Yaxshisi, tunab qo‘yaqolamiz.

– Kunduzi tanasi kovak tutni ko‘rgan edik. O‘shanga kirib, tunaymiz, – dedi Ozod buni ancha burun o‘ylab qo‘ygandek.

– Bu gaping to‘g‘riku-ya, lekin to‘ng‘izlar odamning hidini bilarmikin?

– To‘ng‘iz hid bilmaydi. Lekin andak shovurni ham qulog‘i eshitadi. Buni allaqaysi kitobdan o‘qib bilganman. Tushundingmi? – jerkib javob berdi Ozod.

Do‘stlar beixtiyor yoriq, kovak tut daraxtini qidirishga tushdilar. Nihoyat, bir tut tanasini qo‘llari bilan pay-paslab, timirskilab ko‘rishdi.

– Iya, kovak ekan! – bo‘g‘ilib qichqirdi Nosir. Ular tutning «darcha» tarafiga o‘tib, kovakka kira boshlashdi.

Suhbat bo‘linib qoldi. Ilon bo‘lsa kerak, «darcha» yonidan pishillab otib ketdi. Ozod bunday daqiqada Nosirning nafas olayotganini ham sezmasdi. Birpasdan keyin do‘stlar «kulba»sining orqa tarafidan bir nimaning juda qattiq, sovuq chinqirgani eshitildi. Nosirning yuragi shunchalar dukullab tepa boshladiki, buni hatto Ozod eshitib turardi.

– U chinqiroq ilon bo‘lsa kerak, – deb qo‘ydi Ozod.

– Bo‘lsa bordir, ism-sharifini aytishing shartmi? – po‘ng‘illadi Nosir tirsagi bilan Ozodni nuqib.



1. Ozod bilan Nosir tog‘ yo‘lida qanday jonivorlarga duch kelishdi?
2. Do‘stlar jonivorlarning qanday xislatlari haqida so‘zlashdilar?



II

Ular anchagacha jim qolishdi. Bolalarning ko‘z o‘ngida o‘rmon bilinar-bilinmas yorishib kelardi.

Sekin-asta daraxt shoxlari orasidan shapaloqdek-shapaloqdek yog‘dular tusha boshladi. Bir-biri bilan ayqash-uyqash bo‘lib o‘tgan ko‘lankalar jonlangandek tebranib qo‘yardi.

– Endi-chi, jo‘nab qolamiz, Ozod, – shipshidi Nosir. Shunday dedi-yu, nafasi ichiga tushib ketdi. U ro‘parada nimaningdir pishqirganini, to‘p-to‘p tuyoq tovushini aniq eshitdi. Ular vujudlarini quloqqa aylantirib, ro‘paradan ko‘z uzmay qolishdi. Haligi pishillash ancha yaqinlashib qoldi, endi uning to‘nkadek tanasi ham ko‘zga chalindi.

– To‘ng‘iz... – dedi nafasi ichiga tushib Nosir.

To‘ng‘iz o‘rik danaklarini qars-qurs chaqib, mag‘zini yeb kelardi. U bir gilam o‘rnichalik joyning danaklarini terib yedi. Uning xanjardek tishlari oy yog‘dusida goho yiltirab ko‘rinardi.

To‘ng‘iz danaklarning hammasini yeb bitirdi, shekilli, tumshug‘ini yerga tegizgudek bo‘lib, so‘l tomonga yo‘rtib ketdi.

Ana shundan keyingina Nosirning dami chiqdi.

– Ozod, Ozod, ketmaymiz. Bu to‘ng‘izlardan ko‘pga o‘xshaydi. Odamni naq yorib tashlaydi, deb eshitganman, – yolvora ketdi Nosir yig‘lamsirab.

Ozod Nosirni tinchlantirdi. Ozod o‘zi seskanayotganini hech bildirmasdi.

Allamahalgacha o‘y-xayollar bilan qachon uyqu elitganini sezmadi... Bir mahal tizzalaridan bosh ko‘tarsaki, hammayoq yop-yorug‘ – tong otibdi. Uvushgan qo‘llari bilan ko‘zlarini uqaladi, sekin Nosirni turtkilashga o‘tdi.

– Nosir, uyg‘onsang-chi, ketdik.



1. Ozod va Nosir nima uchun tut kovagida tunab qolishdi?
2. «Ikki do‘st sayohati» mavzusida insho yozing.



BOBOMNING SOVG‘ASI

G‘ayratiy

Yozning issiq kunlari, quyosh tikka ko‘tarilgan. Bepoyon, ko‘m-ko‘k dala ko‘ksida yonayotgan quyosh shu’lasi laxcha cho‘g‘ bo‘lib, g‘o‘zalar ustida tovlanib ko‘rinadi. Murod bilan ikkimiz mayda-chuydani ko‘tarib, katta yo‘lning shimol tomonidagi yolg‘izoyoq yo‘ldan jo‘nadik.

Ertalabki shirchoyni bobom bilan birga ichdik. O‘rtog‘imni hovli orqasidagi bog‘ga olib chiqdim. Bir tarafi gulzor, ikkinchi tomoni turli meva daraxtlari bilan to‘lgan so‘lim bog‘dan sira chiqib ketgimiz kelmas edi. Oq olma, ko‘ksulton rosa pishgan ekan, yeb turgan edik, birdan allaqanday hayvonning qich-qirgani eshitildi. Murod taajjublanib atrofiga qaradi. Shu chog‘ bobomning bo‘rsig‘i esimga tushdi.

– Nimaning ovozi? – dedi o‘rtog‘im.

– Bobomning bo‘rsig‘i-ku!

– Rostdanmi? Qayerda? – dedi hayron bo‘lib Murod.

– Yur, ko‘rsataman, – dedim-da, do‘stimni boshlab, bog‘ etagidagi qafasda turgan bo‘rsiq oldiga olib bordim. Qafasda turgan bo‘rsiqni har tarafga sakratib, o‘ynatib maza qildik. Shu chog‘ tog‘am chaqirib qoldilar:

– Qani, mashinaga chiqinglar!

Jo‘nadik. Yo‘lda o‘rtog‘imning bo‘rsiqqa ishqiboz bo‘lib qolganligini bobomga asta aytdim.

– Uydagi bo‘rsiqni bundan to‘rt-besh yil ilgari tutganman. Ushlab olganimda ko‘zini ochmagan edi. Oxirgi ovim ham shu bo‘ldi, – dedilar bobom.

Mashina g‘o‘za o‘rtasidagi uzun yo‘ldan o‘tib bormoqda. Bobom kanal bo‘yidagi ikki qavatli oq binoni ko‘rsatib, zavqlandilar:

– Buni qara! Bir vaqtlar bu yerni Yantoqtepa derdik. Tulki, chiyabo‘ri va boshqa hayvonlarni ko‘pincha shu yerdan ovlar edik. Huv orqa tomondagi pastlikni «Itoqdisoy» deb atashardi.

– Elektr stansiyasiga qarab yur, bir kishiga uchrashib o‘tadigan ishim bor, – dedilar tog‘amga, o‘ng tomondagi yo‘lni ko‘rsatib bobom. Sho‘rbuloqdagi elektr stansiyaga yetib bordik. Mashinadan tushganimizni uzoqdan ko‘rib turgan kishi yugurib oldimizga keldi. Rustam aka ichkariga kirib, chiroyli ikkita qafasni ko‘tarib chiqdi. Qafasning bittasida mayna, ikkinchisida o‘rgatilgan sa’va bor ekan. Chiroyli qushlarni ko‘rib, Murod ikkimiz quvonib ketdik.

– Qayerdan tutding? – deb so‘radilar qafasni ko‘tarib bobom.

– Shu yerdan, sa’vani yerdan qor ketmasdan tutgan edim. Maynani yaqinda ilintirdim. Kerak bo‘lsa, yana topib beraman. Elektr stansiyasi bog‘ida juda ko‘p qushlar in qo‘ygan, – dedi Rustam aka.

Ketishga taraddudlanib turgan bobom qayta joylariga o‘tirdilar.

– Karimjon! – dedilar tog‘amni yonlariga chaqirib, – Rustam akang bergan qushlarni ko‘tarib to‘yxonaga borib yurmaylik, sen Murodjon bilan Obidni uyga olib borib qo‘y. Men shu yerda poylab o‘tiraman. Qaytib kelib, meni olib ketarsan.

Murod bilan ikkimiz qushlarni olib, mashinaga chiqib o‘tirdik.



1. Obid Murod bilan bobosinikida nimalarni tomosha qilishdi?
2. Bobo nabirasiga nimani sovg‘a qildi?



NIHOLLARNING NOLASI

Xudoyberdi To‘xtaboyev

Shaharda ko‘kalamzorlashtirish oyligi bo‘lib o‘tgandi. Shu oylik davomida ko‘chalar chekkasiga, ariqlarning bo‘yiga, xiyobonlarga naq uch yuz mingga yaqin mevali va manzarali ko‘chatlar o‘tqazishdi. Qiyqirishib ko‘chat ekkan o‘quvchilar biri ketmonini asfalt yo‘lda daranglatib sudrab, biri belkurakni yelkasiga teskari qo‘yib, yana bittasi bo‘sh chelakni childirma qilib chalib jo‘nab ketishgach, chinorlar bir-birlariga ma’noli qarab qolishdi.

Ertalab quyosh chiqishi bilan ikki yuz niholcha birdan uyg‘onib yengil-yengil chayqalishib, bir-birlariga salom bergandek bo‘lishdi, so‘ngra tunlari qanday o‘tganligini ayta boshlashdi.

– Mening tomirchalarim tuni bilan suv axtarib chiqishdi, – dedi bitta nozikkina niholcha.

– Men bo‘lsam tanam-u shoxchalarim bilan shabnam so‘rdim, – dedi boshqasi.

– Men yo‘lda karaxt bo‘lib qolgan ekanman, haliyam o‘zimga kelolmayapman, – deb qo‘ydi uchinchisi...

Nihollar bolalar suv to‘la chelaklarini ko‘tarib, bir-birlarini quvlashib, qiyqirishib kelib qolishar, deb kutishdi.

Nihollar sabr-u bardoshlari zo‘r, ancha-muncha qiyinchilikka parvo qilmaydigan, quyosh taftiga, suvsizlikka o‘rgatilgan edi.

Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdirib yubordi, o‘zi to‘kayotgan mo‘l-ko‘l harorat evaziga niholchalarning barg-u shoxchalaridagi eng so‘nggi namlikni ham so‘rib ola boshladi.

Niholchalar birdaniga: «Suv!!!» – deb baqirishga tushishdi. Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha to‘satdan qo‘rqib ketdi: yo‘q, o‘zi uchun emas! Mayda niholchalarga – ukalariga achinib ketdi. Bobokalonlari aytgan suv uchun, ozuqa uchun bo‘ladigan janglarning eng og‘ir pallasi boshlanganga o‘xshaydi. Bunday paytlarda odamlar yordamga kelishmasa, nozik niholchalarning ko‘pchiligi nobud bo‘lib ketishi mumkinku, axir! Nahotki, nahotki shunday bo‘lsa! Axir ular tog‘ bag‘ridagi sersuv, bahavo adirlarda maza qilib o‘sishayotgan edi, o‘z hollariga qo‘yib berishganda, bu yerlarga majburan ko‘chirib kelishmaganda, qanday soz bo‘lardi-ya!



– Suv!!! – degan faryod hammayoqni qoplab ketgandek bo‘ldi yana. Novcha niholcha shoshib qoldi, nima qilishini, bir tomchi suvga zor bo‘lib jon berayotgan nozik niholchalarga qanday yordam berishni bilmasdi u.

Ertasiga ertalab niholchalarning ko‘plari uyg‘onmadi, tungi shabnamga yetolmay namozgar pallasidagi dimlikda birin-ketin nobud bo‘lishgan ekan...

Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha bu judolikdan dahshatga tushdi-yu, lekin o‘zini yo‘qotmadi. «Yo‘q, – deya chayqalib ketdi novcha niholcha, – men o‘lmasligim kerak, men yashayman, yashayman!»

– Suv! – deb chinqirib yubordi...

Ko‘chadan shoshilib mashinalar o‘tib borardi. Cholar, kampirlar o‘tyapti. Yigitlar, qizlar o‘tyapti. Bolalar, qizchalar o‘tyapti...

Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi. U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofiga qaray boshladi. «Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltda daranglatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmikan», – deb yana bir bor ko‘cha boshiga ko‘z tashladi, yomg‘ir tomchilaridan umidvor bo‘lib, bulut bo‘lmasa ham ko‘kka tikilib, uzoq qotib turdi... Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o‘zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash’asi bilan mast bo‘la boshladi, keyin o‘sha kun – haddan tashqari qizdirib yuborgan 19-iyun kuni kunduz soat oltilarda jon berdi.

1. Nihollar nima uchun nola chekishdi?
2. «Nola chekdi» iborasini qanday tushunasiz?

SUV BILAN SUHBAT

Zafar Diyor

– Hoy, sen, jiyron toychamdek
O‘ynab-o‘ynab oqqan suv,
Dalalarga bayramdek
Guldan bezak taqqan suv.
Quloq solgin so‘zimga,
Nega buncha shoshasan?
Qayerdan bu kelishing,
Qirg‘oqlardan toshasan?

– Yaxshi bola, toychangdek
O‘ynab-kishnab kelishim,
Qir, adirlar oralab
Shamol kabi yelishim,
Ko‘rasanmi, hu o‘sha
Oppoq qorli tog‘lardan,
Shoshib oqib kelaman
Dalalardan, bog‘lardan.

1. She’rda suvning oqishi nimalarga o‘xshatiladi?
2. She’rni rollarga bo‘lib, ifodali o‘qing.

IZOHLI LUG‘AT

akka-tikka – talon-taroj
amiralmo‘minin – qadimgi davrdagi xalifalar unvoni
arkoni davlat – saroy xodimlari
battol – o‘taketgan yovuz
bir miri – besh tiyin
bir tanob – qadimda 39,9 metrga teng o‘lchov birligi
bo‘ysara – saf tortmoq
bo‘zlashmoq – ho‘ngrab, uvvos tortib yig‘lamoq
boltaning muhrasi – boltaning orqasi
bulduruq – cho‘l qushi, qorabovur
farmonbardor – amr qiluvchi, buyruq beruvchi
firdavs – jannat bog‘i
gerb – davlat, shahar, tabaqalarning bayroq, pul, muhrlarida tasvirlangan alohida farqli belgisi
giribon – yoqa, bo‘g‘iz
gubernator – viloyat hokimining nomlanishi
hammol – yollangan ishchi
hison – ehson, foyda
hotamligi – hotamtoyligi (saxiy, saxovatli, olijanob)
jilovdor – otlarga qarash uchun ajratilgan askar
kamer-yunker – saroy ahllariga beriladigan quyi unvon
kofur – oq va xushbo‘y modda
kulli jahon – butun olam
mangulik – abadiylik, abadiyat
matal – tugal ma’no ifodalamaydigan obrazli ibora, hikmatli so‘z
munshiy – asoslovchi, yozuvchi, muallif
salloh – qassob
saxovat – qo‘li ochiqlik, oliyhimmatlik
serbar – eni katta, eni keng
suyg‘un – bug‘u
usturlob – osmon jismlarini o‘rganuvchi asbob
vojib – bajarish shart bo‘lgan ish
voqif – xabardor
o‘takam yorildi – nihoyatda qo‘rqdim
g‘ulom – xizmatkor
shovvoz – har qanday ishni eplay oladigan odam; azamat, polvon
chaqirim – 1,06 kilometrga teng uzunlik o‘lchovi

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

ISTIQLOLIM – ISTIQBOLIM
Mangulikka tatigulik kun (Matn). S. Barnoyev. 3
Iqboli buyuksan (She'r). A. Oripov. 4
Qodir boboning orzusi (Matn). T. Hayit 5
Istiqlol bolalari (She'r). D. Rajab 7

O'ZBEKISTON – VATANIM MANIM
Serquyosh o'lka (She'r). Z. Diyor. 8
Xarita (Hikoya). N. Norqobil. ... 9
Mardlik va aql yorug'ligi (She'r). M. A'zam. 14
Kichik Vatan (Hikoya). A. Jo'rayev 15
Gulg'unchalarmiz (She'r). M. Omon 18

SAXOVATLI FASL
Kuz (She'r). Sh. Sa'dulla. . 19
Qovun sayli (Hikoya). Sh. Sa'dulla 20
Dehqon (She'r). S. Rahmon.. 23

MA'NAVIYAT – QALB QUYOSHI
Salomlashish odobi (Pand-noma). Husayn Voiz Koshifiy ... 24
Odamdan nima qoladi? (Dostondan parcha) Yusuf Xos Hojib 25
Eng ulug' fazilat (Ertak) 26
Har kim ekkanin o'rar (Ertak). M. Abdurashidxonov .. 29
Chaqimchiga «mukofot» (Ertak) 30
Omonatga xiyonat (Ertak) 32
Ikki saxiy (Ertak). M. Xidir 34
Qo'zichoq (Masal). R. Tolib ... 37

XALQ OG'ZAKI IJODI
Qo'shiqlar qanotida
Boychechak (She'r) 40
Oftob chiqdi olamga (She'r) .. 41
Xo'p hayda (She'r) 41
Ertaklar mamlakatida
Ilm afzal (Ertak) 42
Davlat (Ertak) 47
Ko'zacha bilan tulki (Ertak) ... 49
Ochko'z boy (Ertak) 53
Hiylagarning jazosi (Ertak) 55
Hunarsiz kishi o'limga yaqin (Ertak) 57
Ziyrak uch yigit (Ertak) 61
Adabiy ertaklar
Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak (Ertak). A. Obidjon 67
Baqa bilan taqa (Ertak). A. Abdurazzoq 71
Laqma it (Ertak). Sh. Sa'dulla 75
Maqollar 80
Topishmoqlar 81

KUMUSH QISH
Qish to'zg'itar momiq par (She'r). Q. Hikmat 82
Rangin qorlar (Ertak). Olloyor .. 83

Qish (She'r). T. Adashboyev ... 86
Qor odamning sovg'asi (Hikoya). O. Husanov 86

VATANIMIZ O'TMISHIDAN

Kitobga ixlos (Qissadan parcha). M. Osim 90
Pahlavon va shoir (Rivoyat). H. Hamidov 94
Alisherning yoshligi (Qissadan parcha). Oybek 96
Shum bola (Qissadan parcha). G'. G'ulom..... 101
Shahzodaning bolaligi (Hikoya). Erkin Samandar 104

NIMA YAXSHI-YU, NIMA YOMON?

Odobli bo'lish osonmi? (Ertak). A. Obidjon 107
Qodir bilan Sobir (Hikoya). H. Nazir 110
Xatosini tushungan bola (Hikoya). X. To'xtaboyev..... 113
Nurxon bilan Burhon (She'r). M. A'zam 117
Qo'rqoq (Hikoya). S. Anorboyev..... 118
Yaxshi bo'ldi (Hikoya). N. Fozilov 121
Sharq hikoyasi (Ertak). A. Oripov 123
Saxiy (Rivoyat). Muhammad Avfiy..... 125
Chumchuq bilan chumoli (Ertak). A. Abdurazzoq..... 126
Yolg'onchining izza bo'lishi (Rivoyat) 128
Qush tili (She'r). Mirtemir 130
Yomg'ir (Hikoya). F. Musajonov..... 131
Ikki irmoq (Masal). H. Po'latov..... 134

HAYVONOT OLAMIDA

Mo'jiza (Hikoya). R. Bekniyoz..... 136
Xatarli uchrashuv (Hikoya). P. Qodirov 138
Ola buzoq (She'r). G'. G'ulom 140
Tushovli toy (Hikoya). N. Fozilov 141
Jo'ja (She'r). A. Obidjon 143
Ayiqni yenggan cho'pon (Hikoya). P. Qodirov..... 144
Ko'kyol (Hikoya). N. Fozilov ... 148

ZUMRAD BAHOR

Bahor (She'r). Q. Hikmat..... 154
Bahor ta'rifida (Rivoyat). Yusuf Xos Hojib 155
Jala darakchisi (She'r). H. Rahmat..... 156
Erkacholning o'rigi (Hikoya). X. To'xtaboyev..... 156
Navro'z – bahor bayrami (Hikoya). M. Alaviya..... 159
Bayram urf-odatlari 161
Yaxshidan bog' qoladi (Rivoyat) 161
So'zlovchi yomg'ir (She'r). A. Akbar 163
Danak ichidagi daraxt (Ertak). A. Abdurazzoq..... 163

Bahor (She'r). D. Rajab..... 166

YASHASIN TINCHLIK, BOR BO'LSIN DO'STLIK

Tinchlik qushi haqida men o'qigan she'r (She'r).
Sh. Sa'dulla 167
Shoira (Hikoya). H. Nazir 168
Do'stlik (Hikoya).
X. To'xtaboyev..... 170
Mangu olov (She'r).
R. Isoqov..... 172

AJDODLARIMIZ – FAXRIMIZ

To'maris (Rivoyat). H. Sodiqov.. 173
Najmiddin Kubro (Rivoyat).... 175
Sulton Mahmud va Beruniy (Rivoyat). Nizomi Aruzi Samarqandiy..... 177
Tanbeh (Rivoyat). Xondamir.. 179
Navoiy bobomlar (She'r).
T. Adashboyev..... 181
Hidi, tilimi va mazasidan (Rivoyat) 182
Rivoyat (Rivoyat).
N. Karimov 184

JAHON BOLALAR ADABIYOTI

Bolalar gurungi (Ertak).
H. K. Andersen 186
Bir xurmacha shavla (Ertak). Aka-uka Grimmlar.... 189
Rustam (Hikoya). F. Erdinch.. 190
Gulliverning sayohatlari (Qissadan parcha). J. Svift 195
Jimjiloq (Ertak). Ch. Aytmatov.. 198

YOZ O'TADI SOZ

Yoz (She'r). Sh. Sa'dulla 200
Non qayerdan keladi? (She'r). Q. O'tayev..... 200
Oydin kecha (Hikoya).
M. Xidir..... 201
Bobomning sovg'asi (Hikoya). G'ayratiy 206
Nihollarning nolasi (Hikoya).
X. To'xtaboyev..... 208
Suv bilan suhbat (She'r).
Z. Diyor 210
Izohli lug'at..... 211

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

**SAFO MATCHONOV, ANVAR SHOJALILOV, XOLIDA G‘ULOMOVA,
SHARAFJON SARIYEV, ZAYNIDDIN DOLIMOV**

O‘quv nashri

O‘QISH KITOBI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik

(O‘zbek tilida)

Qayta ishlangan va to‘ldirilgan oltinchi nashri

Toshkent – «Yangiyo‘l poligraf servis» – 2017
Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011 y.

Muharrir – J. Azimov
Texnik muharrir – M. Riksiyev
Musahhih – M. Riksiyeva
Rassomlar – B. Abdullayeva, Z. Yunusova

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 05.06.2017.
Bichimi 70x90 1/16. «Arial» garniturasi. Ofset qog‘ozi.
Ofset bosma usulda bosildi. Bosma tabog‘i 13,5. Sh. b. t. 15,795.
Nusxasi 469363.
Buyurtma № 4801.

«Sharq» NMAK bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent sh., Buyuk Turon ko‘chasi, 41.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

T/r	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaq-lari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.